

ЖАВЛОН ЖҮРАЕВ



ЎЗЛИК САРИ
ЕТТИ КАДАМ

5

ШАХС ВА ДАВЛАТ

Epigraf

- *Aql, bir oz sergak bo'l! Sen bilan suhbatlashgani davlat keldi.*
- *Qaysi davlat? Jazolovchi davlatmi yoki boy qiluvchi davlatmi?*
- *Nima farqi bor? Ikkisi ham bir emasmi?*
- *Bunisini endi davlat biladi...*

Diqqat

Kitobda davlat haqida bildirilgan fikrlar muallifning shaxsiy qarashlari bo'lib, ular hech bir siyosiy guruh nomidan aytilmagan. Muallif konstitutsion dunyoviy davlat tuzilmasi va fuqarolik jamiyatini yoqlaydi va davlat hamda shaxs o'ttasida mustahkam hamkorlik bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Ushbu ogohlantirish kitobda keltirilgan fikrlarni noto'g'ri talqin qilib, muallifni siyosiy tashviqotda ayplashi mumkin bo'lgan shaxslarga qaratilgan.

Mundarija

Muallifdan.....	4
Boshladik.....	5
Shaxsiyat.....	7
Tirik jon	7
Boshqaruv usullari	10
Sog'lom hujayralar	13
Siyosiy maxluq.....	17
Muhimlik	21
Buyuk xalqlar mevasi.....	21
Madaniyatlar xaritasi.....	24
Eng shaxsiy masala.....	28
Qirqta jon	31
Kemtiklar	36
Sansalor.....	36
Adolat istab	39
Siyosiy befarqlik	43
Til kompleksi	46
Qo'rquvlar	50
Davlatdan qo'rqish	50
Tashqi dushmanlar	53
O'tkir fikrlar	57
Erkinlikdan qo'rqish.....	60
Rishtalar	64
Yollangan bog'bon	64
Yurtboshim – yurtdoshim	67
Altruizm va egoizm.....	71
Bunyodkor kuch	75
Faxr	75
Shaxsiy o'sish va ta'lím	78
Beshinchchi qatlam	82
Baxt.....	86
Muallif haqida	87

Muallifdan

Aziz Kitobxon,

Mana, bir oz dam olib, yana suhbatga chog'landik. Oxirgi suhbatimizdan beri hayotingizda faqat yaxshi o'zgarishlar yuz berdi degan umiddaman.

Bu galgi suhbatimiz shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlar – kuchli shaxs bu munosabatlarda o'zini qanday tutishi haqida bo'ladi. Unda siz bilan yana sirlashamiz – yana eski qadriyatlarga yangicha qarashga urinib ko'ramiz.

Kitob sizga shaxsiy o'sishda davlatning tutgan o'rni haqida bayon qiladi. Jamiyat bizdan nimalar kutishi, bu umidlarni oqlash uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi, shaxsiy baxt va jamiyat o'rtasida ziddiyat paydo bo'lmasligi uchun nimalar qilish lozimligini muhokama qilamiz.

Ushbu – beshinchchi kitob – turkumning eng siyosiy kitobi. Unda davlat tushunchasi muhokama qilingani uchun ham u juda siyosiy. Siyosiy mavzularda gaplashish yaxshi emas degan ishonch bilan yashayotgan bo'lsangiz, kitobni o'qish sizga yoqimsiz bo'lishi mumkin. Lekin kuchli shaxs har qanday mavzuda o'z qarashiga va qadriyatlariga ega bo'lishi kerak. Shunday ekan, siyosiy mavzularni chetlab yurib, biz o'zimizni o'sishda cheklamasligimiz darkor.

Kitob an'anaviy tarzda hafta kunlariga atab boblarga ajratilgan. Uni o'qishda sizdan shoshilmaslikni, aytilgan fikrlarni to'liq o'ylab ko'ribgina xulosalar chiqarishni so'rayman. Chunki sizni chuqr mavzular kutmoqda – chuqr mavzularda esa tezkor xulosalar chiqarish to'g'ri emas.

Davramizga endi kelib qo'shilganlarga bu kitobni o'qishdan oldin turkumdag'i avvalgi kitoblar bilan tanishib chiqishni tavsiya qilaman. Shundagina siz kitobdag'i fikrlarning to'liq mazmuni va go'zalligidan bahramand bo'lasiz.

Xo'sh, kuchli shaxsiyat sari navbatdagi qadamga tayyormisiz?

Boshladik

*"Hamma ayb o'zingda. Hukumat ishiga
aralashma demaganmidim..."
("Shum bola" kinofilmidan)*

Biz davlatlar dunyosida yashaymiz. Yer yuzidan odamzod yashaydigan har qanday hudud borki, u yerda albatta davlat bor. U turli xil ko'rinishda, turli kuch va shaklga ega. Lekin har bir jamiyat boshida bu qozonni nazorat qiladigan bosh oshpaz turadi.

Bosh oshpaz qozon bir maromda qaynashi, taomning tuzi kam yoki ko'p bo'lib ketmasligi, masalliqlar kerakli miqdorda ishlatalishi, ovqat lanj yoki chala pishib qolmasligini nazorat qiladi. Qozondagi masalliqlar bir-birining ta'mini buzmasligi, bir-birini boyitishi va uyg'unlikda pishishi ham oshpazning mahoratiga bog'liq.

Ammo taom mazasi faqat oshpaz san'atiga bog'liq emas. Bunda hal qiluvchi omillardan biri – masalliqlarning sifati hamdir. Oshpaz har qancha mohir bo'lmasin, qozonga tushadigan masalliqlar talabga javob bermaydigan bo'lsa, taom taomga o'xshamaydi.

Jamiyat qozonida qaynayotgan masalliqlar sifati – bu jamiyatni tashkil qilgan shaxslarning kuchlilik darajasidir. Agar jamiyatning asosiy qismini muhimlikka berilgan, o'z shubha va qo'rquvlaridan nariga o'ta olmaydigan, o'z hayoti uchun javobgarlikni o'z qo'liga ola bilmaydigan ojiz shaxslar tashkil qilsa – bu qozon sho'r taomlar pishirishga mahkum.

Siz bilan suhbatlarimiz masalliqlar sifatini oshirishga qaratilgan – biz kuchli shaxslar bo'lishga intilyapmiz. Toki o'zimizga ham, jamiyatga ham bizdan faqat naf kelsin. Shaxsiy ojizlik sabab jamiyat qozonidagi taom sifatini buzib qo'ymaslikka ahd qilganmiz.

Bizning jamiyatda, nimagadir, juda ko'pchilik hamma masalalarni davlat hal qilishi kerak deb o'ylaydi. Ya'ni, oshpaz ham masalliqlar sifatini nazorat qilishi, ham o't maromda yonishini kuzatishi, ham qozonning tozaligini ta'minlashi kerak.

Lekin oshpaz bularning hammasini qilishga kirishsa, hamma ish chala qilinadi. Chunki bitta odam hamma ishni sifatli bajarishga ulgurmaydi.

Demak, mas'uliyatlar taqsimlanishi – har kim jamiyat farovonligi uchun mehnatdan o'z ulushini o'ziga olishi kerak.

Bugungi jamiyatimizda shaxs va davlat o'rtaida sezilarli bo'linish bor. Odamlar davlatni alohida bir mexanizm, ularning ishtiroki va irodasidan tashqarida ish ko'ruvchi tuzilma deb biladi. Biz bugun davlatdan begonamiz – undan qo'rquamiz, undan nari yurishga, uning ishlariga aralashmaslikka harakat qilamiz.

Ko'p hollarda shaxs davlatni o'ziga raqib deb biladi. Chunki jamiyat manfaatlari bilan shaxsiy manfaatlarimiz ko'pincha bir-biriga zid keladi. Bu juda samarasiz va zararli holat – chunki bunda jamiyat o'z-o'ziga sog'lom rivojlanishga to'sqinlik qiladi.

Men sizga har bir kitob so'ngida ushbu bilimlarni ko'pchilikka yetkazishni taklif qilaman – atrofimizda kuchli shaxslar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi ekanini eslataman. Mana bugun buning ortida qanday maqsad turganini bilib oldingiz. Anglab turganingizdek, alohida odamlardagi shaxsiy o'sish oxir oqibat ijtimoiy o'sishga olib keladi. Jamiyatimiz kuchayib, sog'lomlashib boradi.

Men har kim baxtli yashashga haqli ekaniga ishonaman. Jamiyat vakillari qancha xotirjam yashasalar, ularning ish samaradorligi, bir-birlari bilan munosabatlari shuncha yaxshi bo'ladi. Odamlar qancha baxtli bo'lsa – jamiyat shuncha yaxshi yashaydi.

Mening bilishimcha, butun jamiyatni kuchaytirish uchun, uning alohida vakillarini kuchaytirish kerak. Siz bilan suhbatlarimiz ana shu maqsadga qaratilgan. Qanchalik natijaga erishganimizni ma'lum muddat o'tgandan keyin bilamiz. Lekin kitobxonlardan kelayotgan maktublardan shuni sezdimki, o'zgarishlar boshlandi. Siz bilan biz ana shu katta o'zgarishlar ishtirokchilarimiz.

O'zlikni anglash – oddiy inson sifatida baxtli hayot kechirish uchun bitta-yu bitta shart. Mana shuni uddalasak – marra bizniki.

DUSHANBA

Shaxsiyat

Tirik jon

Shaxs va davlat o'tasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilishga kirishishdan avval, keling, davlat o'z mohiyatiga ko'ra qanday tuzilma ekanini anglab olishga urinib ko'raylik. Buning uchun xayolan davlatning yaralish tarixiga sayohat qilamiz.

Qadimgi ajdodlarimiz to'dalarga birlasha boshlaganlarida, ular o'zaro ahil yashash va taraqqiy etish uchun umumiy qoidalarni joriy qilganlar. To'da ichida mehnat taqsimoti yuzaga kelgan va jamoa yashab qolishi uchun tegishli qoidalari o'rnatilgan.

Hamma amal qilishi kerak bo'lган qoidalari joriy qilinishi bilan birga, ana shu umumiy qoidalarga bo'ysunishni istamaydiganlar paydo bo'lган. Umumiy qoidalarga tayanib, bir maromda kechib borayotgan jamoa hayotiga xalal beradigan harakatlar qiladigan bunday a'zolarni tartibga chaqirish ehtiyoji paydo bo'lган. Shunda jamoa orasidan baquvvat a'zolar qoidaga bo'ysunmaganlarni kuch ishlatib bo'lsa ham tarbiyalashni, tarbiya kor kelmasa – qoidabuzarni jazolash yoki jamoadan haydashni o'z zimmalariga olganlar. Vaqt kelib, bu kuchli a'zolar guruhi jamoani boshqa qabilalardan himoya qilishga ham javobgar bo'lishgan. Ichki tartib va jamoa xavfsizligini ta'minlaganliklari evaziga bu kuchlilar guruhini butun jamoa o'z mehnati hisobidan boqqan va kiyintirgan. Eng sodda ko'rinishda davlat ana shunday vujudga kelgan.

Yashab qolish uchun ichki tartib va xavfsizlikni ta'minlash uchun tuzilgan askar guruhlar – ilk davlat odamlaridir. Keyinchalik, ularni oziq-ovqat, kiyim-bosh va boshpana bilan ta'minlashga mas'ul tuzilmalar ham yuzaga kelgan. Jamoaning yillik hosilidan va ov o'ljalaridan askarlarga tegishli ulushini ajratib olish, bu zaxiralarni saqlash va askarlarga yetkazishga javobgar a'zolar (ilk soliqchilar) ham ibtidoiy davlat xodimlariga aylanishgan.

Shu tarzda davlat tuzilmasi asta-sekin kengayib, murakkablashib borgan. Jamiyatning yangi va yangi ehtiyojlarini qoplash uchun

davlatning shu ehtiyojlarga javobgar bo'limlari shakllanib borgan. Shu bilan birga, u yoki bu sohani tartibga solish uchun hamma uchun majburiy qoidalar – keyinchalik esa qonunlar ta'sis etila boshlagan.

Davlatni ko'pincha turg'un mexanizmga o'xshatadilar. Ya'ni, uning ishlash tartibi, alohida qismlari va bu qismlar uchun harakat qoidalari belgilab qo'yilgan. Bu qarash davlatni jamiyatdan ayri va mustaqil irodaga ega, o'z qonuni bo'yicha harakat qiluvchi mashina deb biladi. Unga ko'ra, davlat alohida shaxs istak va irodasini o'ziga bo'ysundiradi va uni o'z mexanizmidagi bir parrakka aylantiradi.

Ammo davlatning kelib chiqishi va rivojlanishiga qarasak, davlatni o'zgarmas mexanizm sifatida baholab bo'lmaydi. Agar davlat mexanizm bo'lsa – uning har bir qismi (har bir parrak) butun tizim bilan mutanosib ishlashi kerak. Agar bir qism ishdan chiqsa yoki bir parrak noto'g'ri tomonga aylana boshlasa (masalan, davlatning xodimi bo'lган bitta shaxs noqonuniy ish qila boshlasa) – bu butun mexanizm faoliyatini izdan chiqaradi.

Sovetlar xuddi shunday "mexanik" davlat tuzilmasi joriy qilishga uringanlar. Ular kuchli mafkura yordamida har bir shaxsni ulkan davlat mexanizmida o'z o'rniiga ega "parrakcha" bo'lishga da'vat qilganlar. Bu davlat mexanizmi yaratilayotgan paytda (o'tgan asrning 30-40-yillarida) shu tuzilmaga mos kelmagan "parrakchalar" bartaraf etilgan (qatag'on qilingan). Juda katta qurbanlar evaziga shiddatli nazorat ostida qurilgan bu davlat mexanizmi qanchadir muddat samarali ishlagan. Davlat mexanizmidagi o'z o'rni va vazifasidan tashqariga chiqmaydigan shaxslar mehnati bilan sezilarli iqtisodiy o'sishga ham erishilgan.

Ammo uzoq yillar davomida bir tekis ishlab kelgan mexanizm tepasiga Mixail Gorbachyov keladi va bitta murvatni keskin buradi. U yillar davomida bir tomonga aylanib, qotib bo'lган davlat tuzilmasi faoliyatini keskin o'zgartirmoqchi bo'ladi. Natijada esa butun tizim izdan chiqadi va davlat mexanizmi qulaydi.

Bu misol bizga davlat mexanizm tarzida ishlay olmasligi, ishlasa ham – uni qurish va ta'minlash o'ta katta kuch va manba talab etishini ko'rsatadi.

Bob boshida davlatning rivojlanishini bejiz evolyutsiya deb atamadim. Mening fikrimcha, davlat – bu tirik organizm. U ham yaraladi, o'sadi, rivojlanadi va kuni kelib nobud bo'ladi. Uning qanchalik uzoq muddat yashashi va kuchli bo'lishi u tug'ilgan muhit, rivojlanish usuli va boshqa davlatlar bilan munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Tarix davomida u ham, xuddi tirik jonlar kabi, o'zgarib, yangi sharoitlarga moslashib, yangi bilimlarni o'rganib borgan. Davlat – jamiyat bilan birga ulg'aygan.

Davlat organizmi alohida shaxslar – hujayralardan tashkil topgan. Har bir hujayra o'z hayotini ta'minlash bilan birgalikda, umumiy organizm faoliyatiga o'z hissasini qo'shishni uddalaydi. Davlat organizmida uni tashqi xavflardan himoya qiladigan, kasallangan hujayralarni davolaydigan, boshqa davlatlar bilan muloqot qiladigan, oziq-ovqatni vujudning barcha qismlariga yetkazadigan, jismoniy yoki aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan millionlab hujayralar bor. Har bir shaxs bu organizmda o'z qobiliyati va tabiiy moyilligiga qarab tegishli vazifani bajaradi. Agar alohida shaxs boshqa shaxs yoki butun davlat organizmi faoliyatiga zarar keltiradigan xatti-harakat qilsa, bu shaxsni tartibga chaqiradigan – keskin holda uni jamiyatdan uzoqlashtiradigan hujayralar ham bor. Xullas, davlat – bu o'zini o'zi ta'minlay oladigan mukammallikka yaqin borgan bir organizm.

Albatta, yuqoridagi misolga mos keladigan davlatni topish qiyin. Ammo uzoqni ko'zlagan davlat ana shunday tuzilmani o'ziga asos qilishi va davlatni mexanizmlashtirishdan nari turishi darkor. Tarixda mexanizm tamoyili asosida qurilgan davlatlar oxir oqibat kichik va oddiy sabablarga ko'ra tanazzulga yuz tutganlar.

Davlatning tirik organizmga o'xshashligi haqidagi qarashdan yana bir xulosa kelib chiqadi: davlat – statik (turg'un) tuzilma emas, u doim o'zgarib, yangilanib, isloh bo'lib boradi. Jamiyatning talablariga ko'ra yangi ko'nikmalar orttiradi, o'zini oqlamagan tartiblarni bekor qiladi yoki yangilariga alishtiradi. O'z-o'zini tinimsiz isloh qilish – sog'lom davlatning xislatidir.

Davlat organizmi alohida hujayralardan tashkil topgan. Ya'ni, har qanday davlat jamiyatni tashkil qilgan alohida shaxslar yig'indisidir. Shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarda shaxs birlamchi o'rinni egallaydi. Chunki shaxs bo'lmasa – davlat ham, unga zarurat ham mavjud

bo'lmaydi. Davlat bilan oldi-berdilaringiz haqida o'ylaganda mana shu tamoyil yodingizda bo'lsin.

Davlatimiz qanchalik kuchli bo'lishi, bizning manfaatlarimizga qanchalik xizmat qilishi har birimizning shaxsiy kuchimizga bog'liq. Biz umumiy organizmni tashkil qilgan hujayralarmiz. Bu tuzilmada har birimizning hayotiy o'rnimiz, o'z vazifamiz bor. Hammamizning kichik-kichik hissalarimiz bir bo'lib, davlat va jamiyat hayotini ta'minlaydigan buyuk kuch yuzaga keladi.

Davlatning kuchi qurollari, armiyasi yoki boyliklarida emas. Har qanday harbiy kuchni boshqa harbiy kuch yengishi mumkin. Har qanday kuchli iqtisodni bitta inqiroz sindirishi mumkin. Davlatning kuchi – uni tashkil qilgan shaxslarning kuchiga bog'liq. Kuchli shaxslardan tashkil topgan davlatgina chindan kuchlidir.

Boshqaruv usullari

Har qanday davlat o'z vazifalarini bajarish uchun, boshqaruv kuchiga – alohida shaxslarning ustidan hokimiyatga ega bo'lishi kerak. Odamlarni o'z izmiga sola bilmagan davlat o'z ishini qila olmaydi va barham topadi.

Davlat alohida shaxs irodasini o'ziga bo'ysundirish uchun turlicha usullardan biri yoki bir nechtasini ishlatsihi mumkin. Eng primitiv va tez ta'sir qiluvchi usul – bu qo'rqtishdir.

Avvalgi suhbatlarimizdan ma'lumki, qo'rquv – eng qadimgi va tabiiy kuchli tuyg'ulardan biri. U bizga yashab qolishga yordam beradi. Agar davlat ana shu tuyg'uni boshqara olsa – shaxs deyarli to'lig'icha uning izmida bo'ladi.

Tarixdagi har qanday harbiy qudratga asoslangan davlat xalqini qo'rquv yordamida boshqargan. Avvaliga dushmanni qo'rqtish va yengish uchun yaratilgan harbiy qudrat barcha g'animplar yengilgandan keyin, xalqni nazoratda saqlashga qaratiladi va bunda qo'rqtish usulidan keng foydalaniladi. Rim imperiyasining qudrati – uning xalqni qo'rquvda tutadigan harbiy kuchi bo'lgan. Sharqda bu usuldan Xitoy imperatorlari ustalik bilan foydalanishgan. Mo'g'il xonlarining ham asosiy boshqaruv usuli qo'rquv bo'lgan.

Mexanik davlat tuzilmasi asosida qurilgan hukumatlar ham qo'rquvni asosiy boshqaruv quroli sifatida ishlata dilar. O'z davrida fashistlar Italiya, Ispaniya va Germaniyada qo'rquv yordamida hokimiyatni tutib turgan. Sovet Ittifoqining ichki qudrati ko'p jihatdan xalqni qo'rqtishga asoslangan. Stalin boshlab bergen bu siyosat ikkinchi jahon urishi sabab o'ta harbiylashgan ulkan mamlakatda mustahkam o'rashgan.

Tabiiyki, bu usulning bir yaqqol xavfi bor: qo'rquv bilan boshqarilgan xalq kuchsiz shaxslardan tashkil topadi, chunki qo'rquv hukmron bo'lgan jamiyatda ojiz shaxslar yetishib chiqadi. Bunday jamiyat tanazzulga yuz tutishga mahkum.

Xalqni kuchli milliy g'urur yordamida ham boshqarish mumkin. Faqat bunda milliy g'urur tabiiy usulda shakllanishi, uni hech kim majburlab xalqqa o'tkazishga urinmasligi kerak. Bu usuldan qadimgi yunon shahar-davlatlari foydalanishgan. Ularda har bir shahar-davlat o'z madaniyati, diniy udumlari, yashash tarzi va, eng asosiysi – o'z milliy g'ururiga ega bo'lgan. Aynan ana shu boshqalarga o'xshamagan bo'lishdan faxrlanish tuyg'usi ularni o'z davlatlariga va hokimlariga sodiq bo'lishga undagan.

Inglizlar bilan asriy urushlar sabab fransuzlarda ham o'ta kuchli milliy g'urur shakllangan va avvaliga qirollar, keyinchalik respublika hukumati xalqni nazorat qilishda ana shu g'ururdan ustalik bilan foydalangan. Kichik nemis davlatlari yagona Germaniya tarkibida birlashganda, hukumat sun'iy ravishda nemis milliy g'ururini shakllantirishga zo'r bergen. Keyinchalik ana shu sun'iy milliy g'urur ta'siri ostida nemislar ikki jahon urushini boshlab, ikkisida ham yutqazganlar.

Anglab turganingizdek, milliy g'urur ustiga qurilgan davlat boshqa xalqlar bilan doimiy dushmanlikka, o'zlaridan boshqa hammani g'anim deb yashashga mahkum. Bunday jamiyatni tashkil qilgan shaxslarda milliy muhimlik juda yuqori bo'ladi va bu ularga o'zlari va boshqalar bilan kelishib yashashga xalal beradi.

Uchinchi tur boshqaruv erkinlik yordamida amalga oshiriladi. Bu boshqaruv usullari ichida eng yoshi va juda aqli tashkil qilingan usuldir. Bunda hukumat xalqni erkin tashlab qo'yib boshqaradi – shaxs o'zini erkin his qilishi uchun yetarli sharoit yaratiladi va shu bilan shaxsning sergakligi o'ldiriladi. Bunday jamiyat vakili o'zining boshqaruv ostida ekanini ko'p hollarda sezmaydi.

Qo'shma Shtatlar o'z tarixi boshida mana shu usulda barpo qilingan. Amerikaga ko'chib borib o'rashgan odamlar asosan Yevropada qo'nim topa bilmagan, eski dunyodagi boshqaruv tizimidan norozi tijoratchi va tadbirkorlar bo'lgan. Ular yangi qit'ada kuchli asos qurib olgandan keyin, Yevropa tazyig'idan batamom mustaqil bo'lish istagi bilan chiqqanlar va erkinlikka asoslangan jamiyat tuzishga kirishganlar. AQSH hukumati erkinlik vositasida boshqarish usulidan hozirgacha keng foydalanadi: oddiy amerikaliklarni "shaxsiy erkinlik" yoki "shaxsiy huquqlar" kabi jumlalar yordamida deyarli har qanday mafkurani qabul qilishga ko'ndirish mumkin.

Albatta, ko'p davlatlar bir nechta boshqaruv usullarini uyg'unlikda ishlatajilar. AQSH hukumati ham erkinlik bilan boshqarishni milliy g'urur bilan kuchaytiradi. Fashist Germaniyasi sun'iy milliy g'ururga asoslangan boshqaruvni qo'rquv bilan mustahkamlagan. Bugun shunday yondashuv Rossiya hukumati tomonidan ishlatilmogda. Fransuz davlati esa boshqaruvda milliy g'ururni shaxsiy erkinlik bilan bir qatorda ishlatishga urinadi.

Bu usullarning har biri alohida shaxslardagi ojizlikdan foydalanib, ularni nazoratda saqlashga qaratilgan. Ammo qo'rquv, g'urur yoki haqparastlik kuchli shaxs belgilari emas. Kuchli shaxs irodasini qo'rquv yordamida sindirib bo'lmaydi, u milliy yoki diniy muhimlikka berilmaydi, u shaxsiy erkinlik nisbiy bo'lishini yaxshi biladi. Ya'ni, kuchli shaxslardan tashkil topgan jamiyatni boshqarishda yuqorida ta'riflangan uch usuldan hech biri samara bermaydi.

Shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlar barqaror va sog'lom bo'lishi uchun, ular qo'rquvga, burch hisiga yoki ko'r-ko'rona minnatdorlik hisiga asoslanmasligi kerak. O'z davlatidan qo'rqqan shaxs samarali ishfaoliyat olib boradigan fuqaro bo'la olmaydi. Davlati va millati oldida o'zini burchli bilgan shaxs ham shu burch yukidan imkon qadar xalos bo'lishga intilib yashaydi. Davlatiga sergakliksiz minnatdor bo'lib yashagan shaxs esa yuzaki erkinligining etagidan tutib, davlatning noto'g'ri qarorlariga ham rozi bo'ladigan xavfli fuqaroga aylanadi.

Shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va ishonchga asoslanishi lozim. O'z xalqi ishonchini yo'qotgan davlat asosiy qudratidan ayrıldi. O'z davlati hurmatini yo'qotgan shaxs davlatni va

boshqa odamlarni o'ziga dushman deb biladi. Xo'sh, qanday qilib davlat bilan ishonchli munosabat o'rnatish mumkin?

Avvalo, davlatni bizdan alohida, bizga begona bir tuzilma deb qabul qilishni to'xtatish kerak. Davlat – bu biz bilan bir jamiyatda yashab kelayotgan boshqa odamlar. Ana shu odamlarga ishonch va hurmat bilan yondashishni, ular bilan muhimlikka berilmay muloqotda bo'lishni uddalay olsak – davlat bilan oldi-berdimiz ham maromida bo'ladi. Unutmangki, davlat – bu barchamizning umumiyligi istak va intilishlarimiz. Bir-birimizga tanlov berib yashasak – davlat ham mustahkam va barhayot bo'ladi.

Eng samarali boshqaruv usuli – bu odamlarga tanlash erkinligini berishdir. Hayotda qaysi kasb egasi bo'lishni, odamlarga qanday naf keltirishni, qanday e'tiqodga ergashishni, qaysi ma'lumotga ishonish-ishonmaslikni shaxslar o'zi tanlasin. Shunda har kim eng samarali usulda jamiyatga foyda keltiradigan baxtli hayot tarzini tanlaydi.

Albatta, bu usul ta'riflanganday ishlashi uchun, jamiyat kuchli shaxslardan tashkil topgan bo'lishi zarur. Bunga esa to'g'ri tarbiya va ta'lif orqaligina erishish mumkin. Har qanday kuchli jamiyat poydevori oiladagi tarbiya va mакtabdagi ta'lifdan boshlanadi. Farzandlarimizga kuchli shaxs bo'lishga, jamiyat hayoti va davlat tuzilmasida o'z o'mini topishga, boshqalarga hurmat nima ekani anglay bilishga yordam bersak – davlat organizmini yana-da kuchaytiradigan hujayralarni yetishtirgan bo'lamiz.

O'zaro ishonch va hurmatdan boshqa qadriyatga asoslangan shaxs-davlat munosabatlarda ikki tomonidan biri yoki ikkisi mudom aziyat chekishga mahkum. Shaxsning aziyati – uning baxtsizligi bo'lsa, davlatning mag'lubiyati – uning ojizlashishidir. Bunda na shaxs yutadi, na davlat.

Sog'lom hujayralar

Nima deb o'ylaysiz: organizm qachon sog'lom bo'ladi? Bu savolga turlicha javob bersa bo'ladi, shunday emasmi? Lekin umumiyligi tarzda

taxminan quyidagicha javob berish mumkin: organizm uni tashkil qilgan barcha hujayralar sog'lom bo'lsagina sog'lom bo'ladi.

Demak, sog'lom jamiyat ma'naviy sog'lom shaxslardan tashkil topishi kerak. Xo'sh, jamiyatni tashkil qilgan hujayralar sog'lomligini nima belgilaydi? Ular baxtli va o'z hayotidan mamnun bo'lsa – mana shu sog'lom shaxslardir. Odam o'z hayotidan mamnun bo'lsa, unda buzg'unchi ishlar qilishga intilish paydo bo'lmaydi. O'zingiz o'ylab ko'ring: hayotidan mamnun odamga pora berish, kimgadir g'ayirlik qilish, bir nimalarni talashish kerakmi? Albatta yo'q. Demak, jamiyat qonunlariga amal qiladigan odamlar odatda baxtli odamlardir.

Xo'sh, qachon odam o'z hayotidan mamnun bo'ladi? Ushbu turkum kitoblari orqali suhbatlarimiz bu savolga javob berishga qaratilgan. Odam baxtli yashashi uchun unga sergaklik kerak, u o'zi sevgan kasbi bilan mashg'ul bo'lishi kerak, maqsadlarini aniq bilishi va shu maqsadlari tomon xotirjam borishi kerak.

Odamlar sergak bo'lish va o'z shaxsiyatlarini kuchaytirishga o'zlari mas'ullar. Ana shunday mas'uliyatini o'z qo'lliga ola bilganlar qatorida biz ham shu kitobni yozyapmiz va o'qiyapmiz.

Ammo ikkinchi shart bajarilishi uchun (biz sevgan kasbimiz bilan shug'ullanishimiz uchun), davlat va jamiyat bunga sharoit yaratishi lozim. Mana shu yerda davlatning alohida shaxslarga bo'lgan munosabati to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa – unda jamiyatni tashkil qilgan hujayralar kasallanadi. Ya'ni har kim o'zi sevgan kasbni egallay olmaydi.

O'zi qiziqmagan va suymagan ishi bilan shug'ullangan odam xuddi o'z imkonidan tashqari ishni qilayotgan hujayraga o'xshaydi. Qondagi kislorod tashuvchi hujayralar aynan tananing barcha qismiga quvvat manbayini yetkazishga moslashgan – agar ular boshqa vazifani bajarishiga to'g'ri kelsa, ular buni samarali uddalay olmaydilar va tana sog'ligi xavf ostida qoladi.

Agar davlat qaysidir sohalarni targ'ib qilishga o'ta katta ahamiyat berib, boshqa sohalarni e'tiborsiz qoldirsa, jamiyatda shu targ'ib qilingan sohaga sun'iy qiziqish paydo bo'ladi. Aytaylik, davlat o'z ehtiyojlardan kelib chiqib, iqtisodchi va huquqshunoslarni tarbiyalashga ko'proq urg'u berishi mumkin. Bunda aslida iqtisod yoki huquq sohasiga qiziqishi

bo'limgan yoshlar ham shu sohalarni egallahsga urinadilar. Vaholanki, sun'iy qiziqish ortidan iqtisod yoki huquqni tanlagan yoshlarning orasida muhandislik yoki mikrobiologiyaga kuchli moyilligi bor iqtidor egalari bo'lishi mumkin. Jamiatga muhandislari va mikrobiologlari ham kerak – juda kerak. Ularning ahamiyati iqtisodchi yoki huquqshunoslarnikidan aslo kam emas.

Jamiatdagi muhit bir nechta sohalarni yoqlaydigan bo'lmashligi lozim. Chunki bunday muhitda muhim deb bilingan soha bo'yicha ko'plab samarasiz va sifatsiz mutaxassislar tarbiyalanadi. Hayotiy zarur bo'lgan boshqa sohalar esa rivojlanishda oqsay boshlaydi. Jamiat organizmida bir guruh hujayralar sustlashsa – bu butun vujudni kasallantiradi.

Inson tanasida turli xil virus va bakteriyalarga qarshi kurashadigan leykotsit deb nomlanadigan hujayralar bor. Ularni oq qon tanachalari deb ham ataydilar. Agar nimadir sabab bilan qonda leykotsitlar miqdori oshib ketsa, odam leykotsitoz yoki keskin hollarda oqqon kasalligi bilan og'riy boshlaydi. Jamiatda ham bir soha vakillari haddan oshiq ko'payib ketsa, ular o'z sohalari bo'yicha samarali ishslash o'rniliga, jamiatga zarar yetkaza boshlaydilar.

Demak, shaxslar o'z ko'ngliga qarab kasb-hunar tanlashini ta'minlash jamiyat sog'lom va muvozanatda bo'lishini belgilaydi. Alovida sohalarga katta ahamiyat berish shu soha vakillari kuchsizlashishiga, butun jamiyat va iqtisod zarar ko'rishiga olib keladi.

O'z ko'ngli moyilligiga qarab kasb tanlashning yana bir ajoyib afzalligi bor: bunday mutaxassisning qadri doim baland bo'ladi. Bugun yoshlar orasida shunday ishonch mavjud – har qancha iste'dodli bo'lsa ham, tanish-bilishlari va ta'sir doirasi bo'limgan mutaxassis qadr topishi qiyin. Bu uzoqni ko'ra bilmay aytilgan xulosadir. Chunki o'z ishining ustasi bo'lgan odam o'z ishini mohirona bajaradi – sifatli qilingan ishning qadri esa hech qachon tushmaydi.

Boy tanishingiz otasining dastagi bilan katta korxonaga ishga joylashadi. Lekin u korxonaga ishdan natija kerak bo'lsa-yu, xodim uni yetkazib bera olmasa – kuni kelib ish beruvchi shu vazifani yuqori sifatda uddalaydigan mutaxassisni izlab topadi.

Siz o'z sohangizda ana shunday tengi yo'q mahoratga erishing, toki asossiz sabablarga ko'ra chala mutaxassislarni ishga olib og'zi kuygan ish beruvchi oxiri sizni izlab kelsin.

Maqsadlarga erishish haqida uchinchi kitobda suhbatlashgan edik. Esingizda bo'lsa, maqsad sizniki bo'lsa va u but maqsad bo'lsa – unga erishish uchun sizda hamma imkoniyatlar borligini ta'kidlagan edik. Sevgan kasbini tanlash va shu kasbda yuqori saviyali mutaxassis bo'lishni maqsad qilish va unga intilishda ham ana shu tamoyilga amal qilish darkor.

Ko'pchilik yoshlar kasb tanlashda shu kasbning "obro'sini" chamalashga urinadilar. Qancha obro'li kasb bo'lsa, shuncha yaxshi. Negadir, qishloq xo'jaligi sohalarida ishlash uchun odamga yetuk aqliy qobiliyatlar kerak emas degan xato tushuncha haligacha juda keng tarqalgan. Har bir sohada aql kerak – axir, aql samaradorlikka erishish uchun eng zo'r qurol. Aqlini ishlata bilmagan agronom yoki chorvador hosilni nobud qilishi yoki odamlarni zaharlab qo'yishi mumkin. Zehn bilan ish tutgan agronom yoki chorvador o'z ishida shunday samaraga erishadiki, uning tajribasini kerak bo'lsa oq ko'ylak kiyib, bo'yinbog' taqqanlar kelib o'rganadi.

Alohida shaxslar o'z istaklariga ko'ra soha va kasb tanlashlari uchun davlatdan ko'p narsa talab etilmaydi. Davlat bu jarayonga xalal bermasa va har kim o'zi qiziqqan sohasini o'rganishi uchun zarur sharoitlarni yaratib bersa bo'lgani. Qolganini hujayralarning o'zi bajaradi. Albatta, hamma sharoit mavjud bo'lsa ham, ba'zi odamlar muhimlikka berilib, noto'g'ri kasbni tanlashi mumkin. Lekin kuchli shaxsiyat egasi bo'lishni targ'ib qilib, biz sergaklikni odat qilamiz va kasbimizni ham o'z ko'nglimiz amriga qarab tanlaymiz.

Ba'zi hollarda tanlagan kasbimizga intilishimizga boshqa odamlar qarshilik qilmoqchi bo'ladi. Ular bizga bu kasb kelajagi yo'qligini, bu kasb bilan hech bir yutuqqa erisha olmasligimizni aytadilar. Bu kasbdan daromad yaxshi emasligini vaj qilib ko'rsatadilar.

Lekin har qanday bunyodkor kasb borki, u hech qachon qadrini yo'qotmaydi. Sergaklikni saqlab qolsangiz, sevgan kasbingizda yuqori marralarga erishishingiz uchun yo'llar ochiladi, shaxsiy kuchingiz sabab kerakli odamlar sizga kerakli yordamni ko'rsatadi. Shaxsiyati kuchli

odamning har qanday sohada ham ishi barakali, samarali va foydali bo'ladi.

Birdan oshiq sohaga qiziqsangiz – birini asosiy, ikkinchisini qo'shimcha kasb qilib tanlashingiz mumkin. Buning hech bir yomon joyi yo'q. Qaytanga, bir kasbingizda iqtisodiy muammolar bo'lsa, boshqasiga suyanishingiz oson bo'ladi. Odatda o'ta iqtidorli odamlar ko'p sohada tengdaniga faoliyat yuritishni istaydilar – ular hamma narsani qilib ko'rgilari keladi. Agar o'zingizda birdan ortiq kasbga moyillik sezsangiz – bu iqtidordan to'liq foydalaning va o'zingizga ikki sohada ham kuchli mutaxassis bo'lishga imkon bering. Bu bilan siz o'zingiz va jamiyatga ikki barobar naf keltirasiz. Bu bilan siz sog'lom jamiyatning sog'lom a'zosiga aylanasisiz.

Siyosiy maxluq

Biz – siyosiy maxluqlarmiz. Bu jumlaning asl ma'nosini anglash uchun, siyosat nimaligini, uning tub mohiyatini anglash lozim.

Bizning aqlimiz hamma narsani tartibda saqlashni yoqtiradi. Chunki tartib nazoratni osonlashtiradi. Aql esa nazorat qilishni juda yaxshi ko'radi.

Bizni bolalikdan hamma narsalarimizni tartibda tutishga o'rgatishadi. O'yinchoqlarimiz, kiyimlarimiz, o'quv qurollarimizni tartibda saqlash uchun qoidalar joriy qilinadi.

Har qanday qoida tartibga xizmat qiladi. Tasavvur qiling, yo'l harakati qoidalari bo'lmasa. Hamma ko'chada o'z bilgancha yursa, transport vositalari ham istagancha harakatlansa. Bu juda katta tartibsizlikni keltirib chiqarar edi.

Tabiatga sayoz nigoh bilan qarasangiz, unda tartib yo'qdek tuyiladi. Ammo yovvoyi tabiatni diqqat bilan kuzatgan odam undagi ajoyib va mukammal tartibga guvoh bo'ladi. Undagi jarayonlar tabiiy qoidalar asosida kechadi va oddiy va samarali tartibga amal qiladi.

Hayvon va o'simliklarga qanday yashash, nima qilish yoki qilmaslikni tabiat aytadi. Ular tabiat belgilagan tartibga amal qilib yashaydilar. Shu bois ham yovvoyi tabiat vakillari faqat samarali usulda hayot kechiradilar. Ular atrof-muhit bilan ziddiyatga bormaydilar.

Biz odamlar esa tabiiy qoidalar bilan qanoatlanmaymiz. Chunki bizda tabiiy ehtiyojdan tashqari ijtimoiy ehtiyojlar ham bor. Biz avtotransportni faqatgina bir joydan boshqa joyga tez yetib olish vositasi deb bilmaymiz. Bizga kerakli joyga tez va xavfsiz yetib olish – tabiiy ehtiyoj. Bunga qo'shimcha bizda yana ijtimoiy ehtiyojlar ham bor: o'zimizni ko'z-ko'z qilish, kimdandir o'zish, obro'ga erishish va hokazo. Agar ko'chada harakatlanayotgan hamma faqatgina tabiiy ehtiyoj bilan yursa, hech kim hech kimga xalal bermaydi va tartib bilan harakatlanadi.

Tartibsizlik va muammolar aynan bizning ijtimoiy ehtiyojlarimiz sabab kelib chiqadi. Ijtimoiy ehtiyojlar aql istaklaridan kelib chiqadi. Bu ijtimoiy ehtiyojlar tabiiy qoidalarga amal qilmaydi. Chunki ularda mantiq yo'q, chunki ular samaradorlikka xizmat qilmaydi. Ular bizning muhimligimizga xizmat qiladi.

O'z ijtimoiy ehtiyojlarimizni tartibga solish uchun biz ijtimoiy qoidalar joriy qilamiz va ijtimoiy tartib yaratishga urinamiz. Avval aytib o'tilgandek, agar ko'chadagi hammaga o'z shaxsiy muhimligiga ergashib, istagancha tez yurishga, o'zini va mashinasini ko'z-ko'z qilishga qo'yib berilsa – bu juda xatarli tartibsizlikni keltirib chiqaradi. Shu xatarni bartaraf qilish uchun ham bizga ijtimoiy tartib kerak.

Ijtimoiy ehtiyojlarni nazorat qilish uchun yaratilgan ana shu qoidalar jamlanmasi – siyosatdir. Ijtimoiy tartib oilada, o'qish yoki ish jamoasida, mahallada va butun jamiyatda ta'sis etiladi. Biz oilamiz doirasida ham siyosat qilamiz: farzandlar uchun qoidalar, mas'uliyat taqsimoti, intizom va boshqa ijtimoiy tartib belgilari oiladagi siyosat elementlaridir.

Umumiy qoidaga bo'ysunishi kerak bo'lган odamlar guruhi qancha katta bo'lsa, siyosat ham shuncha keng qamrovli, qoidalar ham shuncha ko'p bo'ladi. Bir nechta shaxsdan tashkil topgan oiladagi siyosat o'nta qoidaga asoslansa, yigirmadan ortiq shaxs to'plangan maktab sinfida yuzlab qoidalar amal qiladi. Butun jamiyatni esa ming-minglab qoidalar tartibda saqlashga harakat qiladi.

Oiladagi siyosat nimaga qaratilgan bo'ladi? Hamma o'z vazifasini bajarishiga, hech kim mas'uliyatsizlik qilmasligiga, har kim o'z o'mini bilishiga – bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy adolatga. Oiladagi siyosat oila a'zolarining vaqtি o'z shaxsiy ehtiyojlari va oila ehtiyojlari o'rtasidan adolatli taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Masalan, men bilim olib, oliy ma'lumotli bo'lmoqchiman. Bu mening shaxsiy o'sishim uchun kerak, kelajagimni ta'minlashga hissa. Lekin bunga erishish uchun men ko'proq o'qishim va izlanishim kerak. Kunimning ko'p qismi shunga sarf bo'ladi. Natijada oilam ehtiyojlariga men qo'shishim kerak bo'lgan hissam e'tiborsiz qoladi.

Ba'zi oilalar bunday ziddiyatni yangi qoida ta'sis qilish bilan hal qiladilar. Yangi kelishuv tuziladi: ota-onalardan farzandiga bilim olish uchun ko'proq bo'sh vaqt ajratib, oilani ta'minlashni o'z bo'yniga oladi, farzand esa ulg'ayib, ma'lumotli bo'lgach esa ota-onasi yelkasidan bu yukni oladi va ularga beg'am keksalik taqdim etadi. Shu usulda oiladagi siyosat tartibga solinadi va ijtimoiy adolat tiklanadi.

Davlat ham ko'pincha shunday ish tutadi: yoshlarga ilm olish va foydali mutaxassis bo'lguncha vaqt va sharoit beradi. Bepul o'rta ta'limni ta'minlaydi, talabalarga stipendiya bilan ko'maklashadi. Keyinchalik, mutaxassis bo'lib, ishga kirgach, fuqaro bu yordam evaziga davlat va jamiyatga foyda keltirish bilan o'z qarzini uzadi.

Bu oiladagi va jamiyatdagi siyosat qanchalik o'xshash holat ekaniga bir misol. Aslida hayotimizning har bir darajasida biz siyosat bilan yashaymiz. Kundalik yurish-turishimiz, odamlar bilan muomalamiz, orzu-intilishlarimiz hammasi ijtimoiy tartibga amal qiladi. Bunga qisman madaniyat, an'analar, ijtimoiy andazalar va, albatta, davlatning siyosati (u qabul qilgan qonunlar) o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bizning tug'ilishimiz siyosat: chaqaloq tug'ilganda ma'lum marosimlar qilinishini ijtimoiy tartib taqazo etadi. Ulg'ayishimiz siyosat: ota-onalardan ongimizga ijtimoiy tartibga xizmat qiluvchi dasturlarni yozib boradi. Ta'lim olishimiz – katta siyosat: aynan ta'lim bizga ijtimoiy tartib haqida eng keng bilimlarni beradi. Siz muktabda faqat yozish va o'qishni o'rganmaysiz – siz muktabda jamiyat a'zosi bo'lish, ijtimoiy tartibga amal qilishni o'rganasiz. Bizning turmush qurishimiz, farzandli bo'lishimiz, ishga kirishimiz – hammasi siyosat. Bunda ijtimoiy tartibga amal qilmasdan ilojimiz yo'q. Bizning bu dunyoni tark etishimiz – siyosat: ijtimoiy tartib belgilagan usulda yerga ko'milishimiz kerak.

Ba'zi odamlar o'zini siyosatdan yiroq deb biladi. Albatta, ular bunda davlatning olib borayotgan siyosatini nazarda tutadi. Lekin siyosatdan

yiroq bo'lib bo'lmaydi. Siyosat sizning har bir nafasingizda bor – toki sizda aql bor ekan, demak siz siyosatga bevosita daxldorsiz.

Xo'sh, bizga bu qadar ko'p siyosat nega kerak? Nega biz bunchalik siyosiylashgan maxluqlarmiz?

Chunki biz eng tartibsiz jonzotmiz. Bizning aqlimiz ahamiyatsiz narsalarga ortiqcha ahamiyat berib, tabiiy muvozanatni buzishga o'ch. Tabiiy muvozanat buzilganda esa – tartibsizlik kelib chiqadi. Biz o'zimiz hayotimizda tartibsizlik keltirib chiqaramiz va ana shu tartibsizlikni nazorat qilish uchun siyosat o'ylab topamiz.

Lekin har qanday siyosatning bir kamchiligi bor: u har doim ham kutilgandek ish bermaydi. Ijtimoiy tartibni buzadiganlar, qoidalarni mensimaydiganlar, ijtimoiy adolatni qadrlamaydiganlar har doim topiladi. Shunda jamiyatda (bu jamiyat kichik oilami, yoki butun xalqmi – farqi yo'q) ziddiyatlar kelib chiqadi. Bu ziddiyatlar bizni ko'ngil xotirjamligidan ayiradi va baxtsiz odamlarga aylantiradi.

Ijtimoiy tartib muhimlikka berilish sabab buziladi. Kimdir o'z manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo'yadi, kimdir o'ziga ortiqcha baho beradi, kimdir o'zini adolat va qonundan yuqori hisoblaydi. Juda ajoyib holat: muhimlik bizni notabiyy istaklarga ergashib, tartibsizlik keltirib chiqarishga undaydi. Bu tartibsizlikni bartaraf qilish uchun qoidalarni joriy qilib, muammoni hal qilmoqchi bo'lsak – muhimlik ana shu qoidalarni buzishga undaydi va yangi muammolar keltirib chiqaradi.

Siz bilan men bu holatga yechim oddiygina sergaklik ekanini bilamiz. Sergaklik bizni tabiiy muvozanatni buzishdan asrab qoladi. Tabiiy muvozanat buzilmasa – yangi ziddiyatlar keltirib chiqaradigan siyosatga hojat yo'q. Hech e'tibor berganmisiz: siyosat haqida o'ylash yoki gapirish juda yoqimsiz. Sababi oddiy: siyosat – muhimlik mevasi, u bizning hayotiy quvvatimiz hisobidan mavjud. Siyosatning asosiy muammoi – uning mavjudligi, unga zarurat borligida.

SESHANBA

Muhimlik

Buyuk xalqlar mevasi

*“Targab ketgan to'qson to'qqiz
urug'iimsan, Vatanim”*

(Sevara Nazarxon qo'shig'idan)

Siz – kuchli shaxssiz. Balki buni o'zingiz bilmassiz va yuzaga chiqara olmassiz, lekin siz – kuchli shaxssiz. Chunki sizda minglab yillar davomida to'plangan kuch va salohiyat bor. Bu kuchni sizga barcha ajdodlaringiz qoldirgan.

Sizning geningizda saklar, yunonlar, forslar, arablar, mo'g'illar va boshqa yuzlab buyuk xalqlarning meroslari jamlangan. Siz buyuk xalqlarning buyuk mevasisiz. Yer yuzidagi har bir inson buyuk xalqlarning buyuk mevasi.

Bugun biz yashayotgan hududlarda bir paytlar oq-sariqdan kelgan, kulrang ko'zli, sariq sochli saklar yashagan. Doro va Kir istilosi bilan bu hududlarga forslar kelgan va mahalliy xalq bilan qorishgan. Iskandar istilosi bilan ularga yunonlar kelib qo'shilgan. Keyinchalik arablar, mo'g'illar va ruslar bu jarayonni davom ettirgan.

Bugungi o'zbek – minglab yillar bir-biri bilan tinmay qorishib kelgan elatlар natijasi. Qora qosh va sochlarni forslardan, bug'doyrang terini arablardan, qisiq ko'zlarni mo'g'illardan olganmiz.

O'z yuksak madaniyati va qadriyatlariga ega mahalliy xalq har bir yangi istilochi xalqdan yangi narsalarni o'rgangan. Asrlar davomida madaniyat boyib, o'zgarib borgan. Bugun ham kundalik hayotimizda o'sha qadimgi saklardan qolgan odatlarimiz, forslar va arablar olib kelgan udumlar, ruslardan o'rgangan tartiblarimiz mavjud.

Endi eng asosiy gapni aytaman: millat degan tushuncha – shartli belgi. Siz hech qachon sof o'zbekni topa olmaysiz. Har bir odam qonida yuzlab elatlarning geni mujassam. Har bir o'zbek o'z irsiy merosida qanchadir foiz yunon, qanchadir foiz fors, qanchadir foiz arab va mo'g'il.

Millat degan narsa shu qadar ongimizga mahkam o'rnashganki, mening bu gaplarim juda ko'pchilikda norozilik uyg'otadi. Lekin jahlingiz bosilib, ozgina sergak turib o'ylasangiz – rostdan ham sof millat degan narsa mavjud emasligini anglab yetasiz.

Millatchilik – juda ham xunuk odat. Bu ilmsizlik va ojizlik belgisi. O'zining kelib chiqishini aniq bilmaydigan odamgina millatchi bo'lishi mumkin. Bu o'zligini angray bilmagan odamga xos.

Milliy muhimlik – o'z milliy kelib chiqishiga o'ta katta ahamiyat berishdir. Bunday muhimlik odamni zaiflashtiradi – chunki bunday odamga uning millatini bahona qilib ta'sir o'tkazish, uning irodasini nazorat qilish mumkin.

Bugun ko'pchilikda (ayniqsa, yoshlarda) davlat – o'zbeklarniki degan ishonch mavjud. Albatta, xalqimizning asosiy qismi o'zbek degan nom ostida yashaydi. Lekin davlat – butun xalqning vakili. Davlat mamlakat hududida yashovchi har bir shaxsning manfaatiga xizmat qiladi. Har holda, jamiyat farovon bo'lishi uchun shunday bo'lishi kerak.

Biroq bu gaplarni hayotga solishtirsak, amalda ko'p narsa boshqacha. Davlat nomidan ish ko'radigan hamma ham millatchilikdan holi emas. Lekin muammo alohida mansabdor shaxs odamlarni millatiga qarab ajratganida emas – muammo buni ko'rib turgan boshqalar buni oddiy hol deb qabul qilishida. Muammo – millatchilik tabiiy hol deb ko'rinishida.

Men faqat o'zbeklar millatchi demoqchi emasman. Millatchilik odati biz bilan birga yashayotgan ruslar, tojiklar, koreyslar, qirg'izlar, tatarlar va boshqa yuzlab elat vakillarida bor. Ammo biz o'zbeklar – mamlakatda ko'pchilikmiz. Demak, bizning o'zimizga bo'lgan ishonchimiz balandroq. Va biz boshqa millatlarni ajratishga uncha qo'rqlaymiz – bundan uyalmaymiz.

Biz qancha millatchilikka berilsak, yurtimizda yashayotgan boshqa millat vakillari o'zlarini shuncha katta xatar ostida deb biladilar. Natijada ular o'z g'iloflariga o'ralib, o'z millatlariga kattaroq ahamiyat bera boshlaydilar. Bu esa ularning jamiyatdan begonalashishiga – jamiyatning ichida jiddiy bo'linish paydo bo'lishiga olib keladi. Bo'linganni esa bo'ri yeydi.

Bugun ruslar yurtida mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizga qilinayotgan muomalani ko'rib, millatchilikdan holi bo'lish juda qiyin. Ruslar ham o'z yurtida ko'pchilikni tashkil qilgani uchun, ularning orasida boshqa millat vakillarini kamsitishday ojizlikka boradiganlar ko'p topiladi. Lekin qaysidir shaxslar ojiz bo'lganiga javoban biz ham ojizlikni tanlasak – bu sergak tanlov bo'lmaydi.

Biz kuchli bo'lishni tanlashimiz kerak. Millat sifatida emas – xalq sifatida bir bo'lishimiz, xilma-xilligimizdan o'zimizni kuchli qilish uchun foydalanishimiz kerak. Yurtdoshlarimizni millatiga qarab emas – jamiyat uchun keltirgan foydasi, mehnatiga qarab hurmat qilishni o'rgansak, buyuk xalq bo'lamiz.

Davlat – xalqning vakili, millatning emas. Uzoqni ko'zlagan davlatchilik "millat" tushunchasi ustiga qurilmasligi kerak. Chunki millat doim o'zgarib turadi. Bunday davlat o'z g'ilofiga o'ralishga, dunyoda yuz berayotgan jarayonlardan uzilib qolishga mahkum. Bunday davlatning asosini tashkil qilgan "millat" tushunchasi global oldi-berdilarga dosh bera olmaydi. Millat ustiga qurilgan davlat ana shu millatni o'zgarishsiz saqlab qolishga va shu bilan o'z mavjudligini ta'minlashga intiladi. Bu esa xalqni tushkunlikka olib keladi.

Bugun o'zbek tilini boshqa tillardan kirib kelgan so'zlardan "tozalash"ga intilish holati kuzatilmoqda. Bu aholining ba'zi qatlamlarida milliy muhimlik avj olganidan dalolat. Eng achinarlisi, bunday takliflar o'qimishli, dunyoqarashi nisbatan keng shaxslardan chiqmoqda. Sergak va ma'naviy butun odam tilimiz o'nlab tillarning qorishmasi ekanini, til tinimsiz o'zgarib, yangilanib va boyib borishini biladi. Bu jarayonni ortga qaytarishga intilish – samarasiz va zararli harakat. Bunga sarflangan kuchni boshqa – bunyodkorroq maqsadga yo'naltirilsa, jamiyat uchun qancha foydali ishlar qilsa bo'ladi.

Men o'zbek tilini juda yaxshi ko'raman. Rus va ingliz tillarini yaxshi bilsam ham, o'zbek tilida fikrimni bayon qilganda tilim yayraydi. O'zbek tilining menga zavq bag'ishlaydigan jihat shuki, u tarix davomida turli tillardan eng yaxshi so'zlarni olib, boyib borgan, sayqallangan. Xalq o'z tilini aynan boshqa tillar yordamida charxlagan. Shuning uchun bugungi o'zbek tilida o'tkir fikrlar aytish, otashin she'rlar bitish mumkin. Bu qudrat

ildizi tilning sof o'zbekcha yoki turkiyiligida emas – uning rang-barangligida.

Milliy muhimlik nafaqat til, balki jamiyatning boshqa jabhalarini ham rivojlanishdan tiyib turuvchi holat. Undan holi bo'lishga erishgan shaxs boshqalarni hurmat qilishni o'rganadi va o'zi ham hurmatga sazovor bo'ladi. Undan holi bo'lishga butun xalq erishsa – bu xalq ulkan yutuqlarga va farovonlikka erishadi. Buni qanchalik to'g'ri ekanini bilish uchun amalda sinab ko'rish kerak.

Milliy muhimlikdan holi bo'ling. Bu bilan o'z millatingizdan "chiqib" qolmaysiz. Aksincha – bu bilan kuchli shaxs sifatida o'z millatingiz obro'sini ko'tarasiz. Boshqa millat vakillari orasidan do'stlar orttiring. Ular sizga ko'p yangi narsalarni o'rgatishi mumkin. Siz ham ularga ko'p narsani o'rgatishingiz mumkin.

Kuchli shaxs inson qadrini uning millati belgilamasligini biladi. Siz ham endi millat – shunchaki shartli belgi ekanini bilasiz. Shaxsiyatningiz imkoniyatlari milliy muhimlik bilan cheklanmasa, katta yutuqlarga erishishingiz mumkinligini bilasiz. Mana endi siz rostdan ham kuchli shaxssiz.

Madaniyatlar xaritasi

Mamlakatimiz bir-biridan rang-barang tabiat va madaniyatga ega viloyatlardan tashkil topgan. Har bir hududning o'ziga xos hayot tarzi, go'zal urflari va betakror iqlim sharoiti bor. Ammo, nimagadir, biz bu farqli jihatlarni bir-birimizdan uzoqlashish va begonalashish uchun ishlatamiz.

Mahalliychilik – odamlarning shaxsiy muhimligi asosida yuzaga kelgan yana bir katta ijtimoiy ofatdir. U odamlarni yashash joyi yoki kelib chiqish hududiga qarab ajratishni, bir hudud aholisi boshqa hududda yashovchilarga past nazarda qarashini bildiradi. Bu illat har birimizda ozmi-ko'pmi bor va u turli holatlarda odamlar bilan muloqotimizni qiyinlashtiradi.

Biz yagona jamiyat bo'la turib, hududlarga qarab shu qadar bo'linganmizki, bu bo'linish tengdaniga turli xil pog'onalarda namoyon bo'ladi. Biz, avvalo, geografik joylashuvga qarab bo'linganmiz. Bu tabiiy

sharoitlar asosida yuzaga kelgan bo'linishdir. Farg'ona vodiysi har tomondan tog'lar bilan o'ralgan bo'lgani sabab, u yerda alohida o'ziga xos madaniyat va yashash tarzi shakllangan. Xorazm vohasi ham boshqa hududlardan sahrolar bilan ajratilgani sabab, bu o'lkada ham o'ziga xos madaniyat va turmush tarzi yuzaga kelgan (ularning shevasi ham boshqa viloyatlar tilidan keskin farq qiladi). Surxondaryoning tog'larida yana boshqa o'ziga xos madaniyat ildiz otgan. Chirchiq-Ohangaron vodiysida joylashgan Toshkentda ham boshqa hech bir hududda yo'q madaniyat va ijtimoiy tuzum yuzaga kelgan. Bular mamlakatimizdagi tabiiy-tarixiy omillar sabab bir-biridan farqli rivojlangan madaniy hududlarga ba'zi misollar, xolos.

Ammo bo'linish bu bilan tugamaydi. Viloyatlar o'z navbatida markaziy shahar va tumanlarga bo'lingan: shaharliklar tumanlarda yashovchilarni o'zlaridan boshqacha deb biladi. Tumanlar ham o'zlarini shahardan va boshqa tumanlardan g'ayri deb biladilar. Bir qishloq odamlari boshqa qishloq odamlarini mensimasligi, bir mahalla qo'shni mahallaga yuqorida turib qarashi holatlari ham juda keng tarqalgan.

Bizdek mehmonnavoz va do'stlikparvar xalq ichidan bunchalik bo'linishiga nima sabab? Axir, qaysi bir viloyatga mehmon bo'lib borsangiz, sizni ochiq yuzli odamlar qo'li ko'ksida yuzida tabassum bilan kutib oladi. Qancha uzoqdan mehmon kelsa uyimizga – shuncha sevinamiz, shuncha faxrga to'lamiz, mehmonlarni chiroyli kutib olishga shunchalik intilamiz. Nega endi boshqa joydan kelgan odam biz bilan yashasa, ishlasa yoki o'qisa, uni doim ajratgimiz, undan ayri bo'lgimiz keladi?

Gap shundaki, biz xilma-xil madaniyatlarimizdagi farqlarga ko'proq e'tibor beramiz. Boshqalardan farqli bo'lish bizdagi shaxsiy muhimlik tuyg'usini kuchaytiradi va biz o'z hayot tarzimiz haqligiga isbot izlaymiz. Aynan shu muhimlik tuyg'usi boshqalar hayot tarzini qoralashga va shu asosida ularni nohaq bilishga asos bo'ladi.

Bu yondashuvni sergak turib baholasa, uning qanchalik yuzaki va cheklangan ekani ayon bo'ladi. O'zingiz o'ylab ko'ring, turli hudud va iqlim sharoitida yashovchi odamlarning qarashlari, falsafasi, turmush tarzi turlicha bo'lishi tabiiy hol. Tog'ning o'z toshlari. sahroning o'z

qumlari bor – bunday xilma-xil muhitda bir xil madaniyat shakllanishi imkonsiz.

Aytaylik, men vodiyda emas, Mirzacho'lida tug'ildim deb tasavvur qilaylik. Xo'sh, mening tarbiyam va hayotga qarashlarim Mirzacho'l sharoitlariga mos bo'lgani maqsadga muvofiqmi yoki vodiycha tarbiya bilan o'sganimmi? Albatta, hududiy muhimlikka berilgan vodiyiliklar vodiycha tarbiya hammasidan afzal deb biladi. Ammo bunday tarbiya Mirzacho'lida yashab ketish uchun mos bo'lmasligi mumkin. Shu bois ham yillar davomida Mirzacho'lning o'z hududiy madaniyati va turmush tarzi shakllangan va shu hudud odamlariga beminnat xizmat qilib kelmoqda.

Ishoning, hamma joyda bir xil qadriyatlar bo'lsa – hayot juda zerikarli bo'lar edi. Biz boshqa viloyat va o'lklalar madaniyatini ko'rib, juda ko'p narsalarni o'rganamiz, yangi qadriyatlarni kashf qilamiz. Ularning qadriyatlari ham bunyodkor maqsadlarga xizmat qiladi. Ularning yashash tarzi ham o'z jozibasi va afzalliklariga ega. Biz bu afzallikkarni ko'ra bilmasak, ular mavjud emas degani emas. Hududiy muhimlikka berilmasadn, bu ajoyib madaniyatlarni o'rgansakkina ana shu afzallikkarni taniy oladigan bo'lamiz.

Hududiy muhimlik illati faqat bizning jamiyatga xos jihat emas. Bu illat har bir mamlakatda bor. Yevropaning rivojlangan davlatlarida ham odamlar bir-birini viloyatiga yoki yashash hududiga qarab ajratadi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki inson tabiatini hamma yerda bir xil: jamiyat iqtisodiy rivojlangan bo'lsa ham, uning alohida a'zolari bari bir muhimlikdan holi yashay olmaydilar.

Bizdagi muammo shundaki, hududiy muhimlik juda ko'p qarorlarimizga ta'sir qiladi. Ota-onalar boshqa viloyatdan kelin olishni yoki boshqa hududga qiz uzatishni juda ko'p hollarda istamaydilar. O'qish yoki ish joyida boshqa viloyatdan kelganlar bilan do'st tutingimiz kelmaydi. Ko'pincha hududiy muhimlik sabab kimgadir nohaqliq qilamiz.

Biz, avvalo, kuchli shaxs bo'imochimiz. Kuchli shaxs esa turli hududlardagi madaniy xilma-xillikni qadrlaydi va buni o'z ma'naviy o'sishi uchun ishlata biladi. Vodiyiliklardan ko'p foydali narsalarni o'rgansa bo'ladi. Xorazmliklar ham hayotga qarashlaringizni juda ko'p yangi fikrlar bilan boyita oladilar. Samarqand va Buxoro aholisining boshqalarga ibrat

bo'ladigan qadriyatlari bor. Surxondaryo va Qashqadaryo ham ajoyib insonlar o'lkasi – ulardan ham ko'p narsani namuna qilib olsa arziydi.

Undan keyin, Navoiy va Jizzaxning poliz ekinlarisiz, Xorazmnинг gurunchisiz, Surxondaryoning tilni yorar uzumlarisiz, vodiyning olma va anorlarisiz, Samarqandning nonlarisiz o'zbekning dasturxonini tasavvur qilish qiyin. Biz yaxlit vujudning alohida qismlarimiz – har birimiz boshqalarga kerakmiz, jamiyat hayotida o'z o'rnimiz va boshqalarga o'xshamagan qadrimiz bor.

Shaharlarda maslahat: qishloqliklar sizni oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jaligi mollari bilan ta'minlayotganini yodda saqlang. Mehnatdan qochmaydigan qishloq odamlariga hurmat ko'rsata bilish – yuksak madaniyat belgisi. Shaharning madaniyatli odamlariga qishloqliklarni kamsitishdek madaniyatsiz ish aslo yarashmaydi.

Qishloqliklarda maslahat: unutmangki, har qanday shahar ham bir paytlar kichik qishloq o'rnda paydo bo'lган. Shahar aholisi sizni ta'lim va tibbiyat kabi zaruriy xizmatlar bilan ta'minlaydilar. Ularga hurmat ko'rsata bilish – bag'rikenglik belgisi. Qishloq odamlari esa samimiyatda har kimga o'rnak bo'la oladilar.

Bular juda oddiy gaplardek tuyilishi mumkin – lekin ana shu oddiy gaplarni hayotimizda qo'llashga kelganda bizga ba'zan shaxsiy kuch yetishmay qoladi. Keyingi safar kimnidir yashash joyiga qarab boshqalardan ajratayotganingizni sezsangiz – sergak torting. Hududiy muhimlik hurmatga loyiq ko'plab odamlar bilan siz uchun foydali muloqotda bo'lishingizga xalal berishiga yo'l qo'y mang.

Shu o'rinda bir narsani aytib qo'ymoqchiman. Ushbu turkum kitoblar mamlakatimizning turli hududlarida yashovchi ajoyib insonlar bilan fikr almashish natijasida yuzaga kelgan. Bu bayonlar o'n ikki viloyat, bir respublika va poytaxtlik kuchli shaxs bo'lishga intilayotgan ochiq fikrli va keng ko'ngilli odamlarning mehnati samarasi. Men har safar uzoq viloyat va tumanlardagi kitobxonlardan xat olsam, juda xursand bo'laman – bu menga yashash joyi va turmush tarzidan qat'iy nazar, shaxsiy o'sish yo'lidan borishni tanlayotgan do'stlarim juda ko'p ekanini eslatadi. Biz hamfikrmiz, biz yakdilmiz – mana shu bizning eng katta yutug'imizdir.

Eng shaxsiy masala

Biz avvalgi kitobda din va e'tiqod tushunchalarini farqlashga harakat qilgan edik. Bu gal diniy muhimlik qanday paydo bo'lishi va u nazoratga olinmasa, qanday oqibatlarga olib kelishi haqida so'zlashamiz.

Diniy qarashlar odamlarga kuchli ta'sir qilgani uchun, ular ko'p hollarda siyosiy qurol kabi ishlatilgan. Ular odamlarning e'tiqodga bo'lgan ehtiyojidan kuch oladi. Din vositasida odamlarni birlashtirish uchun, ularga g'ayridinlardan farqli jihatlari haqida aytish lozim. "Biz haq yo'ldamiz – ular esa adashganlardir" kabi ta'kidlar din vakillariga o'zlarini boshqalarga solishtirishga, g'ayridinlardan ustun jihatlarini ko'ra bilishga va bu bilan faxrlanishga imkon bergen. Diniy muhimlik ana shunday paydo bo'lgan.

O'quvchida noto'g'ri taassurot uyg'onmasligi uchun, diniy muhimlik deb nimani nazarda tutayotganimni aytib o'tay. Diniy muhimlik – bir din vakilining o'z diniy qarashlarini boshqalarnikidan ustun bilish, o'zini haqroq sanash va shu asosda boshqa din yoki dinsizlik vakillarini qoralash holatidir. Dinshunoslikda dinning tamoyillariga o'ta berilib ketish, ularga amal qilishda keskinlikka borishni diniy mutaassiblik yoki aqidaparastlik deb ataydilar.

Diniy mutaassiblik tarix davomida insoniyat boshiga ko'plab kulfatlarni keltirgan. O'rta asrlarda yevropaliklar Vatikan ta'siriga tushib, diniy muhimlikka haddan ziyod berilganlar. Ular cherkov uchun har narsaga tayyor bo'lish darajasida diniy mutaassiblikka berilganlar. Buning eng achinarli natijasi – Salib yurishlari bo'lgan. Quddus shahrini musulmonlardan tortib olish – oddiy yevropalikka aslo kerak bo'lmagan. Lekin diniy muhimlik sabab, u cherkov da'vatiga ergashgan va boshqa din vakillariga qarshi qilich ko'targan.

Bizning tarixda ham diniy mutaassiblik jamiyatga zarar keltirgan holatlari ko'p uchraydi. Buyuk astronom olim Mirzo Ulug'bekning o'z farzandi qo'lidan o'llim topishiga diniy mutaassiblik sabab bo'lgan. Shoh va olim o'z zehnli nigohini yulduzlarga qaratganidan uni shakkoklikda va dinga qarshi borishda ayblovchilar paydo bo'lgan. Otasining ilm-fanga mehrini noto'g'ri tushungan Abdulatif aynan diniy mutaassiblik sabab o'z

jinoyatini “to‘g‘ri” ish deb bilgan – u taxtni va dinni osmondan xudoni izlagan shakkok hukmdordan tozalashga ahd qilgan.

Diniy muhimlik – o‘z dini va uning tamoyillariga haddan ziyod ahamiyat berishdir. Bunday muhimlikka berilgan odam dinni har narsadan ustun qo‘yib, jamiyatdagi boshqa qadriyatlarni mensimaslikkacha borishi mumkin. Har qanday din ilm olishni targ‘ib qiladi – ammo o‘z g‘arazli maqsadlariga odamlarni ergashtirish uchun dinni qurol qilib ishlatadiganlar ko‘pincha ilm-fanni inkor qiladilar. Diniy qadriyatlarni pesh qilib, kimdir fanni inkor qilyaptimi – bu gaplarning asl e’tiqodga hech qanday daxli yo‘qligini sergak odam darhol anglaydi.

Din va davlat qonuni bir masala yuzasidan ikki xil tartib o‘rnatishi mumkin. Masalan, dinda ustama foizga qarz berish man qilingan. Davlat esa banklar faoliyatini qonuniy deb belgilagan. Chunki davlat butun jamiyatga xizmat qiluvchi qonunlarni qabul qiladi. Zamonaviy jamiyat barqaror rivojlanishi uchun esa banklar faoliyati zarur.

Diniy tamoyil aynan shu din vakillari manfaatlariga xizmat qilishi mumkin. Ammo bizning jamiyatda turli xil din vakillari yashaydi – barchaning manfaatini ta’minalash davlat yelkasida. Konstitutsiyada din davlatdan alohida ekanini ta’kidlovchi modda barchaning manfaatiga xizmat qiluvchi davlat qonunlari birinchi o‘rinda turishiga ishora qiladi.

Diniy muhimlikka berilgan odamlar mening gaplarimni ham noto‘g‘ri talqin qiladilar. Dinga noxolis munosabat qanday oqibatlarga olib kelishi haqida gapirsam, ko‘pchilik buni oson hazm qila olmaydi. Chunki odamlar uchun diniy muhimlikdan holi bo‘lish juda qiyin. Har nima qilsa ham, din – hayotimizning ajralmas va katta qismi. U har qanday xatti-harakatimiz va qarorlarimizga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Buni anglagan holda, meni dahriylikda ayblaganlardan xafa bo‘lmayman.

Shu yerda, muhokama bir tomonlama bo‘lmasligi uchun, dinsizlik muhimligi haqida ham aytib o‘tishim joiz. Ateistlar – hech bir e’tiqodni qabul qilmagan va Xudo borligini inkor qiluvchi odamlar. Ateistik muhimlik – Xudoni inkor qilishga haddan ziyod ahamiyat berishdan kelib chiqadi. Bunday muhimlikka chalingan odam dindor odamlarni yomon ko‘rish yoki kamsitish kabi ojiz harakatlar qilishi mumkin. Ya’ni, ateistik muhimlik diniy muhimlikchalik zararli odatdir.

Diniy muhimlik bizni eng avvalo ateistlardan nafratlanishga undaydi. Chunki biz haq deb bilgan yo'lni ular inkor qiladilar. Lekin kuchli shaxs haqiqatga ko'plab yo'llardan borish mumkinligini biladi. Shunday ekan, ateistlardan xafa bo'lish, ularni qoralash, yoki (Xudo ko'rsatmasin) ulardan nafratlanish kerak emas. Ularning tanlovini hurmat qilish kerak – tamom.

Tarixdagi eng buyuk sultanatlarda turli dinlarga hurmat bilan munosabat bildirilgan. Bu yuksak madaniyat belgisi hisoblangan. Usmoniy turklar imperiyasida ham turli din va e'tiqod vakillari do'stlikda va totuvlikda yashaganlar. Aynan ana shunday yondashuv uzoq muddat davomida sultanatda ichki barqarorlik va rivojlanish saqlanib qolishiga asos bo'lgan.

Buyuk ajdodimiz Bobur Mirzo va uning farzandlari ham Hind zaminida asos solgan yangi sultanatida ichki tinchlik va farovonlikni ta'minlash uchun, turli xil din vakillariga hurmat ko'rsatishda ibrat bo'lganlar. Diniy muhimlikka berilgan amaldorlarga bu siyosat yoqmagan, lekin vaqt o'tib xilma-xil dinga ergashuvchi Hindiston xalqi bahamijihat yashashga erishganida bu tadbir o'zini oqlagan.

Islom har vaqt bag'rikenglikni, boshqa din vakillariga hurmat ko'rsatishni targ'ib qilgan. Islom tamoyillari bugungi kunda juda xilma-xil talqin qilinmoqda – bunday talqinlarning ba'zisi g'ayridinlarga nafrat uyg'otishga urinmoqda. Lekin din tamoyillarini qanday tushunish va amalda qo'llashni biz tanlaymiz. Shunday ekan, diniy muhimlik ta'sirida kimgadir nafrat yoki g'ayirlik ko'rsatib, behuda gunoh ortirmaylik.

Sizni biror kimga yomon qarashga, kimnidir qoralashga, kimnidir ayplashga undaydigan odamlar o'z nutqlarida dindan foydalanganlarini payqasangiz – sergak bo'ling. Sizning diningiz – bu sizning shaxsiy tanlovingiz. E'tiqod – qalb istagi bo'lsa, din shu istakni amalga oshirish usullaridir. Bu siz va Yaratuvchi qudrat o'rtaсидаги муроқот. Уни оммага олиб чиқиш, муҳокамага қо'yish, бoshqalarining e'tiqod yoki diniga solishtirish kerak emas. Bu sizning eng shaxsiy jihatingiz bo'lib qolishi, uni jamiyat ta'siridan holi saqlashingiz lozim.

Avvalgi kitoblarda muhokama qilganimizdek, bir narsani boshqasiga solishtirib berilgan baho doim nisbiy va ishonchhsiz bo'ladi. O'z diniy qadriyatlarimizni boshqalarnikiga qiyoslab, biz o'zimizda zararli diniy

muhimlikni avj oldiramiz. Natijada, aslida bizniki bo'lmagan huquq – odamlarni yaxshi-yomonga ajratish huquqiga da'vo qilamiz. Kim haq-u, kim nohaq ekanini faqat Xudo biladi – uning o'rniغا buni hal qilishga urinish sergak odamning ishi emas.

Boshqa din vakillariga munosabatingizda nafrat, g'ayirlik, mensimaslik yoki boshqa bir qoralash tuyg'usi mavjud bo'lsa – demak, diniy muhimlikka berilgansiz. Bu munosabatingizni sergak baholab, muhimlikdan holi qilishga urining. Boshqa din vakillari orasida ham kuchli shaxslar juda ko'p – ular bilan do'st tutinish, ulardan yangi bilimlar o'rganish, fikr almashish hech kimga zarar keltirmaydi.

Diniy muhimlik, har qanday muhimlik singari, sizga jamiyatning a'zosi bo'lishga xalal beradi. Jamiyat – xilma-xil e'tiqod va qadriyatlarga ega shaxslardan iborat. Ular bilan muloqotda muhimlik ishtirok etishiga yo'l qo'ysangiz, shaxsiy o'sishda yutqazgan bo'lasiz.

Xudo bilan suhbatlaringizga bandasi aralashishiga imkon bermang. U bilan munosabatingiz sizning ko'nglingizdagi sof e'tiqodga asoslangan. Kimsidir o'z nafrati va adovatini sizga yuqtirish uchun dinni vosita qilishiga imkon bermang. Bilingki, har qanday nafrat va adovat e'tiqodni zaiflashtiradi. Zaif e'tiqod esa ojiz shaxsiyatning o'zagidir.

Qirqta jon

*Ushbu bob eng aziz va muhtaram
onalarimiz va opa-singillarimizga
bag'ishlanadi*

Bugun muhokama qiladigan so'ngi masala – jinsiy muhimlikdir. Anglab turganingizdek, bu bizda ko'p uchraydigan erkaklarning ayollardan o'zini yuqori hisoblash holatidir.

Qadim-qadimdan jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida mas'uliyat taqsimoti mavjud bo'lgan. Ayollar, asosan, uy-ro'zg'or va nasl tarbiyasi bilan shug'ullangan. Erkaklar oilani boqish va himoya qilishga javobgar bo'lganlar. Erkaklar ishi yaqqol va natijasi aniq bo'lgani uchun, ular o'z o'rinalarini muhimroq deb bilishga odatlanganlar.

Bugun ham mehnat taqsimoti deyarli shunday. Erkak pul topib, oila boqishga, ayol esa ana shu pulni barakali va unumli sarflashga javobgar.

Aynan yashash uchun sharoit yaratgani uchun, erkaklar o'zlarini ayollardan muhimroq deb biladilar. Va bu juda ko'p hollarda o'ta xunuk tus oladi.

Mavzuni keng muhokama qilmay turib, sizga asosiy gapni aytib qo'ymoqchiman. Ayol – eng kuchli inson. Erkakdan ko'ra ancha kuchli. Uning kuchi bilaklarida emas – uning kuchi butun tanasida. Ayolga yangi hayot yaratish kuchi berilgan. Tog'larni talqon qilgan bahodirlarda ham bunday quvvat mavjud emas.

Mamlakatimiz qonunlari ayollarning huquqlarini ta'minlashga yetarli. Respublikamiz vazirliklariga ayollar rahbarlik qilgan. Bu ham bo'lsa qizlar va ayollarga bildirilgan ishonch belgisi. Lekin ayolga hurmatli munosabat har bir shaxs qadriyatiga aylansagina jamiyatda ayollarni ajratishdek ojizlik yo'qoladi.

Insoniyat tarixiga nazar solsak, ayol hukmdor va sardorlar o'z boshqaruvidagi jamiyat uchun ko'p foydali ish qilganlar. Bizning tarixdagi To'maris va uning xalqni boshqarishdagi g'ayrati va donoligi haqida ko'p eshitgammiz. Britaniya imperiyasini qudratda eng yuksak darajaga ko'targan qirolicha Viktoriya bo'lgan. Rus imperiyasi ham Yekaterina davrida katta yutuqlarga erishgan.

Ayol hukmdorlar har doim ham janglarda g'alaba qozonib nom qoldirmaganlar. Ular aynan shuning uchun tarixchilar tomonidan ko'p ta'kidlanmagan. Chunki tarixchilar asosan jango var yutuqlar haqida yozishga o'rganganlar. Lekin hukmdor uchun asosiy yutuq dushmani yengish va mamlakat yerlarini kengaytirish emas – xalq va jamiyat farovonligini ta'minlashdir. Ayol hukmdorlar esa ana shu yutuqqa ko'proq erishganlar.

Sof tabiiy jihatdan oladigan bo'lsak, o'z instinktidan kelib chiqib, erkaklar buzg'unchi ishlarga javobgar. Tabiatda bir nima unishi uchun, boshqa jonzot nobud bo'lishi o'zgarmas qonundir. Odamzod yashashi uchun ham bir nimalarni nobud qilishga mahkum. Ana shu nobud qilish qismiga aynan erkaklar mas'ul: ular ov qilib, boshqa jonzotlarni o'ldirib, oila boqadi, daraxtlarni kesib, uy quradi. Keyinchalik bu buzg'unchilik va hayot uchun kurash yana-da keng tus olgan – erkaklar boshqa xalqlarga yurish qilib, boylik va hokimiyat orttirishga o'tganlar.

Ayollar esa, o'z tabiatiga ko'ra, bunyodkor jonzotdir. Ular yangi hayotni dunyoga keltirishga, uni tarbiyalab, katta qilishga mas'ul. Erkak topib kelgan ne'matlarni kerakli joyda ishlatib, hammaga nafi tegadigan bir nimalar yaratish – ayolning san'ati. Aynan shu bois Bibi Xonim buyuk Temur janglarda topgan boyliklarini yangi va yuksak binolar qurishga sarflagan. Bibi Xonim eng ko'p bunyodkor ishlarni qilgan bo'lsa ham, tarixda uning nomi emas, janglarda zafar qozongan Temur nomi balandroq yangraydi...

Bugun ayollarga munosabat muhimlikka asoslangan. Albatta, bu odamning qanday oilada tarbiya ko'rganiga qarab, turli darajada namoyon bo'ladi. Lekin umumiy holat erkaklarni ko'p narsada ustun qo'yadi. Biz o'zimiz bilmagan holda qizlar va ayollarni ba'zi narsalarga noqodir deb hisoblaymiz.

Eng yaqqol ko'rindigan xato – ayollarni ilm-fan va aqliy mehnatga noqodir deb bilish. Bu qarashni yoqlovchilar ko'pincha tarixda buyuk ilmiy kashfiyotlarni asosan erkak olimlar amalga oshirganini isbot sifatida keltiradilar. Ammo bu juda sodda va sayoz yondashuv. Birinchidan, ayollar jamiyatdagi mehnat taqsimoti sabab asosan ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanganlar va juda ko'p holatda ularga oddiygina savod chiqarishga ham imkon berilmagan. Agar ayollar ham erkaklar bilan teng ilm olganlarida – ilm-fan tarixi mutlaqo boshqacha bo'lishi mumkin edi.

Ikkinchidan, avval aytganimdek, tarix ko'pincha erkaklar erishgan yutuqlarni eslab qolish bilan band bo'lgan. Kamdan-kam yetishib chiqadigan ayol olimalar erishgan ilmiy zafarlar haqida, afsuski, juda kam ma'lumot saqlanib qolgan.

Nikolay Kapernik haqida ko'pchilik eshitgan. U quyosh yer atrofida emas – aksincha, yer quyosh atrofida aylanishini matematik yo'l bilan isbotlab bergen. Ammo undan deyarli ming yil avval yashagan Hipatiya ismli yunon faylasuf va astronom ayoli o'z davrida yer kurra shaklida ekanini, u quyosh atrofida aylanishi haqidagi taxminni ilgari surgan. U o'z fikrlarini isbotlash uchun kuzatuvlar olib borgan. Lekin bu kuzatuvlar din peshvolariga yoqmagan va tez orada ular qullar yordamida to'polon ko'targanlar. Hipatiya o'z davri uchun o'ta ilg'or g'oyalarini ilmiy isbotlashga ulgurmey, qullar tomonidan burdalab tashlangan.

Bugun davlat tomonidan qizlar va ayollar ta'lif olishi, ishlashi – umuman, o'z ilmiy va ijodiy salohiyatini to'liq namoyon qilishi uchun yetarlicha sharoit yaratilgan. Ammo jamiyatdagi ayollarga nisbatan ayirmachilik va tengsizlik o'zgargani yo'q. Bunga aynan jinsiy muhimlik sabab bo'lmoqda.

Ayollarni erkaklardan past hisoblash arzimagan narsadek tuyilishi mumkin kimgadir. Lekin bu kabi munosabat ba'zida juda achinarli oqibatlarga olib keladi. Jinsiy muhimlik ba'zi odamlarni o'ta buzg'unchi ishlarga boshlaydi.

Navbatdagi farzandi ayoli qornida ekanida uning o'g'il emas, qizligini bilgan ba'zi "otalar" (bu so'z qo'shtirnoqqa olinishga to'liq haqli – chunki bunday erkaklar otalikka munosib emas) homilani oldirib tashlashni talab qiladilar. Norasida go'dakning birgina aybi – qiz bo'lgani. "Ota" jinsiy muhimlikka shu darajada qulki, o'z farzandini nobud qilishni ham to'g'ri ish deb biladi.

Men avvalgi kitoblarda faqat buning mas'uliyatiga tayyor bo'lganlar farzandli bo'lishi kerak deb beziz ta'kidlab o'tmaganman. Odam turli muhimliklardan o'zini xalos qilgandan keyingina yangi hayotga posbonlik qilmasa, bu muhimliklar farzandga o'z soyasini tashlaydi. Jinsiy muhimlik misolida esa hatto go'dak joniga tajovuz qilishi ham mumkin.

Xalqda ayollarning qirqta joni borligini aytadigan naql bor. Bu ham tabiiy qobiliyat va iste'dodlariga ko'ra, jismoniy quvvatiga ko'ra ayollar erkaklardan ancha kuchli ekaniga yana bir ishora. Odamlar yana ayollarni "ojiza" deb ham atashadi. Lekin, menimcha, bu jinsiy muhimlikdan kelib chiqqan ta'kid. Ayollarni ojiz hisoblash ularni har tomonidan quyi bilishga sabab bo'ladi. Axir, siz hech qachon o'zingizdan ojizroq deb bilgan shaxsni o'zingizga teng bilmaysiz.

Men sizga ayolni asrang demayman – ayolni hurmat qiling. Uning kuch-qudrati, iqtidorlari, sabr-qanoatini tan oling va qadriga yeting. Uni asrash kerak emas – u shundoq ham o'zini, o'ziga qo'shib naslini ham asrab-avaylashni biladi. Faqat unga ana shu tabiiy vazifasini bajarishga xalal bermasangiz bo'lgani. Ayollarni erkaklardan quyi deb bilish bizga ularning asl qadrini bilishga xalal beradi.

Bizga hayot bergen, mehr bergen, o'zlarini baxshida qilgan, umrimizni go'zallik va mazmunga to'ldirgan onalarimiz, opa-singillarimiz, rafiqalarimiz, ayollarimiz doim baxtli bo'lsinlar.

CHORSHANBA

Kemtiklar

Sansalor

Bizda bolalikdan bir xususiy odat shakllanadi: biz u yoki bu ishni qilishni boshqalarga yuklamoqchi bo'lamiz. Uy ishlarini qilish yuzasidan opasingillari yoki aka-ukalari bilan kelisha olmagan kitobxon bu nima ekanini darrov tushunadi.

Bu odatni ko'pincha dangasalik bilan asoslashga urinadilar. Bu izohga ko'ra, odam yalqov bo'lgani uchun bir ishni boshqa odam yelkasiga ortishga urinadi. Lekin sansalorga asl sabab boshqa narsada. Buni tushunish uchun, ongimiz evolyutsiyasiga murojaat qilishimiz lozim.

Tabiatda har bir tur jonzot bahamjihat yashash va mehnat qilish instinkti bilan yaralgan. Mikroskopik bakteriyalardan tortib, ummondagi kitlargacha to'dalarga birlashib yashaydi. Bu guruhda har bir a'zoning o'z vazifasi bor va butun to'da hayoti ana shu vazifalar o'z o'rnila bajarilishiga bog'liq.

Hatto turli turga mansub jonzotlar o'tasida ham vazifalar taqsimotiga asoslangan uyushma paydo bo'lishi mumkin. Olimlar bunday kelishuvga ko'ra yashashni simbioz deb atashadi. Masalan, akulalar atrofida deyarli doim mitti baliqchalar suzib yuradi. Yirtqich ularga tegmaydi, chunki ular akula terisidagi parazitlarni terib yeydilar. Buning evaziga akula ularni kushandalar ov qilmasligini ta'minlaydi. Mitti baliqlar gigiyenaga, akula himoyaga javobgar.

Biz ham bir-birimiz bilan ana shunday hamkorlikka moyil qilib yaratilganmiz. Ongimizning tub-tubida birgalikda harakat qilish, vazifalarni to'g'ri taqsimlash va ularni to'g'ri bajarish hayotimizni farovon qilishini aytib turuvchi instinct bor. U instinct yashab qolishga bo'lgan intilishdan – tabiiy qo'rquv ta'sirida yuzaga kelgan.

Ammo, vaqt o'tib, bizda aql shakllangan va u manfaat o'yini bilan jarayonni izdan chiqargan. Aql u yoki bu harakatning darhol natijasini ko'rishni istaydi va bu natijadan aynan bizga qanday naf borligini chamalashga urinadi. Agar u qilinajak ishdan hech bir manfaat ko'ra

bilmasa, uni bajarishga oxirigacha qarshilik qiladi. Aql vazifaning keng ko'lamli natijasini ko'ra bilmaydi, to'g'ri baholay olmaydi.

Vazifalar taqsimotiga asoslangan bunday bahamjihat hayot tizimi bir shart bajarilsagina bexato ishlaydi: birga yashayotgan guruh a'zolari o'z vazifalarini o'rnida uddalashlari kerak. Lekin o'yinga aql aralashishi bilan, manfaat o'yini boshlanadi va tizim izdan chiqadi. Odamlar birgalikda qilishi kerak bo'lgan ishni bir-birlariga sansalor qila boshlaydilar.

Masalan, ona ikki qiziga uyni saranjomlashni buyursa va qizlarni nazoratsiz qoldirsa, ikki qiz bu ishni bir-biriga yuklab, deyarli hech narsa qilmaydi. Har birimiz qaysidir ishni bizdan boshqa odam qilishi mumkinligini bilsak, o'sha ishni o'sha boshqa odamga yuklashga urinamiz. Vaholanki, bu aynan bizga kerak ish bo'lishi mumkin. Odatda shunday bo'ladi ham. Uy ozoda bo'lishi ikki qizning ham manfaatiga xizmat qiladi – turmush gigiyenasi sog'lik uchun muhim omil. Lekin bu aql uchun juda mavhum va uzoq manfaat – uni ko'ra bilishga aql kaltalik qiladi.

Endi ana shu ikki qizga onasi kim aynan qaysi ishni qilishini taqsimlab berdi deb tasavvur qilaylik. Bunda ish ancha yengil bitadi: har ikki qiz umumiy mehnatdan o'z ulushiga diqqatini qaratadi. Bunda aql o'zi qilayotgan ishni boshqalar ishiga solishtirib, o'xshashlik topa olmaydi va shu ishni undan boshqa hech kim qilmasligini qabul qiladi.

Odamlar bir xil umumiy ishni qilishga javobgar bo'lsalar ular orasidagi murosa buziladi. Buning oldini olish uchun umumiy ish bir-biridan farq qiladigan mayda vazifalarga taqsimlanib, alohida a'zolarga bo'lib berilishi kerak. Shunda alohida a'zo aqli uchun ishdagi umumiylig yo'qoladi.

Bir qarashda, odam aqlining bunday xatti-harakati juda mantiqsiz. Chunki umumiy ish birgalikda bajariladimi, maydalab bajariladimi – yakuniy natija bir xil bo'ladi va har bir a'zo nisbatan mehnat sarflaydi. Onasi vazifalarni bo'lib bersa ham, bo'lib bermasa ham, ikki qiz aytilgan ishni qilsa – natija bir xil bo'ladi. Nega unda aqlimiz aynan alohida vazifaga bo'lingan usulni ma'qul ko'radi?

Javob juda oddiy: hamma gap aqlining arzandasи shaxsiy muhimlik tuyg'usida. Biz hamma uchun kerak bo'lgan ishni bajarishda ham o'z ulushimizga ega bo'lishni, shu bir qism vazifani bajarganimizni boshqalar

ko'rishini istaymiz. Ikki qiz onasi tayinlagan ishni vazifalar bo'lib berilmasa ham bajarsa, qilingan ish uchun umumiy maqtov eshitadilar. Bunda ikki qizga teng miqdorda tashakkur aytildi. Bunday tenglik esa aqlga yoqmaydi – unga boshqalardan ustunlik, ko'proq maqtov olish yoqadi. Vazifalar bo'lib berilsa, har kim o'z vazifasiga ko'ra maqtov va mukofot oladi – bunda kim kimdan o'tib ketganini taqqoslash mumkin. Aqlga aynan ana shu kerak – boshqalardan ustun bo'lishga imkon.

Endi shu xulosalarni jamiyat miqyosida qo'llab ko'raylik. Uydagi tozalik oila salomatligi uchun zarur bo'lsa, yurtimizdagi ozodalik, tabiatni asrash xalqimiz hayoti va sog'ligi uchun zarur. Tabiatni asrash, ne'matlarni tejab ishlatish, ko'chalarda tozalikka e'tibor berish hammamiz qilishimiz kerak bo'lgan ish. Lekin biz bu ishni qilishni istamaymiz – chunki aqlimiz hamma bilan bir xil ish qilib, hamma qatori maqtov eshitishni istamaydi. Xiyobon yo'lakchasida bir parcha qog'oz yotgan bo'lsa, shuni olib, ikki qadam naridagi axlat qutisiga tashlashni o'zimizga or deb bilamiz. Shaxsiy muhimlik tuyg'usi "nega endi men qaysidir ahmoq oyoq ostiga tashlab ketgan qog'ozni axlatga tashlashim kerak?" deb dimog'lanadi. Lekin u qog'ozni hali esini tanib ulgurmagan bolakay yoki keksa odam tashlagan bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham, shu qog'ozni oyoq ostidan olib, axlatga tashlash bilan qadringiz oshsa oshadiki, tushmaydi.

Aqlimiz "bitta qog'oz bilan bir nima o'zgarib qolarmidi?" deb kaltabinlik qilishi mumkin. O'zgaradi, hammasi mana shu bilan o'zgaradi. Sizni shunday qilganingizni ko'rib, atrofdagilar ham shu qog'ozga e'tibor beradilar, nega oldin shu qog'ozni payqamaganliklarini o'ylaydilar, uni oyoq ostidan olib tashlash aynan sizga nimaga kerakligini o'ylaydilar. Hatto sizni ustingizdan xayolan kuladiganlari ham bo'ladi. Lekin siz eng muhim natijaga erishasiz – siz ularni ular oldin o'ylamagan narsalar haqida o'ylashga majbur qilasiz. Mana shu eng katta o'zgarish.

Shaharlarimiz ko'chalarini davlat yollagan ishchilar tozalashini oddiy holat deb bilamiz. Bu hatto ko'cha-ko'yni bemalol bulg'ashimizga turki ham bo'ladi. Lekin ana shu ishchilarga davlat qayerdan oylik to'laydi deb o'ylaysiz? Soliqlardan. Keksalar nafaqasi, ta'lim va sog'likni saqlash kabi hayotiy zarur maqsadlarga atalgan davlat pulidan bir qismi olinib, ko'chalarni tozalashga sarflanadi. Chunki biz shunchaki o'zimiz yashayotgan shahar ko'chalaridagi ozodalikni bizga daxli yo'q ish deb bilamiz.

Shaxsiy muhimlikni ozgina jilovlasak, hammamiz uchun manfaatli bo'lgan ishlarni birgalashib qila olamiz. Bu ishni qilishni boshqalarga ham, davlatga ham yuklamaymiz. Chunki bu ish umumiylashtirish bilan tez va oson bitadi.

Sizga sansalor qilish odatining zararlarini yashab turgan uyimiz va go'zal yurtimizdagagi ozodalik misolida ko'rsatishga urindim. Ammo sansalorning zarari bu bilan cheklanmaydi. Iste'mol qilish, yo'l harakati qoidalari, mahalliy muammolar va boshqa ko'plab holatlarda ham biz aynan sansalor sabab hech bir samaraga erishmaymiz.

Davlatga qo'shimcha vazifalar qancha kam yuklansa – u o'z asosiy vazifalarini bajarishiga shuncha ko'p vaqt bo'ladi. Odamlarning mas'uliyatsizligi sabab, turli mayda vazifalarni ham davlat o'z yelkasiga olaversa, uning iqtisod va jamiyatni rivojlantirishga kuchi ham, puli ham yetmaydi. Davlatning samarali ishlashini ta'minlash bizning qo'llimizda.

Adolat istab

Adolatni ikki yoqlama baholash odamzodga xos xislat. Biz adolat kimga nisbatan buzilganiga qarab, unga turlicha ta'rif beramiz. Bizni adolatsizlikda ayblashsa, adolatni tushunishimiz bir bo'lsa – bizga nisbatan adolatsizlik qilinsa, bu tushunchamiz mutlaqo boshqacha bo'ladi. Biz shu qadar nisbiy haqiqatlarga o'rganganmizki, adolatning o'zi haqida ham adolat bilan fikr yurita va gapira olmaymiz.

Avvalgi kitoblarda adolat degan absolyut haqiqat mavjud emasligini aytib o'tgan edik. Yovvoyi tabiatda adolat degan o'Ichov yo'qligi, uning ishini samaradorlik bajarishi ta'kidlangan edi. Odamlar esa tabiiy qonunlardan ko'ra, ijtimoiy qoidalarga amal qilishni xush ko'radilar. Ijtimoiy qoidalalar esa adolat degan nisbiy haqiqatga asoslangan.

Bugun jamiyatimizda ijtimoiy tabaqlanish keskinlashgani sabab, adolat haqida odamlar ko'proq o'ylaydigan bo'lishgan. Biz boyligi va ijtimoiy holati biznikidan boshqacha bo'lgan odamlarga o'zimizni solishtirib, bu qanchalik adolatdan ekanini tushunishga urinamiz. Bu taqqoslashlar ko'pincha adolatsizlik g'olib chiqqani haqidagi xulosalarga olib keladi. Natijada, hayotdan mammunlik darajamiz keskin pasayadi. Bunda biz ko'pincha davlatni va jamiyatni ayblaymiz.

Adolatga to'g'ri yondasha bilmaslik bizni ichki xotirjamlikdan ayiribgina qolmay, jamiyat va davlat bilan munosabatlarimizni chigallashtiradi. Atrofimizda yuz berayotgan hodisalar bizning adolat haqidagi tushunchalarimizga mos kelmasa, bizda kuchli norozilik uyg'onadi. Bu esa bizni shaxs sifatida ojizlashtiradi.

Shu bois ham bu bobda biz adolat tushunchasini chuqurroq tahlil qilib ko'ramiz. Adolat haqida bilimimiz qancha keng bo'lsa, davlat va jamiyat bilan munosabatlarimiz shuncha sergak va mustahkam bo'ladi.

Falsafada adolatga ikki xil qarash bor. Birinchi qarash dunyoda borki ne'matlar hammaga teng taqsimlab berilishi kerak degan qoidaga asoslangan. Buni *taqsimiy adolat* (yoki *distribuyutiv adolat*) deb atashadi. Unga ko'ra, jamiyatda har kim ijtimoiy holati va kelib chiqishidan qat'iy nazar, ne'mat va imkoniyatlardan teng ulush olishi kerak. Yurtimizda har kim qonun oldida tengligi yoki har kim bepul ta'llim va tibbiy yordam olishga haqlilagini belgilovchi qonunlar taqsimiy adolatga misol.

Ikkinci qarash dunyodagi ne'matlar har kimning mehnati va harakatiga qarab taqsimlanishi kerakligini ilgari suradi. Buni *hissaviy adolat* (yoki *kontrubyutiv adolat*) deb atashadi. Ya'ni, har kim jamiyat farovonligi uchun qancha hissa qo'shsa, shu hissasiga mos ulushda ne'mat va imkoniyatga ega bo'lishi kerak. Masalan, a'lo o'qigan yoshlarga ta'llim olish uchun davlat byudjetidan grantlar berish, yaxshi ishlagan xodim maoshini oshirish yoki turli kasb egalariga turlicha ish haqi to'lash kabi tartiblar hissaviy adolatga asoslangan.

Bu ikki yondashuvning o'z yutuqlari va kamchiliklari bor. Lekin ular uyg'unlikda ishlasa, bir-birining nuqsonlarini to'ldiradi. Masalan, taqsimiy adolat hammaga boyliklarni teng bo'lishni aytadi. Lekin bunda umumiylar farovonlik uchun mehnat qilgan ham, qilmagan ham teng ulush oladilar. Ya'ni, mehnatkashlar ham, dangasalar ham bir xilda mukofotlanadilar. Bunday holat odamni mehnat qilishdan qaytaradi – chunki u hech narsa qilmasa ham, hamma qatori rag'bat olaveradi. Umumiylar qilinishi kerak bo'lgan ishlar odamlar orasida sansalor qilinadi va oxir oqibat bajarilmay qoladi. Bu muammoni hissaviy adolat bartaraf etadi – odamlarni rag'batlantirishda ularning mehnatlari hisobga olinsa, mehnat samarasini oshadi, dangasalik va sansalor kamayadi.

Ammo hissaviy adolat ham turli muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Aytaylik, yaxshi mehnat qilgan ota-onasiga yaxshi daromadga ega bo'ladi. Natijada, ular o'z farzandlariga ta'lim olish uchun kattaroq imkoniyat yaratib beradilar (ko'proq kitob olib berishadi, pulga qo'shimcha darslar tayinlashadi). Ya'ni, bu oila farzandi bilim olish, oliygohga kirish va yaxshi yashash uchun daromadi kamroq oila farzandiga nisbatan ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi. Ikki bolaning jamiyat uchun hissasi bir xil – ikkisi ham hali hech qanday naf keltirmaydi, balki faqat bilim oladi. Lekin ikkisiga berilgan imkoniyat teng emas. Natijada, hissaviy adolatga amal qilish xuddi shunday hissaviy adolat buzilishiga olib keladi.

Bu kabi holat jamiyatda sinflar shakllanishiga va bu sinflar o'rtaсидаги farq borgan sari keskinlashib borishiga olib keladi. Boyning bolasiga yaxshi bilim olish va boy bo'lishga katta imkon beriladi. Kambag'alning bolasi bilim olishda cheklanadi va kambag'alligicha qoladi.

Jamiyatshunoslikda "ijtimoiy o'sish imkoniyati" degan tushuncha bor. U bir tabaqa vakili yuqoriroq tabaqaga qanchalik oson o'ta olishini bildiradi (oddiy qilib aytganda, quyi sinf vakili o'z mehnati bilan qanchalik oson boyib ketishi mumkinligini anglatadi). O'sish imkoniyati jamiyatda taqsimiy va hissaviy adolat qanchalik uyg'unlikda ishlayotganini bildiradigan ko'rsatkich. U qancha past bo'lsa, jamiyat ichki ziddiyatlar sabab tanazzulga yuz tutishi ehtimoli shuncha katta.

Yuqoridagi muhokamadan taqsimiy va hissaviy adolat bir-biriga zid ekani haqida xato tasavvur uyg'onishi mumkin. Ammo ular ziddiyat emas – shunchaki, bir muammoga ikki xil yondashuv, xolos. Ikkisi to'g'ri uyg'unlashtirilsa, juda samarali ishlaydi.

Mening fikrimcha, bunday samaraga erishish uchun, bu ikki xil yondashuv quyidagicha ishlatilishi lozim: taqsimiy adolat **imkoniyatlar** teng taqsimlanishini ta'minlashi kerak, hissaviy adolat esa **ne'matlar** mehnatga qarab taqsimlanishini belgilashi kerak. Ya'ni, yashash, bilim olish, sog'lom bo'lish va mehnat qilish uchun imkoniyat va sharoitlar hamma uchun bir xil bo'lishi lozim. Ana shu imkoniyat va sharoitdan unumli foydalana bilgan va samarali mehnat qilganlar esa shu sa'y-harakatlari uchun tegishli ne'matlar bilan mukofotlanishlari darkor.

Albatta, yuqoridagi tartibni hayotda joriy qilish juda qiyin: umumiy qoidaga bo'ysungisi kelmagan odamlar har doim topiladi. Lekin o'zimiz adolat mezonlarini yaxshi anglab, ularga amal qilishni kanda qilsak – davlatdan adolat kutishga va talab qilishga haqimiz yetarli emas. Agar ko'pchiligidan adolat qanday ishlashini, nimada tenglikka intilish kerag-u, nimada odamlarga yutug'iga yarasha rag'bat berish kerakligini anglab ish tutsak – biz yashayotgan jamiyat kuchayadi, farovonligimiz va hayotdan mammunligimiz oshadi.

Ushbu bobda sizga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy fikrim shuki, adolatni faqat davlat yoki u belgilagan qonunlar ta'minlamaydi. Albatta, jamiyatda adolat barqaror bo'lishida davlatning o'rni katta: davlat, eng avvalo, o'zi adolat mezonlariga amal qilishi, alohida shaxslarda qonun chindan hayotda ishlashiga shubha uyg'otmasligi lozim. Lekin adolatning asosiy kuchi siz bilan biz kabi alohida shaxslar qo'lida – o'z harakatlarimiz va qarorlarimiz adolat uchun xizmat qilishini nazorat qilish bizning shaxsiy kuchimizga bog'liq.

Farzandlarimizga odamlar nimada teng bo'lishi kerag-u, nimada o'z hissasiga qarab hurmat va mukofotga ega bo'lishi kerak – tushuntiraylik. Ularga bilim olish uchun hamma qatori sharoit yarataylik – va asosiy e'tiborni ularga ana shu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishni o'rgatishga qarataylik. Axir, bolangizga ming yaxshi sharoit yaratmang, uning o'zida intilish va qiziqish bo'limasa, bari foydasiz.

Davlatning adolati odamlarning adolatiga tayanishini unutmaylik. Qonunlar osmondan tushmaganki, ular o'z-o'zidan amalga oshaversa. Ularni odamlar yaratgan – ko'pchilikning foydasini ko'zlab. Qonunlar yoki davlatning siyosati adolatsiz ekanidan shikoyat qilishni hammamiz bilamiz – lekin o'z amallarimiz qanchalik adolatli ekaniga e'tiborimiz yetarli emas. Albatta, davlat ham ba'zan adashadi – u ham adolatsiz qonunlar qabul qilishi yoki mavjud qonunlarni joriy qilishda adolatdan chiqishi mumkin. Beayb Parvardigor. Ammo biz sergaklikni odat qilsak, davlat ham asta-sekin adolatga zid qoidalarni isloh qiladi. Davlatdan o'zimizni begonalashtirmasak, uning adolat doirasidan chiqmasligini kutishimiz oson bo'ladi.

Amir Temur kuch adolatda ekanini aytgan. Chindan ham, davlatning kuchi – uning adolatida. Adolatning kuchi esa – sergaklikdadir.

Siyosiy befarqlik

*Siyosiy befarqlik – alohida shaxslardagi
butun jamiyat hayotiga ta'sir etuvchi
jarayonlarga va ularda ishtirok etishga
mutlaqo befarq bo'lisl holati*

(shaxsiy izohli lug'atimdan)

Bugun jamiyatimizda mavjud ko'plab muammolar har birimizga ta'sir qiladi. Har birimiz bu aziyat uchun kimnidir ayblashga intilamiz. Juda ko'p hollarda bunday ayblastoshlari davlatga – ya'ni markaziy hokimiyatga borib tushadi. Pulimiz borgan sari qadrsizlanib borayotganiga ham, ishsizlik chuqurlashishiga ham davlatni ayblaymiz.

Shu bilan birga bizda juda bir g'alati va mantiqqa zid siyosiy befarqlik bor: biz kim davlat nomidan qarorlar qabul qilish uchun saylanyapti, siyosiy partiyalar nima bilan shug'ullanyapti kabi masalalar bilan qiziqmaymiz. Saylov larga munosabatimiz jiddiy emas. Hatto do'st-yorlar davrasida ham jamiyat hayoti yaxshilanishi uchun nimalar qilinishi kerakligi haqida gapirmaymiz.

Ko'pchilik siyosatga qiziqish va bunda o'z qarashlarini davlatga yetkazish foydasiz deb biladi. Odamlarda davlat nima bo'lganda ham o'z bilganicha ish tutishiga kuchli ishonch bor. Bilmadim, balki bu ishonch hamma uchun davlat qaror qabul qiladigan Sovet davridan qolgandir. Lekin u eskirdi – endi qarorlar qabul qilishga biz javobgarmiz.

Bilasizmi nega siyosiy partiyalarda haqiqiy siyosiy qudrat yo'q? Chunki biz ularga ishonmaymiz, biz ularga befarqmiz. Xalq o'z manfaatlarini partiyaga ishonib topshirmaguncha, u partiya hech qanday siyosiy vaznga ega bo'lmaydi. Biz ularga nima istashimizni aytasak va shu istaklarimizni amalga oshirishda ularning ortida qo'llab tursak – ana shunda ular bizga xizmat qila boshlaydi.

Siyosiy befarqlik keng tarqalishiga oddiy bir sabab bor. Bugungi fuqaroda ojizlik hisi juda kuchli: u o'zini butun jamiyat oqimiga ta'sir o'tkazishga ojiz deb biladi. Lekin bizga berilgan siyosiy huquqni ishlata bilmaslik, ana shu siyosiy huquq qadr-qiyomatini yo'qqa chiqaradi. Bizning yagona ojizligimiz – bu bizning befarqligimizdir.

Siyosiy faollik – siyosiy befarqlikning aksi. Siyosiy faol odam atrofidagi muammolarni hal qilishda o‘z hissasini qo‘sishiga tayyor. Siyosiy faollik deganda partiyaga a’zo bo‘lish yoki poytaxtga borib siyosat bilan shug‘ullanish tushunilmaydi. Siyosat – faqat poytaxtda yoki hokimlik idoralarida ro‘y beradigan jarayon emas. U kundalik hayotimizda yashaydi, oddiy odamlarning oddiy hayotiy muammolarida namoyon bo‘ladi.

Sizga bir hayotiy misol keltiraman. Men tug‘ilib o’sgan qishloqda ko‘pchilik chet davlatlariga ishlash uchun ketadi. Shu bois odamlar daromadi yomon emas. Har qalay, juda hashamatli uylar-u, yangi-yangi mashinalar bor. Bunday ta’rifni mamlakatimizning ko‘p qishloqlariga berish mumkin. Qishlog‘imiz maktabida sharoitlar unchalik yaxshi emas. Ayniqsa, qish kunlari o‘quvchi va o‘qituvchilar juda qiynaladi. Maktab ahvoli chatoq ekani va davlat buni tuzatmayotgani haqida hamma noliydi. Lekin hech kim uyushib, shu maktabga sharoit yarataylik degan ishtiyoq bilan chiqmaydi. Maktab ma’muriyati har xil maqsadlar uchun ota-onalardan pul yig‘sа, ota-onalar bir-ikki kun nolib, keyin shu pulni beradi-da, bu haqida unutadi. Hech kim bu mablag‘lar qanday sarflangani haqida ma’muriyatdan hisob kutmaydi. Bolalari uchun chetlarda yurib, pul to’plab, uy solib, sep yig‘ayotgan ota-onalar – bolalari qanday sharoitlarda va nima bilimlarni olayotganini nazorat qilishni istamaydi.

Kichik qishloqdagi bu holatning davlat siyosatiga nima daxli bor deb hayron bo‘lishingiz mumkin. Lekin biz katta masalalarda ham xuddi shunday ish tutamiz. Davlatga o‘z qarashlarimizni aytishni ep ko‘rmaymiz, uni nazorat qilishni, undan to‘g‘ri siyosat yuritishni talab qilishni istamaymiz – va doim har bir katta muammoda davlatni ayblaymiz.

Tasavvur qiling, har bir ota-onan mакtabda bolasiga qanday bilim berilayotganiga qiziqsa. Ota-onalar majlisiga borib, unda faol qatnashib, bolasiga berilayotgan ta’lim sifatini nazorat qilsa. Ustozga bayramlarda sovg‘a berish haqida emas – bolalarda ilmga intilishni kuchaytirish haqida o‘ylasa. Qo‘srimcha kurslar va poraga sarflayotgan pulini hammasi yig‘ib, maktabdagi ustozlarga bersa va bu pullar maqsadli sarflanishini nazorat qilsa qanday bo‘ladi? Mamlakat miqyosida har bir ota-onan shunday ish tutsa – nima deb o‘ylaysiz, hech nima

o'zgarmaydimi? O'zgaradi – davlat qonunlar bilan oshira olmagan ta'lif sifati ana shunda oshadi. Mana siyosiy faol bo'lgan fuqaroning qudrati. Mana siz bilan menga berilgan qudrat.

Bu birgina ta'lif sifatini nazorat qilishda har bir jamiyat a'zosi tutishi mumkin bo'lgan o'ringa misol. Bunday yondashuv bilan boshqa har qanday sohani ham rivojlantirsa, jamiyat hayotini yaxshilasa bo'ladi. Bizdan talab qilinadigan birgina narsa – befarqlikdan xalos bo'lish.

Siyosiy faollik samarali bo'lishi uchun, u bir shartni bajarish kerak: u shaxsiy manfaatlarni ko'zlamasligi lozim. Bugun biz davlatga o'z muammolarimizni aytishga chog'lansak, faqat o'z shaxsiy muammolarimiz haqida gapiramiz. Birgina bizning muammo hal bo'lishi bilan jamiyat yaxshilanib qolmasligini ko'pincha unutamiz. Lekin siz endi kuchli shaxssiz – siz endi hamma uchun muhim muammolar hal qilinsagina umumiy farovonlik oshishini bilasiz.

Siyosiy faollik, shuningdek, bunyodkor maqsadni ko'zlashi kerak. Kimgadir zarar yetkazish uchun siyosiy huquqlardan foydalanish, bunga boshqalarni ham jalb qilish oxiri juda achinarli oqibatlarga olib keladi. Bugun shunday ish tutayotganlar ham bor: masalan, mamlakatimizda yashovchi turli ozchilik millat va din vakillarining huquqlarini cheklashni taklif va ba'zan talab qiladiganlar paydo bo'lgan. Shaxsiy adovat yoki nafratga asoslangan bunday siyosiy faollik jamiyatni zaiflashtiradi, kasallantiradi. Chunki bunday takliflar jamiyatning xastalangan hujayralaridan chiqadi.

Qaysi siyosiy faollik qanday maqsadni ko'zlayotganini anglashda bizga eski tanishimiz – sergaklik yordam beradi. Sergak turgan odam o'z siyosiy befarqligining oqibatlarini ham ko'ra biladi, zararli siyosiy faollikni ham taniy oladi. Sergak odam o'z erkinliklaridan foydalanishda boshqalar erkinligini poymol qilmaslikni uddalaydi. Sergak odam uning shaxsiy o'sishi faqat va faqat uning qo'lida ekanini biladi.

Siyosiy befarqlik – xuddi botqoqqa botgan odam undan chiqish uchun o'zi hech bir harakat qilmay, qolgan hammani bunda aybdor qilishiga o'xshaydi. Bunday odamga yordam qo'lini cho'zsangiz, u sizni ham botqoqqa tortsa tortadiki, qutilish uchun siz bilan bирgalikda harakat qilmaydi. O'z noto'g'ri qarorlari tufayli qiyin ahvolda qolgan yaqinlari yoki do'stlariga moddiy ko'mak berib, keyin afsuslangan kitobxon bu nima

ekanini juda yaxshi biladi. Biz muammolarimizni hal qilishni nafaqat davlatga – o‘z yaqinlarimizga ham yuklaymiz. Ular biz kutgan narsani bera olmasa, davlatdan noligandek, ulardan ham noliymiz. Biz mas’uliyatni o‘zimizga olishni istamaganimiz uchun siyosiy befarq bo‘lishni tanlaymiz.

Muammolaringizni hal qilishni boshqalar yoki davlatga yukladingizmi – tamom, shaxsiy erkinlik haqida unuting. Jamiyat muammolariga befarq bo‘lishni, uni sizdan boshqa kimdir hal qilishini kutishni tanladingizmi – tamom, shu muammolar soyasida yashashga majbur ekaningizni qabul qiling. Befarqlikning bahosi shu.

Kuchli shaxslar sifatida bizdan ozgina e’tiborli bo‘lish, atrofimizdag‘i odamlar dardini muhimlik va hissiyotga berilmasdan tushunish, tahlil qilish va ularga yechim topishga intilish talab qilinadi. Ishoning – odamlarga naf keltirishdan ortiq baxt yo‘q hayotda. Buni g‘urur uchun, faxr uchun yoki rahmat uchun emas – o‘z shaxsiy o’sishimiz uchun, o‘z shaxsiy baxtimiz uchun qilsak arziydi.

Til kompleksi

Avvalgi boblarda odamlarning tilga bo‘lgan munosabati haqida bir oz to‘xtalib o‘tgan edik. Endi shu mavzuni kengroq muhokama qilsak.

Bu mavzu kemtiklar haqidagi bo‘limda keltirilgani bejiz emas. Bugun ona tilimizga bo‘lgan munosabatimiz aynan millat sifatida orttirgan komplekslarimizdan kelib chiqib shakllanmoqda.

Bir asrdan ko‘p ruslar boshqaruvida yashagan o‘zbek xalqi bugun mustaqil millat sifatida o‘z ildizlarini qayta topishga intilmoqda. Bunda milliylikka berilish o‘ta xatarli tus olmoqda. Milliylikka berilish tilni chet tilidan (ayniqsa, rus tilidan) kirib kelgan so‘zlar “tozalash” istagi orqali ham o‘zini namoyon qilmoqda.

Bunday harakatlar komplekslar natijasidir. Ruslardan ko‘rgan ozmi-ko‘pmi aziyatimiz uchun gina hisiga berilib, bugun tilimizga kirgan va uning bir qismiga aylangan so‘zlarni majburan undan chiqarib tashlamoqchi bo‘lyapmiz. Bu xuddi yigit bilan urishib qolib, undan qolgan va uni eslatadigan hamma narsadan xalos bo‘lishga intilgan qizning xatti-harakatiga o‘xshaydi.

Tilimiz asrlar davomida rivojlanib, tariximizda shu o'lkada yashayotgan xalq bilan oldi-berdiga kirishgan boshqa xalqlar tilidan kerakli so'zlarni o'ziga olib kelgan. Shu bilan o'zbek tili bugungi go'zalligi va boyligiga erishgan. Nafaqat o'zbek tili – dunyodagi har qanday til ham xuddi shunday rivojlanadi. Rus tilida ham boshqa tillardan kirgan so'zlar juda-juda ko'p. Ingliz tilida ham.

Biz boshqa xalqlardan yangi narsa o'rgansak, shu yangi narsaning nomini ham o'rganganmiz. Bu xalq sifatida bilimlarimizni oshirgan, tilimizni mukammallashtirgan. Endiga kelib, muhimlikka berilib, tabiiy rivojlanib kelayotgan tilni bizga (aslida bizning komplekslarimizga) yoqmagan so'zlardan tozalashga intilish – zararli odat. Men bu kemtikni *til kompleksi* deb atayman.

Bu muhimlikni ba'zilar “millatparvarlik” deb oqlashga urinadilar. Ammo millatni parvarishlash uchun, til yillar davomida o'ziga olgan va boyligiga qo'shgan so'zlardan tozalash kerak emas. Millatni parvarishlar g'ayri millatlar va ularning tili va madaniyatiga dushmanlik yoki gina hisiga asoslangan bo'lishi kerak emas.

Shu yerda bu kompleks qanchalik mantiqsiz va kulgili ekanini aytib o'tishim kerak. Bu kompleksga chalingan va o'zini “millatparvar” deb atayotganlar bir narsaga hech e'tibor berishmaydi (yoki buni ko'rishni istashmaydi): ana shu “millatparvar” so'zining o'zi ikki chet tilidan olingan so'zdan iborat – “millat” so'zi arabchadan olingan, “parvar” qismi forschadan. Nimagadir, bu holat ularga shu so'zni ishlatib, tilimizni g'ayri so'zlardan tozalashga urinishlariga sira xalal bermaydi. Bu kompleks o'zini aynan tilda namoyon qilgani uchun ham, uni til kompleksi deb atash o'rinli.

Yana bir gap. Biz ruslardan nafaqat ba'zi so'zlarni olganmiz. Bugungacha shaharlarimizni ulardan o'rgangandek quryapmiz, ta'lim va tibbiy tizimimiz ulardan olib, bizga moslashtirilgan, kiyinishimiz ulardan kirib kelgan – bugungi hayotimizning ko'p jihatni ularnikiga o'xhash. Bular nima bo'ladi? Bulardan ham millatimizni “tozalashimiz” kerakmi?

Masalaga shunday keng qaray bilgan odam bu kompleks aslida jamiyat zarariga ishlashini anglab yetadi. Uzoq tarixda bizga bostirib kelgan yunonlar, forslar, arablar va mo'g'llardan ko'p foydali narsalarni o'rganganimizdek – ruslardan ham bizga foydasi teggan narsalarni

o'rganganmiz. Arab istilosidan keyin yashagan Al-Xorazmiy kabi buyuk allomalarimiz bir paytlar arab tilida daho asarlar yaratgan va bizga meros qilib qoldirgan. Navoiy va Bobur bobolarimiz til-u millat ajratmay, turkiy va forsiyda javohir baytlar bitgan. Bugungi asl ziyolilar ham boshqa tillarni bilibgina qolmay, ulardan o'zbek tiliga eng foydali so'z va atamalarni olib kirishdan va ishlatishdan hadiksiramaydilar.

Til kompleksiga haddan oshiq berilgan shaxslar bugun faqat o'zbekcha (muhimlikka mukkasidan ketganlar esa faqat turkiy) so'zlarni ishlatishga harakat qiladilar. Bunday odamlar o'zlarini millatparvar yoki hatto vatanparvar deb atashlari odatiy hol – ammo ularning asl maqomi millatparast (keskin holda esa – turkparast). Ular o'z muhimliklari uchun nafaqat o'z ona tillarini “soflab” gapirishadi, balki boshqalarni ham ko'nikkan tilni kuch ishlatib bo'lsa ham o'zgartirishga undaydilar.

Afsuski, so'ngi ikki o'nyillikda tilshunoslarimiz orasida ham til kompleksi juda avj oldi. Ular tilni rivojlantirish, yana-da boyitish, zamon talabiga mos ravishda mukammallashtirib borish o'rniغا, uni chetdan kirgan so'zlardan tozalash bilan band bo'ldilar. Ular buni tilimizga boshqa tillardan kirib kelib, o'rナshib bo'lgan so'zlarni “o'zbekchalahtirish” evaziga qilishga urindilar. Shu bilan birga, yangi zamonaviy ilm-fan va texnologiya sabab kirib kelgan yangi so'zlarni tilga “kiritmaslikka” harakat qilindi.

Til – ijtimoiy fenomen. Madaniyat kabi, u ham o'zgarib, yangilanib, zamonga moslashib boradi. Agar bu jarayonni majburan to'xtatib qolishga yoki ortga qaytarishga urinilsa – natijada til inqirozga uchraydi va boshqa tillardan rivojlanishda ortda qoladi.

Til o'zgarib, yangilanib borishi – tabiiy jarayon. Lotin tilini ko'pincha o'lik til deyishadi. Ammo u o'lik til emas – u o'nlab tillarga o'zgargan, butun Yevropaga yoyilgan til. Avvaliga, lotin tili Rim imperiyasining rasmiy tili bo'lgan. Keyinchalik, imperiya qulagan – ammo til yashashda davom etgan. Bugungi Yevropa tillarida lotin o'zakka ega juda ko'p so'zlarni topasiz. Bu til ilm-fan tili sifatida shu qadar keng tarqalganki, dunyoning barcha tillarida lotin tilidan olingan atamalar mavjud. Ammo eng qizig'i shundaki, lotin tilining o'zi qadimgi yunon, yahudiy va boshqa tillardan ko'plab so'zlarni olib, boyib borgan. Aynan shu lug'aviy boyligi sabab ham, bu til Rim imperiyasi kabi ulkan mamlakatga rasmiy til vazifasini

o'tay olgan, sultanat inqirozidan keyin ham yashab qolgan va ko'plab yangi tillarga asos bo'lган.

Ruslardan arazlash sabab, ular vositasida kirib kelgan so'zlardan alam olish – tan olaylik, juda achinarli holat. Bunday muhimlikka xalq vakili sifatida sergaklikni umuman unutgan odam beriladi. Til kompleksi – odamlardagi unutilmagan ginalar va chiqarilmagan alamlar natijasi. Ular ana shu gina va alam og'rig'idan qutulish uchun ham, butun jamiyat foydalananayotgan tilni o'zgartirishga urinadilar. Ammo ular bu bilan ichlaridagi gina va alamdan xalos bo'la olmasliklarini tushunmaydilar. Siz bilan men bir narsani yaxshi bilamizki, ginadan qutulishning eng sodda va samarali usuli bu kechirish.

Seshanba kuni muhokama qilinganidek, biz xalq sifatida ko'plab xalqlar qorishishidan, o'zaro ilm va madaniyat almashishidan yuzaga kelgan millatmiz. Ruslar ham bizga aziyat berishdan tashqari – ko'p narsalarni o'rgatgan, xalq sifatida o'sishimizga hissa qo'shgan. Ularga bo'lган ginani kompleksga aylantirsak – bu nafratni va millatchilikni keltirib chiqaradi. Millatchilik esa faqat eng ojiz shaxslarga xos bo'lган odat.

Bugun yurtimizda yashayotgan turli millat vakillari davlat tilida ravon so'zlasha oladilar. Ba'zi "zamonaviy" yoshlarga qiyoslaganda – boshqa millat vakillari o'zbek tilida ancha bexato va ravon gapiradilar. Bu ham bo'lsa tilimizga ko'rsatilgan hurmat. Tilga hurmat ana shunday ko'rsatiladi. Shu o'rinda har birimiz o'z ona tilimizni qanchalik yaxshi bilishimizni bir chamalab ko'raylik – shu chamalashdan chiqqan baho bizning o'z tilimizga bo'lган hurmatimizni ham ifodalaydi.

Tilni parvarishlash – kimgadir nisbatan gina sabab uni boshqa tillardan kirgan so'zlardan tozalashdan iborat emas. Tilni parvarishlash – uni mukammal o'rganish, uning sarhadlarini kengaytirish, uning imkoniyatlarini yana-da yuqori pog'onalarga olib chiqishdan iborat. Til – millat ko'zgusi degan gap haq bo'lsa, millatimiz ko'zgusi ichimizdagи gina va kemtiklarni akslantirmsin. Millatimiz ko'zgusi ichimizdagи shaxsiy kuch va bag'rikenglikni akslantirsin.

PAYSHANBA

Qo'rquvlar

Davlatdan qo'rqish

Dushanba kungi suhbatda xalqni qo'rquv yordamida boshqargan davlatlar haqida ham gap borgan edi. Hokimiyatparastlikka chalingan odamlar qadim-qadimdan qo'rquv boshqalarga ta'sir qilishning eng kuchli vositalaridan biri ekanini bilishgan.

Ko'pchilik davlat yaralishi tarixiga nazar tashlab, uning paydo bo'lishida asosiy omil qo'rquv bo'lgan degan xulosaga boradi. Bu yuzaki baho bo'lib, aslidan qo'rquvning ortida nima turganini nazardan chetda qoldiradi.

Odamzodda, boshqa har qanday jonzot singari, yashab qolish ilinji bor. Bu ilinj bizni doim yashash uchun yaxshiroq va qulayroq muhit izlashga undaydi. Yashashga intilish sabab biz jamiyat hosil qilganmiz va davlatga ehtiyoj sezganmiz.

Turli xil davlatlar o'z xalqini boshqarish uchun turli qo'rquv obyektlaridan foydalangan. Bir hukmdor xalqni osmondag'i xudolar qahri bilan qo'rqtgan bo'lsa, boshqasi chegara ortidagi vahshiy g'animlar bilan qo'rqtgan. Bunday davlatlar turli xatarlar haqida tinimsiz gapirib, odamlarga o'z mavjudliklarini asoslashga uringanlar.

Misr fir'avnlari o'zlarini xudolarga teng deb e'lon qilib, agar ular xalq boshida turmasa, ilohlarning qahri kelishini aytib, oddiy xalqni bunga ishontirganlar. Misr xalqi o'z podshohlariga itoat etishlariga ilohlar qahridan qo'rqlislari ham katta turtki bo'lgan.

Rim sezarları esa xalqni shimol va sharqdagi "yovvoyi" g'animlar xavfi bilan qo'rqtib, qudratli harbiy davlat tizgini qo'lda saqlashgan. Rim xalqi ularni vahshiy dushmanlar qahridan himoya qilgan davlatga hozirlik bilan itoat etgan, cheki yo'q harbiy yurishlar badalini soliqlar bilan to'lab yashagan.

Yangi davr hukumatları yana-da kuchli qurol o'ylab topishgan. Xalqni boshqarishda qo'rquvdan foydalanishda totalitar tuzumlar misli ko'rilmagan mahoratga erishganlar.

Bunga eng yaqqol misollar fashist Germaniyasi va Stalin hukumatidir. Bu ikki davlatda ham odamlarga singdirilgan mafkura davlatning cheksiz qudrati oldida alohida shaxs hech narsa qila olmasligini ta'kidlagan. Davlat – hech kim va hech narsa bilan hisoblashmaydigan sovuqqon mashina sifatida tasvirlangan. Bunday taassurot ichki maxfiy politsiya kuchi bilan ushlab turilgan.

Bunda xalqni nazoratda saqlash uchun ilohiy kuchlar yoki tashqi dushman oldidagi qo'rquv emas – davlatning o'zidan qo'rqish ishlatalgan. Natijada, xalq davlatdan begonalashgan va jamiyat falajlangan. Bunday tuzumda odamlar faqat yuqorida buyruq asosida ish ko'radigan, o'zi mustaqil tashabbus bilan chiga olmaydigan shijoatsiz shaxslarga aylangan.

Qo'rquv asosida qurilgan davlat o'z mohiyatidagi ichki ziddiyat tufayli tanazzulga uchraydi. Davlat xalqni boshqarishda qo'rquvga qancha urg'u bersa, jamiyatni tashkil qilgan alohida shaxslar shuncha zaiflashib boraveradilar. Ojiz shaxslardan tuzilgan jamiyat esa o'z-o'zini ma'naviy va moddiy ta'minlay olmaydi va qo'rquv soyasida nobud bo'ladi.

Sovet tuzumi merosi bugun ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Davlatdan sababsiz qo'rqish holati har birimizda bor. Odamlarni davlat bilan qo'rqtib tartibga solish hatto kundalik odatlarimizgacha kirib borgan: injiqlik qilgan yosh bolalarni ba'zan "ana seni olib ketgani militsiya kelyapti" kabi gaplar bilan tartibga solishga urinamiz. Bolalikdan davlatning odamlariga nisbatan qo'rquv va begonalikni shakllantiruvchi bunday tarbiya usullari hech kimda hayrat uyg'otmaydi.

Demokratik tamoyillar asosida qurilgan va shaxsiy erkinlikka asoslangan jamiyatda bu kabi holat davlat va shaxs munosabatlariga xalal beradi. Uzoq muddat totalitar tuzum ostida yashash sabab oddiy holga aylangan davlatdan qo'rqish odati yangi mustaqil jamiyatda faqat barchaning zarariga ishlaydi.

Xalq biror nima yoki biror kimdan qo'rqqani uchun davlat tuzmaydi. Xalq o'z istaklariga erishish uchun maqsadlar va amallarni muvofiqlashtirish uchun davlat tuzadi. Qaysidir davlat xalq intilishlarini inobatga olmay ish qilishni boshlasa, xalq bunday davlatni ag'darib tashlashdan aslo qo'rqlaydi. Davlatning mavjudligiga asos – xalqning qanchalik undan qo'rishi emas, uning xalqqa qanchalik yaxshi va to'g'ri xizmat qilishidir.

Ba'zi odamlar davlat xalqdan qo'rqsagina, jamiyat taraqqiy topishini ta'kidlaydilar. Bu ham bir keskinlik va tarix bu fikr qanchalik xato ekanini ko'p marta ko'rsatgan. Bunga misol izlab uzoq o'tmishga va uzoq o'lkalarga murojaat etish shart emas. Mamlakatimizga qo'shni Qирг'изистонда odamlar shu kabi tamoyilda yashaydilar. Ikki inqilobdan so'ng, bu mamlakat xalqi davlatni qo'rquv ostida tutishga o'rgangan. Natijada esa jiddiy qarorlar qabul qila olmaydigan, hammaning ko'nglini teng olishga intiladigan amorf va zaif hukumat yuzaga kelgan. Davlat uzoq muddatli islohotlar bilan jamiyat hayotini yaxshilash o'rniga, qisqa muddatli loyihalar bilan xalq kayfiyatini yaxshi saqlash bilan band bo'lib qolgan. Bunday hukumat mamlakat manfaatini xalqaro hamjamiyatda himoya qilishga ham, xalq uchun ishonchli kelajakni ta'minlovchi strategik siyosatni olib borishga ham ojiz.

Aflatun "Davlat" deb atalgan asarida bunday turdag'i davlatda odamlar o'zlariga berilgan erkinliklarni suyiiste'mol qilishlarini, bu holat borgan sari chuqurlashib borishini, oxir oqibatda bunday jamiyatda zolim hukmdorlar chiqishini mantiqiy tahlillar bilan izohlagan. Xalq kuchi oldida qo'rqib, zaiflashgan davlatlar turli tashqi xatarlar oldida ojiz qolishini uzoq va yaqin tarix ham ko'p marta amalda isbotlagan.

Yuqoridaqilardan xulosalar juda oddiy: shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarga qo'rquv aralashmasligi lozim. Davlatidan qo'rqqan xalq ham, xalqidan qo'rqqan davlat ham bunyodkor ishlar qilishga noqodir. Zaif davlat esa hech birimiz manfaatimizga xizmat qila olmaydi.

Xo'sh, shaxsning davlatdan – davlatning shaxsdan qo'rmasligini ta'minlash uchun qanday tamoyilga amal qilgan ma'qul?

Shaxsning davlatga munosabati *ishonchga* asoslanishi lozim. Biz o'z davlatimizga ishonishimiz, har qanday holatda ham unga suyanishga tayyor bo'lishimiz kerak. Bunday ishonch davlatning faoliyatidan to'la xabardor bo'lish bilangina yuzaga keladi. Biz davlatimiz nima qilayotganini va nega shunday qilayotganini bilib tursak, unga yaqin bo'lishimiz, uning siyosati bizning intilishlarga mos ekanini ko'ra bilishimiz, uning qarorlari bizning manfaatga xizmat qilishini anglashimiz oson bo'ladi.

O'z faoliyatida oshkoralik va shaffoflik tamoyillariga amal qilgan, o'z amallarini xalqqa oddiy va tushunarli tilda yetkaza bilgan davlat ham xalq

noroziligi soyasida qolish xavfidan himoyalangan, jamiyatdagi ichki ziddiyatlardan sug'urtalangan bo'ladi.

Davlatdan qo'rqish hisidan holi bo'lмаган одам shaxsiy erkinlikka erisha olmaydi. Biz bolalikdan begonalardan qo'rquamiz – demak, davlat bilan yaqindan tanish bo'lsak, u bilan do'st tutinsak, unga ishonishni va uni hurmat qilishni o'rgansakkina, undan qo'rqligida bo'lamiiz.

Davlatga undan qo'rqa digan fuqarolar kerak emas. Bunday fuqarolardan jamiyatga naf kam. Bunday shaxslar mustaqil qarorlar qabul qilishdan ham, o'z qarorlari uchun mas'uliyatni o'zlariga olishdan ham qo'rqa dilar.

Xalqdan qo'rqa digan ojiz davlat ham hech bir xalqqa kerak emas. Bunday davlat hatto o'z xalqi manfaatlariga xizmat qiluvchi qarorlarni ham xalq qahridan hadiksiz qabul qila olmaydi.

Kuchli shaxs belgisi qo'rquvdan holilik bo'lganidek – kuchli jamiyat ham har qanday qo'rquvdan holdir.

Tashqi dushmanlar

Davlatchilik falsafasida *umumi dushman* degan tushuncha bor. Xalqni bir maqsad yo'lida birlashtirish uchun, umumi dushman obrazidan foydalanishni nazarda tutadi bu qarash.

Aytaylik, bir mamlakat xalqi o'zaro inoq emas. Odamlar o'zaro ziddiyatlar va janjallar bois hech birlasha olishmaydi. Agar bunda davlat bir-biri bilan kelisha olmayotgan guruhlarga umumi bir dushman ro'para qilsa, ular darrov bu yangi dushmanaga qarshi birlashadilar. Umumi dushman obrazi xalqni birlashtirish kuchiga ega bo'lishi uchun, u juda qudratli bo'lishi, nizodagi hech bir guruh uni yakka holda yenga olmasligini bilishi kerak.

Masalan, 11-sentyabr hujumlaridan keyin mamlakat aholisini bir mafkura atrofida jipslashtirish uchun, AQSh hukumati terrorchilar obrazini mahorat bilan ishlatdi. Turli-tuman qarash va hayot tarziga ega ulkan mamlakat aholisining katta qismi o'zaro kelishmovchiliklarni chetga surib, umumi dushman – terrorchilarga qarshi birlashdi.

Bunday usul ishlashida odamlarning noma'lum va begona kimsalar va g'oyalardan qo'rqli markaziy o'rinni egallaydi. Uyushmagan olomonni

birlashtirish uchun, ularning hammasida hadik uyg'otadigan dushman obrazi bilan ularni qo'rqitish kerak. Shu zaylda qo'rquv hisi xalqni yakdil qilishga xizmat qiladi.

Umumiy dushman tamoyilidan har zamonda va har bir davlatda foydalilanigan. Yaqin o'tmishimizdagি Sovet hukumati ham o'z mafkurasini odamlar ongiga singdirishda shunday usuldan keng foydalangan. G'arb kapitalistik dunyosiga bo'lgan dushmanlik hisi turli xil millat va elatlarni yagona ittifoqda yashashga undagan. Ittifoq hayotining so'ngi yillarda umumiy dushman obrazi o'z kuchini yo'qota boshlagan va ittifoq ichida turli millat vakillari orasida nizolar yuzaga kelgan. Bugun mustaqillikka erishgan mamlakatlarning bir-biriga ko'pincha g'ayirlik qilishida ham ana shu jarayonning davomini ko'rishimiz mumkin: ularning barchasini umumiy qo'rquvda ushlab turgan dushman siymosi yo'qolishi bilan, ular o'zaro nifoqlarni boshlaganlar.

Sovet davrida sinovdan yaxshi o'tgan umumiy dushman tamoyili bugungi kunda ham mamlakatimizda ishlatilib kelinmoqda. Buning eng yaqqol ko'rinishi so'ngi yillarda yoshlarni tarbiyalash siyosatida "ommaviy madaniyat"ga qarshi ochilgan rasmiy urushda namoyon bo'lmoqda. Qarashlari turli xil bo'lgan yoshlarni birlashtirish uchun, ularga umumiy dushman qilib g'arb (xususan Yevropa) mamlakatlari, ularning liberalizmga asoslangan hayot tarzi ko'rsatilmoxda. Tashqi dunyodan deyarli uzelgan Sovet Ittifoqida yaxshi ish bergen bu usul axborot asrida, tabiiyki, kutilgan natija bermadi. Atrof dunyodan xabardor bo'lib turgan bugungi yoshlar Yevropa o'z hayot tarzi va madaniy andazalari bilan hech kimga g'animlik qilmayotganini, ommaviy madaniyatni umumiy dushman deb e'lon qilishga hech bir asos yo'qligini ko'rib-bilib turibdilar.

Ommaviy axborot vositalarimizda ham juda kulgili va mantiqsiz ma'lumotlar uzatilmoxda: bir muxbir chiqib "mamlakatimizda Yevropaning falon va falon mamlakatlari bilan hamkorlikda falon korxonalar ishga tushdi" deb kerilib maqtansa, bir oz o'tmay boshqasi "Yevropa ommaviy madaniyatni yurtimizga eksport qilib, yoshlarimiz ongini bulg'amoqda" deb nolishga tushadi. Ya'ni, bizning yoshlarga ommaviy madaniyati bilan tahdid qilayotgan Yevropa bilan iqtisodiy hamkorlik qilsak, ilm-fanda tajriba almashsak, yoshlarimiz ularning tilida gapirishni o'rgansa va u yerga borib ta'lim olsa – maqtanamiz. Bunday mantiqsiz yondashuv sergak odamni hayratga solmay qolmaydi.

Zamon talabiga mos kelmagan bunday siyosat o'zi ko'zlagan maqsadga zid natija bermoqda. Mamlakat yoshlarining tashqi dunyodan nisbatan uzilgan qismida milliy konservativm yuzaga kelmoqda. Ular har qanday yangicha qarash va holatni dushmanlik amali deb bilib, kuchli norozilik bilan kutib olishga o'rganmoqdalar. Tabiiyki, ularga qarshi tomonda dunyo ko'rgan va oliy ma'lumotli yoshlar liberallar qatlamini hosil qilmoqdalar. Yoshlarni uyushtirishga qaratilgan siyosat ularni yana ham bo'linishiga, o'zaro ziddiyatlar paydo bo'lishiga sabab bo'limoqda.

Jahon xalqlari manfaatlari ilm-fandagi hamkorlik, global savdo va iqtisodiy aloqalar sabab bir-biri bilan chatishib ketgan bugungi dunyoda umumiyl dushman tamoyili hech bir xalq ravnaqiga xizmat qilmaydi. Bu usul mamlakatlar bir-biri bilan yaqindan aloqa qilmagan qadimgi dunyoda va ikkiga bo'lingan o'tgan asr dunyosida ish bergen, xolos. Xalqni uyushtirish uchun uni tashqi dushman obrazi bilan qo'rqtish bugungi kunda zararli va xatarli oqibatlarga olib keladi.

Birinchidan, bunday usulda tarbiyalangan xalq butun dunyodan ajralgan holda, o'z g'ilofiga o'ralib yashashga o'rganadi. O'zidan boshqa hammani dushman bilgan mamlakat yakkalanib qolishga mahkum. Bir tomondan kimnidir xalqqa dushman deb ko'rsatib, boshqa tomondan xalqni o'sha kim bilandir samarali hamkorlik qilishga undab bo'lmaydi. Bu bir qo'l bilan niholni sug'orib, boshqasi bilan uni chopishday gap.

Ikkinchidan, qo'rquv yordamida birlashtirilgan xalq ana shu qo'rquv yo'qolishi bilan, ichki ziddiyatlar domida qoladi. Faqatgina tashqi dushman soyasida qolgani uchungina birlashgan odamlar ana shu soya ketishi bilan, bir-birlari bilan dushmanlikni qaytadan boshlaydilar. Kimnidir dushman deb yashab ko'nikkan odamlarni keyinchalik boshqa usulda uyushtirish juda qiyin bo'ladi.

Uchinchidan, tashqi dushmanidan qo'rqish oxir oqibat ochiq nafratga o'tib ketadi. Xalq sergaklikni yo'qotib, hech bir asossiz ularga dushman deb ko'rsatilgan tomondan nafratlana boshlaydi. Bunda juda kuchli va ayanchli bir ijtimoiy andaza yuzaga keladi: har qanday notanish tashqi kuch dushman sifatida qoralana boshlaydi. Odamlar erkin fikrlash va mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatini yo'qotadilar.

Tashqi dushman obrazi bir tomonni boshqa tomonga solishtirish yo'li bilan yaratiladi. Avvalgi kitoblardan ma'lumki, taqqoslab berilgan baho

nisbiy va ishonchsiz bo'ladi. Vaziyat o'zgarishi bilan, bunday baho ham o'zgaradi. Uzoqni ko'zlagan davlat siyosati nisbiy haqiqatlar ustiga qurilmagan bo'lishi kerak. Aks holda, nisbiy haqiqatlar o'zgarishi bilan, bu tadbirlar foydasiz bo'lib qoladi. Yuqorida ko'rganimizdek, ba'zi hollarda bunday siyosat zararli oqibatlarga ham olib keladi.

Avvalgi suhbatlardan yana shuni bilamizki, qo'rquv yordamida hech kimni tarbiyalab, tartibga solib bo'lmaydi. Albatta, qisqa muddatga qo'rquv bilan qilingan yondashuv ko'zga ko'rinarli samara berishi mumkin. Ammo qo'rquvning badali uzoq istiqbolda doim qimmat bo'ladi. Qo'rquv soyasida ojiz shaxslargina ulg'ayadi. Ojiz shaxslarni tarbiyalab esa kuchli jamiyat – kuchli davlat qurib bo'lmaydi.

Xalqni jipslashtiruvchi g'oya – umumiy manfaatdan kuch olishi kerak. Dushman umumiy bo'lishi emas – maqsadlar, manfaatlar va intilishlar umumiy bo'lishi lozim. Milliy ahillik tashqi dushmanga g'ayirlik ustida emas – xalq ichidagi solidarlik (yakdillik) asosida qurilishi darkor.

Biz mamlakatimizda ilm-fan va madaniyatni kuchaytiraveraylik – shunda hech bir tashqi madaniy xavflar bizga soya sola olmaydi. Biz milliy san'atimiz darajasini yuqori tutsak – yoshlarimiz chetdan ma'naviy ozuqa izlamaydi. Ichki kamchiliklar uchun tashqi kuchlarni aybdor qilish o'rniga, o'zimiz bu xatolarga zamin yaratib berganimizni tan olishga shaxsiy kuchimiz yetsa – ana shunda yengilmas kuchga aylanamiz.

Kamchiliklar ustida birga ishlaylik, birga hayotimizni yaxshilaylik, birga iqtisodimizni ko'taraylik, ilm-fan va texnologiyani yuksaklarga birga olib chiqaylik kabi takliflar bilan ham yoshlarni birlashtirish mumkin. Jamiyatimizda millatchilik, mahalliychilik, diniy ayirmachilikni yo'qotaylik, bu illatlar xalq sifatida bizni ojizlashtiradigan kasalliklar ekanini har bir yosh avlod vakiliga tushuntiraylik.

Kuchli shaxs – kuchli yetakchi odamlarning ojizliklari yoki qo'rquvlardan foydalанин ularni birlashtirishga intilmaydi. Kuchli shaxs qo'rquvdan hol bo'lishning afzalliklari qo'rquv yordamida uyushishning samarasidan ko'p marta katta ekanini biladi. Kuchli shaxslar bir maqsad, bir g'oya atrofida birlashish uchun umumiy dushman izlamaydi.

Birdam bo'lish, yakdil bo'lish uchun qo'rquvni asos qilib olamizmi yoki shaxsiy kuchnimi – buni faqat biz tanlaymiz.

O'tkir fikrlar

Jamiyat a'zosi sifatida bizda ajoyib bir qo'rquv hisi yashaydi: biz ana shu jamiyatdan ajralib qolishdan, yakkalanishdan qo'rquamiz.

Jamiyat va keyinchalik davlat taraqqiy etishi bilan hamma uchun umumiy bo'lgan qoidalar va tartiblar joriy qilingan. Tarix davomida joriy qilingan bunday tartiblar bugungi kunda an'analar shaklida hayotimizda mahkam joy olgan.

Ommani umumiy qolipga solish ularni boshqarishni osonlashtirishi qadim paytlardayoq anglab yetilgan. Shu bois ham din, madaniyat va qonunlar yordamida butun xalq xatti-harakati va hayot tarzini umumiy o'zanga solishga urinilgan. Kiyimdagagi moda, hayotdagagi urf-odatlar hammasi odamlarni bir qolipga solishga qaratilgan.

Bir xil kiyangan odamlar to'da instinctiga osonroq beriladilar. Buning eng yaqqol misoli – armiya. Qadim-qadimdan askarlar bir xil yoki deyarli bir xil kiyim kiyganlar. Bu ularni jamoa sifatida jipslashtirgan va birga harakat qilishga undagan. O'zi bilan bir xil kiyim kiygan askarlar bir tomonga yugurayotganini ko'rgan odam o'zi anglamagan holda o'sha tomonga yuguradi.

Bir xil kiyinishing odam psixikasiga ta'sirini yaxshi anglagan davlatlar keyinchalik o'qish va ish joylarida ham andaza kiyimlar joriy qilganlar. Bir xil uniforma kiygan maktab o'quvchilarini intizomda tutish osonroq bo'lgan. Bu tartib bizning jamiyatda madaniyat belgisi sifatida haligacha saqlanib qolgan: o'qish yoki ish joyiga tegishli kiyimda bormasangiz, boshqalarga hurmatsizlik qilgan bo'lasiz va hammaning qahriga uchraysiz.

Albatta, maktabda bir xil kiyim joriy qilishning ba'zi afzallikkleri ham bor. Masalan, bunda tenglik prinsipiiga ishora bor: ilm dargohida boyning ham, nochorning ham bolasi teng mavqega ega. Ammo o'quvchilarni umumiy qolipga solishga ba'zi mutasaddilar shu darajada katta ahamiyat berib yuborishadiki, goho bolaga tazyiq o'tkazadilar.

Bunday tazyiqlar ko'pincha qo'rqtish usuli bilan qilinadi: hamma bilan bir xil bo'lishni istamasang, hamma sendan yuz o'giradi. Mana shunday

“tarbiya” usullari sabab har birimizda yakkalanishdan – boshqalarga o’xshamagan bo’lishdan qo’rqish odati shakllanadi.

Bunday yondashuv, afsuski, kiyinish yoki o’zini tutish odati bilan cheklanib qolmaydi. Biz qolipdagi bilimlarni qolipga solingan usullardan olamiz. Bizga ilm o’rgatadiganlarning dunyoqarashi va o’z kasbiga munosabati, afsuski, ko’pincha qolipga tushgan bo’ladi. O’quv dasturidan tashqari manbadan biror nima o’rganish, ilm olishga yangicha yondashish, xilma-xil qarashlarni bilishga intilish ko’p holatda jazolanadi. Baxtga qarshi, ko’pincha qolipdan chiqish uchun qilingan tashabbus qattiq jazolanadi.

Natijada butun bir avlod qolipda fikrlaydigan, qolipdan tashqari bo’lishdan qo’rqadigan bo’lib ulg’ayadi. Albatta, har qanday guruhda noodatiy shaxslar bo’ladi: lekin juda ko’p hollarda qolganlardan boshqacha bo’lishdan qo’rqish hisi bunday shaxslarga o’z iste’dodlarini yuzaga chiqarishga imkon bermaydi. Ommadan ajrab qolishdan qo’rqish juda ko’p iqtidirlarni nobud qiladi.

Xo’sh, hammaning bir xil yoki o’xhash tarzda fikrlashi va yashashining nima yomon joyi bor? Bundan kimga zarar? Qaytanga, odamlar bir xil fikrlasalar, ular bir-birlarini oson tushunadilar va murosada yashaydilar. Shunday emassi?

Albatta, bunday fikrda kuchli mantiq bordek tuyiladi. Ammo masalaning boshqa tomoni bor. Fikrlashi bir xil qolipga solingan shaxslardan tashkil topgan jamiyat rivojlanishdan to’xtaydi. Bunday jamiyat ilm-fanda ham, kundalik turmushda ham hech qanday yangilik bilan chiqmaydi. Bunday jamiyat o’z qolipdagi qadriyatlar ahamiyatini haddan ziyod oshiradi va shu qadriyatlarga tobe bo’lib qoladi. Bunday jamiyat ma’naviy o’sishdan to’xtaydi.

Tasavvur qiling, men sizga oq va qora bo’yoqlarini berib, shularni ishlatib yangi rangdagi bo’yoqlar yarating dedim. Siz bu ikki rangdagi bo’yoqni turli miqdorlarda qorishtirib, turli tusdagi kulrang bo’yoqlar hosil qilasiz. Ularning ba’zisi to’qroq, boshqalari ochroq bo’ladi – ammo hammasi kulrang bo’ladi.

Fikrlashi ma’lum qoliplarga solingan jamiyat vakili ham ana shunday holatda yashaydi: u faqat cheklangan miqdorda yangilik yaratishi

mumkin. Bordi-yu shaxsda boshqa ranglardan ham foydalanish fikri paydo bo'lsa ham, u bu fikrni amalda qo'llashdan qo'rqiadi. Axir, odamlar nima deydi...

Bugungi yoshlarni kuzatsangiz, ular qanchalik qolipga solingan ekanini ko'rasiz. Ularning fikrlari o'xhash, qadriyatlari o'xhash, hayotda intilayotgan maqsadlari o'xhash, o'rganayotgan bilimlari o'xhash. Kiyinishi, o'zini tutishi, tinglayotgan musiqasi – hammasi bitta qolipda. Albatta, ba'zi-ba'zida qolipdan tashqari yigit-qizlar ham uchrab turadi – ammo bundaylar juda kam. Yoshlarda ommadan ayri bo'lishdan qo'rqish hisini shakllantirib, biz mutlaqo turdosh, bir qolipdagi shaxslarni voyaga yetkazyapmiz.

O'zimiz boshqalarga o'xshamagan bo'lishdan qo'rqqanimiz kamlik qilgandek, bunday qo'rquvdan holi yashaganlarni qoralaymiz. Mumtoz musiqa eshitgan, jamiyat va hayot haqida noodatiy fikrlar aytgan, o'z iste'dodiga ergashgan shaxslar bizning masxaramiz va kulgimizga uchraydi.

Tabiatga bir xillik zid. Tabiat rang-baranglikni sevadi, xilma-xillikni yoqtiradi. Tabiat o'sish va taraqqiy etishni xilma-xillik orqali amalga oshiradi. Shu bois ham biz haligacha tabiatdagi jonzotlar nechta turda ekanini aniq bilmaymiz.

Odamlar to'dasi o'zini "jamiyat" deb ulug'lasa ham, bari bir tabiatning ixtiyoriga qarshi bora olmaydi. Biz ham xilma-xillikda ulg'ayamiz, rang-baranglikda taraqqiy etamiz.

Matematika darsida bir masalaga har bir o'quvchi o'zicha yondashishiga imkon berilsa, qanday bo'lardi? Sinfdag'i o'ttiz o'quvchi masala bilan o'ttiz xil usulda kurashib ko'rsa? Mayli, hech kim bu masalani yecha olmasin. Lekin bu kurash davomida o'ttizta yosh ong o'sadi, mustaqil fikrlashni – o'ziga xos yo'ldan yurishni, yangicha tomondan yondashishni o'rganadi. Ba'zida esa shu o'ttizta ong orasidan bittasi masalani mutlaqo yangicha – mutlaqo samarali usulda yechish yo'lini topadi. Mana shunday usulda tarbiya ko'rgan avlod ulg'ayganda ham katta hayotiy muammolarga yangicha va o'ziga xos usulda yechimlar topa biladi.

O'zingizda erkin fikrlashga iste'dod sezyapsizmi – qo'rquv hisi uni nobud qilishiga imkon bermang. Bu iste'dod qo'llab-quvvatlansa, tarbiyalansa

va amalda ishlatsa – u nafaqat sizga, atrofdagilarga ham katta naf keltirishi mumkin. Ommadan boshqacha fikrga, boshqacha qarashga – hammadan boshqacha qadriyat va hayot tarziga ega bo'lishdan qo'rqmang. Bu bilan siz jamiyatdan ajragan emas – uning olg'a ildamlashiga hissa qo'shgan bo'lasiz. Hamma o'ziga xos bo'lishi qo'rinchli emas – hamma bir xil bo'lishi qo'rinchli.

Bizning jamiyat o'ziga pluralizmni tamoyil qilib tanlagan. Pluralizm – odamlar xilma-xil fikrlarga va qarashlarga ega bo'lishini yoqlaydigan falsafa. Ana shu xilma-xil fikrlar bir-biri bilan bellashib, bir-birini to'ldirib – bir-birini o'stirib, jamiyatni rivojlantiradi.

Sizda yangicha fikr bormi? Uni aytishdan, muhokama qilishdan qo'rqmang. Albatta, uni hamma birdek yoqtirmaydi. Ammo tanqid fikringizni o'tkirlaydi. Maromida charxlangan fikr esa bunyodkor ishlarga – hammaga yoqadigan ishlarga asos bo'ladi.

Erkinlikdan qo'rqish

Bugungi zamondoshlarimizda juda bir ajoyib holat kuzatiladi: ular erkinlikdan qo'rqa dilar. Ushbu bob bir qarashda mantiqqa zid, ammo diqqat bilan o'rganilsa – tushunish oson bo'lgan shunday qo'rquvga bag'ishlanadi.

Odamzod aqlini tanib, tabiatga tobe bo'lmay qo'ygan paytlardan beri bir muammo bilan yashaydi: u o'zini butun borliqdan ayri, yolg'iz va ojiz his qiladi. Albatta, u ham tabiatning bir qismi ekanini aqlan tushunib turadi – lekin intuitsiyasi unga u endi tabiatdan ancha begona ekanini aytadi.

Tabiat shunday ajoyib hazil qilganki, erkinlikka erishishi mumkin jonzot bo'lgan odamzodni juda tobe qilib qo'ygan. Har qanday jonzotning bolasi onasidan tug'ilishi bilan, undan mustaqil bo'lishga intila boshlaydi. Faqat biz onamizdan mustaqil bo'lish uchun ko'p yillar sarflaymiz. Biz tug'ilganda juda tobe tug'ilamiz va tobelik biz ko'nikkan qulay muhitga aylanadi.

Bolalikni nega hammamiz qumsaymiz? Chunki unda erkinlik yo'q. Unda bizning hayotimizni ota-onha va jamiyat ta'minlagan. Albatta, bolalikda burchlar va ko'p qoidalardan erkin bo'lganmiz – lekin bolalikda tirikligimiz to'lig'icha boshqa odamlarga tobe bo'lgan.

Lekin ulg'aygan sari – ba'zan istab, ba'zan istamay – ota-onamizga bo'lган tobelikdan chiqishga harakat qila boshlaymiz. Bu jarayon har doim og'riqli va ziddiyatlarga to'la bo'ladi. Ba'zida ota-onamiz bizga to'liq erkinlik berishni istamaydi. Ammo ko'pincha o'zimiz ana shu erkinlikka chiqishga qo'rquamiz.

Erkinlikning nimasi qo'rqinchli bo'lishi mumkin? Axir, tarix davomida odamzod aynan erkinlik uchun kurashib, jon olib jon bermaganmi? Agar erkinlik qo'rqinchli holat bo'lsa – unda nega odamlar uni bunchalik qadrlaydi?

Gap shundaki, erkinlik hayotimiz uchun butun mas'uliyatni o'z yelkamizga tashlaydi. Erkin odam uning muammolarini kimdir hal qilib berishini, uning ehtiyojlarini kimdir qondirishini kutmaydi – kuta olmaydi. Erkinlik – bizni asrab kelgan va biz ko'nikkan uyadan chiqish degani.

Biz (ayniqsa biz – o'zbeklar) shu darajada tobelikka moyilmizki, hamma muammo va tashvishlarimizni kimlar bilandir bo'lishgimiz keladi. Biz doim odamlardan maslahat izlaymiz – boshqalarning fikri bilan qiziqamiz. Oila va jamiyatning fikrini hisobga olmay hayotimizda katta qaror qabul qilishimiz juda qiyin.

Biz to'liq mustaqil qaror qabul qilishni ko'p hollarda istamaymiz ham. Nega? Chunki qabul qilgan qarorlarimiz ko'pchilikning fikriga asoslangan bo'lsa – uning oqibatlari uchun ham ko'pchilik javobgar bo'ladi. Aytaylik, bir yigit kimga uylanishni tanlashi kerak. Agar u ota-onasi fikrini hisobga olib qaror qilsa, ertaga turmushida muammo chiqsa, bu muammo uchun yolg'iz u javobgar bo'lmaydi – unga shu qizni tavsiya qilgan ota-onasi va yaqinlari ham javobgarlikni qisman o'zlariga oladilar. Mas'uliyatdan qisman bo'lsa ham qutilish esa hammamizga yoqadi.

Agar yigit erkinlikni tanlasa, u qarorni bir o'zi qabul qiladi – keyinchalik shu qaror oqibati uchun ham u bir o'zi javobgar bo'ladi. Ana shu yolg'izlikdan – yakka javobgarlikdan qo'rqqanimiz uchun ham, biz erkinlikdan qo'rquamiz.

Erkinlikdan qo'rqish odati nafaqat oila va jamiyat bilan munosabatlarimizda namoyon bo'ladi. Biz davlat yoki din bilan munosabatimizda ham shunday yo'l tutishimiz mumkin.

Davlat alohida shaxslarga erkinlik bermayotganini ta'kidlaydigan odamlarni ko'p ko'rganmiz. Eng kulgilisi shuki, ana shu erkinlik kamligidan noliydigan odamlar aslida erkinlikdan juda qo'rqedilar. Ularga davlat mas'uliyatning katta qismini o'ziga olib, ularning hayotini ko'p jihatdan belgilagani juda yoqadi. Davlat ularni o'qitishi, ishga joylashi, yuqori turmush darajasi bilan ta'minlashi kerak. Ular erkin yashashdan ko'ra, mas'uliyatsiz yashashni afzal ko'radilar.

Lekin qalb taskin topmaydi bari bir. Chunki qalbga muammolar o'z-o'zidan ilohiy qudrat aralashuvi bilan hal bo'lishi kerak emas. Qalbga erkinlik kerak. Erkinlikdan azbaroyi qo'rqedigan va o'z tobelinegi har yo'lliga oqlashga urinadigan aql iskanjasidan chiqish kerak qalbga.

Mening kitoblarimni o'qib, ba'zi narsalarni tushunib yetgan ba'zi odamlar ana shu bilimlarni amalda qo'llay olmayotganliklaridan noliydlar. Bunga ular shaxsiy kuchlari yetmayotganini sabab qilib ko'rsatadilar. Lekin asl sabab – ular erkinlikdan qo'rqishlarida. Men har doim yakuniy tanlovni kitobxonning o'zi qilishini xohlayman, o'quvchini shunga turkilayman. Ammo yangi va noma'lum erkinlikka chiqish hamda qulay va sinalgan tobelik soyasida qolish o'rtasida tanlashga kelganda ba'zi suhbatdoshlarim qo'rquv ta'sirida ikkilanib qoladilar. Ular o'qib bilgan narsalariga kuchsiz bo'lganliklari uchun amal qila olmaydilar emas – ular erkinlikdan qo'rqqanliklari uchun erkinlikni tanlay bilmaydilar.

Odamlar o'zlari ko'nikkан tobelikdan voz kecha olmasliklari tabiiy holatga o'xshaydi. Bunda qanday xatar bo'lishi mumkin? Gap shundaki, tobelikdan panoh topgan odam borgan sari hamma mas'uliyatni uni tobe qilgan kuchga topshiradi. Davlatga to'liq ixtiyorini topshirishdan totalitar tuzumlar yuzaga keladi (stalinizm yoki fashizm kabi).

Erkinlikning qo'rqinchli tomoni – unga erishgan odam o'zini atrof-dunyodan uzilgan, yolg'iz va ahamiyatsiz his qilishida. Erkinlikni tanigan odam o'z shaxsiyati hayot va boshqa odamlar uchun u avval o'ylaganchalik muhim emasligini anglab qoladi. Shaxsiy muhimlikni o'z ilohi deb bilgan aqlga esa bu holat aslo yoqmaydi.

Ammo erkinlik – bu yolg'izlik degani emas. Davlat yoki odamlarga bo'lgan tobelik aloqalarini uzib, erkin bo'lgan shaxs o'z tanlovi bilan hayot va odamlar bilan yangi rishtalarini o'rnatadi. Bu rishtalar bir tomonning boshqa tomonga itoatiga emas – tenglik tamoyiliga

asoslanadi. Bunda ikki odam o'zaro mehr yoki hurmatdan kelib chiqib munosabatga kirishadi. Erkin shaxs o'zini va odamlarni shartsiz sevishni o'rganadi. Hech kimdan hech narsa kutmaydi.

Erkinlikka erishgan shaxs o'z qalbi istaklariga ergashib yashaydi. Sevgan kasbi bilan shug'ullanadi va shu bilan odamlarning hurmati va olqishiga sazovor bo'ladi. U kimdandir o'zish, kimgadir munosib bo'lish, kimningdir umidlarini oqlash – davlat e'tibori yoki xudo mehriga loyiq bo'lish uchun yashamaydi. U baxt uchun yashaydi.

Yuqorida fikrlardan erkin odam faqat o'zini o'ylaydigan xudbin odam ekan degan tasavvur uyg'onishi mumkin. Ammo xudbin odam erkin emas – u o'z istaklari, manfaatlari va muhimligiga tobe. Erkin odamning qalbida xudbinlikka joy yo'q. Uning shaxsiy kuchi ko'p bunyodkor ishlar qilishga yetadi. Erkin shaxs bu bunyodkor ishlarni faqat o'zi uchun emas – jamiyat uchun ham qiladi. Erkin shaxsgina davlat va jamiyatga naf keltira oladi.

Tobelik soyasidan chiqishga qo'rwmang. Soyadan chiqsangiz, erkinlik nurlari ko'zingizni og'riqli qamashtiradi, erkinlik oftobi teringizni bir oz kuydiradi. Lekin bu nur va iliqlikka ko'nikkaningizdan so'ng, siz ana shu quvvatdan foydalanishni, uni o'z ko'nglingiz istaklariga erishish uchun ishlatishni o'rganasiz. Erkinlik oftobi ostida avval xayolingizga sig'magan ajoyib mevalar o'stirsa – navnihol maqsadlarni ulkan daraxt darajasiga yetkazsa bo'ladi. Maqsadlarini to'g'ri parvarishlab, undirishga shaxsiy erkinligi yetgan shaxslargina jamiyat va davlatga qadrli insonlar bo'la oladi. Odam erkinlikni tanlashdan qo'rmasa bo'lgani.

JUMA

Rishtalar

Yollangan bog'bon

Ushbu kitob shaxs va davlat o'tasidagi munosabatlarga urg'u berishga qaratilgan. Xo'sh, kuchli shaxs davlatga qanday munosabatda bo'lishi kerak? Bu savolga sodda usulda javob berish uchun yana tasavvurga murojaat qilamiz.

Tasavvur qiling, sizning ulkan gurkiragan bog'ingiz bor. U yerda mevali daraxtlar ham, anvoyi gullar ham, poliz ekinlari ham, sabzavotlar ham bor. Shu bog'ni parvarish qilish uchun siz bog'bon yollaysiz. Chunki siz bunday katta bog'ni orasta saqlashni, undagi barcha o'simliklarni parvarish qilishni o'zingiz uddalay olmaysiz. Bunda bog'bon sizdan ko'ra ko'proq tajribaga va bilimga ega. Uning hayotdagi mahorati – tabiat bergen iqtidori shu: bog' parvarish qilish.

Bog'bon siz to'lagan haq evaziga siz istagan bog'ni yaratadi. Siz aytgan joyga salqin soladi, siz istagan joyga favvora chiqaradi. U bog'ni sizga yoqadigan gullar bilan bezatadi, siz kutgan mevalarni o'stiradi. Siz unga faqat bog' qanday bo'lishini aytasiz – u o'z bilim va qobiliyatini ishga solib, sizga shuni yetkazib beradi. Siz bog'bon o'z ishini qilishiga qo'yib berasiz. Unga nimani qanday qilishni o'rgatmaysiz. Siz uning tajribasi va didiga suyanasiz. U istagingiz bo'yicha bir narsa qilsa, sizga ko'rsatadi – siz yakuniy ishni ma'qul ko'rmasangiz, sizning fikrlaringizni hisobga olib, u tegishli o'zgartirishlarni kiritadi.

Davlat – xuddi ana shunday yollangan bog'bon. Xalq esa bog' egasi. Xalq o'z orzu-istiklalaridan kelib chiqib, kerakli bilim va tajribalarga ega bog'bonlarga bog'ga qarash vazifasini ta'minlaydi va buning uchun ularga haq to'laydi. Davlat xalq istiklalaridan kelib chiqib, mamlakat bog'ida nimalar ekishni, qayerni obod qilish, qayerga suv chiqarish, bog' hosilini bog' egasiga qanday yetkazishni hal qiladi. Davlat hech qachon mamlakat bog'iga egalikni da'vo qilmaydi: u doim bog' aslida xalqniki ekanini esda tutadi.

Bog'ingizga qarash uchun yollagan bog'bonga qanday muomala qilasiz? Undan qo'rqmaysiz, unga ishonasiz – ammo uni nazoratsiz tashlab ham

qo'yiamsiz. U siz bilan maslahatlashmay, bog'da biror katta o'zgarish qilmaydi. Davlatga munosabat ham xuddi shunday bo'lishi kerak: uni tajribasiga ishonasiz, uning ishi uchun haq to'laysiz – lekin doim uning ishini kuzatasiz. Bunday kuzatuvsiz mamlakat bog'iga qarash uchun yollangan bog'bonlar xalq ishonchini shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilishlari mumkin. Bog' mevalarini o'zi uchun o'g'irlaydigan, ish haqini olib, bog'dagi vazifalarini qo'l uchida bajaradigan, bog' egasining haqiga xiyonat qiladigan bog'bonlar ham bo'ladi.

Siz pulga yollangan bog'bonni ulug'lab, ilohiylashtirmaysiz, unga tirikligida haykal va yodgorliklar qurmaysiz. Uni oldida o'zingizni quyi yoki tobe hisoblamaysiz. Uni xatolarini aytishdan, uning qilgan ishlariga munosabat bildirishdan qo'rqmaysiz.

Bizda davlat bilan munosabatda ikki keskinlikka borish ko'p kuzatiladi. Ba'zilar davlatga u yoki bu ishni qanday qilish kerakligini aytib, uni shu ishni qilmaslikda ayblaydilar. Ya'ni, bog'bonga o'z ishini qanday qilishni o'rgatmoqchi bo'ladilar. Boshqalar davlat mamlakat bog'ida nima qilsa qilaversin deydilar. Ya'ni, bog'bonga bog'da istagancha ish qilishga qo'yib beradilar.

Bu ikki keskinlik ham davlat va shaxs munosabatlarini chigallashtiradi. Birinchi holatda davlat o'z ishini samarali bajara olmaydi – bog'bonga bog' egasi tinimsiz o'z ko'rsatmalari bilan xalal berib tursa, bog'bonning ishi unmaydi. Ikkinci holatda nazoratsiz qolgan davlat xalq istaklaridan uzoqlashadi va xalqqa keraksiz ishlarni qiladi – bog'bon bog' egasiga keraksiz daraxtlar va gullarni o'stiradi.

Shaxs o'z istagini, qanday bog'da yashamoqchi ekanini davlatga aytish va davlat ana shu istaklarga monand bog' barpo qilishini nazorat qilishi kerak. Bu ishni eng samarali usulda bajarishni u davlatning tajribasiga ishonib topshirishi va ortiqcha ko'rsatmalar bilan uning ishiga xalal bermasligi lozim. Davlat o'z ishi davomida vaqtı-vaqtı bilan shaxsdan fikr so'rab turadi – shunday holatlarda shaxs albatta o'z fikrini bildirishi, befarq qolmasligi kerak.

Bog'bon ishini nazorat qilish uning faoliyati bilan qiziqish ko'rinishida bo'lishi kerak. Ya'ni, davlatning ishini nazorat qilishda shaxs unga savollar berishi, ishlar qanday ketayotganini bilishga intilishi, vaziyatdan boxabar bo'lib borishi darkor.

Davlat bilan oldi-berdida bir oddiy haqiqat har bir shaxsning yodida bo'lishi kerak: davlat – nomi davlat bo'lgani bilan – o'zi hech qanday boylik yaratmaydi. Uning faoliyati hech narsa ishlab chiqarmaydi, xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantirmaydi. Davlat zavod va fabrikalar, yer maydonlariga egalik qilishi mumkin – lekin u yerda mahsulotni davlatga yollangan ishchilar ishlab chiqaradi.

Davlat – sof holdagi xizmat ko'rsatuvchi tuzilma. Uning mijozlari – butun xalq, xizmat haqi – soliqlar, shu haq evaziga yetkazib berayotgan xizmati – boshqarish. Davlat tabiiy boyliklarni qazib olmaydi – u shu qazib olish jarayonini tashkillashtiradi, kerakli odamlarni bunga ish haqi evaziga jalb qiladi, bu ishlarning boshida turadi. Davlat bozorga bitta ham mahsulot chiqarmaydi – u bozorda kerakli mahsulotlar kerakli miqdorda bo'lishini ta'minlash uchun tegishli choralarни ko'radi. Davlat hatto o'zi yo'l va inshootlar qurmaydi – davlat xalq puliga tegishli odamlarni yollab, xalq foydalanishi uchun yo'l va inshootlar qurdiradi.

Davlat – mamlakatdagi eng katta tashkilot. U xalqning ma'lum qismini ish bilan ta'minlaydi. Bu ulkan tashkilotga xalq o'z intilishlariga monand rahbarlarni tayinlab turadi. Rahbar ana shu ulkan tashkilot va uning bevosita mijozlari bo'lgan xalq o'rtasidagi rishtadir. U tashkilot faoliyati mijozlar xohish-istiklariga qarshi bormasligi, mijoz manfaatlari toptalmasligi, tashkilot va mijozlar o'rtasidagi muloqot ravon va samarali bo'lishini nazorat qiladi.

Xususiy restoranga ovqatlangani kirsangiz, o'zingizni qanday tutasiz? Sizni shirin so'z bilan kutib olishadi, sizga ma'qul joyga o'tqazishadi, qo'lingizga menu tutqazishadi. Siz ham o'zingizni xotirjam his qilasiz – hech nimadan qo'rhmaysiz, hech kim oldida o'zingizni ojiz yoki qarzdor his qilmaysiz. Axir, siz mijozsiz. Bu restoranning mavjud bo'lishdan, uning barcha xodimlarining ishlashdan maqsadi – sizga sifatli xizmat ko'rsatib, sizni rozi qilib, pulingizni olish.

Siz ham restoran xodimlariga madaniyat bilan muomala qilasiz. Pul beraman ekan deb, ularni kamsitmaysiz, injiqlik qilmaysiz. Shu bilan birga, sizga kerakli darajada xizmat ko'rsatilmasa, o'z norozilingizni ochiq aytasiz. Bunda ko'pincha restoran boshqaruvchisi kelib, vaziyatni hal qilishga urinadi. Chunki u rahbar sifatida mijoz va xodimlar o'rtasidagi muammolarni hal qilishga javobgar, uning bunda tajribasi bor.

U sizning istagingizni xodimlarga nisbatan yaxshiroq tushunadi va, kerak bo'lsa, buni o'z xodimlariga yetkaza oladi. Agar rahbar buni uddalay olmasa, biznes zarar ko'radi va o'sa olmaydi.

Mijoz va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmatga asoslanishi lozim. Tashkilot xodimi sizga kutilgandek muomala qilishni, o'z vazifasini ko'ngildan bajarishni bilmasa – bu xodim tartibga chaqirilishi yoki ishdan chetlatilishini tashkilot rahbarlaridan talab qilishni bilish kerak. Bu bilan siz davlat xizmatlari sifati o'sishiga hissa qo'shasiz.

Shaxs ham o'z navbatida davlat xodimi bilan hurmat saqlab muomalada bo'lishi lozim. Ortiqcha haqparastlikka berilish, muhimlikka ergashib, o'z hadini bilmaslik kabi xatti-harakatlar kuchli shaxsga yarashmaydi. Kuchli shaxs davlat bilan hamkorlik ruhida – tengchilik ruhida muomala qiladi.

Yurtboshim – yurtdoshim

Davlat bilan muloqotda hukumat rahbari – prezidentga bo'lgan munosabatimiz alohida o'rinn tutadi. Shu bois ham biz yurtboshiga bo'lgan munosabat haqida alohida bobda suhbatlashamiz.

Mamlakatimiz – prezidentlik respublikasi. Bu hukumat tepasida prezident turishini, barcha davlat tuzilmalari o'z faoliyatları yuzasidan unga hisobot berishini bildiradi. Avvalgi bobda aytilgandek, davlat rahbari – bu davlat va xalq o'rtasidagi rishta. Ulkan davlat tuzilmasi xalq ixtiyoriga monand faoliyat olib borishini nazorat qilish uchun umumiy saylov bilan shu rahbarni tayinlaymiz.

Tarixan xalqimiz yurtboshini ulug'lashga odatlangan. Bu odat qadimdan o'zini buyuk va oliynasab deb atab kelgan hukmdorlar siyosati natijasida yuzaga kelgan. Keyinchalik u arab istilosini bilan yana-da kuchaygan: aynan arab xalifalari o'zlarini Xudoning yerdagi soyasi deb ataganlar, o'z hokimiyatlariga ilohiy asos yaratishga intilganlar. Shu asnoda, hukmdorlar nomini xutba namoziga qo'shib o'qish odat tusiga kirgan.

Hukmdorlarni ilohiylashtirish rasmiy marosimlar bilan cheklanib qolmagan. Ularni oddiy odamlardan yuqori deb bilish odati din peshvolari vositasida oddiy xalq ongiga ham singdirilgan. Shu yo'l bilan xalqda hokimiyatga sadoqat saqlab turilgan.

Bugun demokratik tamoyillarga asosan davlat rahbarini xalq tanlashiga qaramay, hali ham prezident shaxsiyatini ilohiylashtirish, unga o'ta katta ahamiyat berish odati saqlanib qolmoqda.

Prezident ismini yangi tug'ilgan chaqaloqlariga berayotganlar ana shunday muhimlikka chalingan odamlarga misol. Xalq ishonchiga erishgan odamdek ulug' ishlar qilsin degan havas bilan farzandiga amaldagi yurtboshi ismini qo'ygan odam bu haqida hammaga jar solib, shov-shuv qilmaydi. Niyatini o'z ko'nglida va oilasi davrasida saqlaydi. Davlat rahbari ismini bolasiga berib, buni obro' va muhimlik o'yiniga aylantirganlar – prezident shaxsiyatini ilohiylashtirish xastaligiga chalingan ojiz odamlardir.

Odamlar davlat rahbariga bo'lgan munosabatlarini sergak turib, hissiyotlardan holi baholay olmaydilar. Bunda muhimlikka berilmaslik juda qiyin, nimagadir. Biz hali ham rahbar odamni oddiy xalqdan ancha baland turuvchi bir siymo sifatida ko'ramiz.

Har qanday odam bilan bo'lgani kabi, prezident bilan munosabat ham muhimlikdan holi, sergaklikka tayangan bo'lishi darkor. Bunda bir narsani anglash juda muhim: prezident – xalqning rahbari emas. Prezident – davlatga xalq tayinlagan rahbar. Mamlakatimiz bog'ini obod qilish uchun bog'bonlar jamoasiga yetakchilik qilish uchun bosh bog'bon qilib prezidentni biz tayinlaymiz.

Demokratik saylovlар shunday ishlaydiki, bu lavozimga ko'pchilikni o'ziga ergashtira olgan, ko'pchilikni ko'ngliga yo'l topgan va hurmatini qozongan odam sazovor bo'ladi. Ko'pchilikning ishonchini qozonib, hurmatini olgan odam shubhasiz qolganlarning ham hurmatiga munosib. Shu bois, davlat rahbariga humatsizlik qilish kuchli shaxsga yarashmaydigan ish. Lekin, shu bilan birga, u insonni asossiz ilohiylashtirish, uning shaxsiyatidan idol (bud) yasash, shovinizmga berilish yaramaydi. Bunday ishni sergaklikni yo'qotgan, kompleks va muhimlik ta'siriga tushgan, shubha va qo'rquvlar soyasida qolgan odamgina qiladi.

Yurtboshi – boshqa barcha hamyurtlarimiz kabi oddiy yurtdoshimiz. U ham siz-u biz kabi odam. Uning ham o'z fazilat-u, kamchiliklari bor. Hech kim bekam qilib yaratilmagan. To'g'ri – unga katta mas'uliyat yuklangan.

Ammo unga ishonib topshirgan mas'uliyatni ko'tarishda u xalqdan madad oladi, xalqqa suyanib ish tutadi.

Oddiy bir yurtdoshingizni uchratsangiz, unga qanday muomala qilasiz? Eng avvalo, uning hurmatini joyiga qo'yasiz. Uni o'zingizdan yuqori yoki past hisoblamaysiz. Uni ilohiylashtirmaysiz. Unga ortiqcha muhimlik bermaysiz. Uning shaxsiy erkinligini o'zingiznikidan yuqori deb bilmaysiz.

Prezident ham ana shunday oddiy fuqaro, u ham qonun oldida hamma qatori teng. U egalik qilgan ma'lum imtiyoz va qudratni ham unga xalq bergen, bu imtiyoz va qudrat unga ma'lum muddatga berilgan. U shu muddatga xalq vakili etib saylangan. U davlatdan ko'ra xalqqa yaqinroq.

Odamlar orasida davlat rahbariga yana bir noo'rin munosabat bor: ko'pchilik prezident mamlakatdagi har bir narsani hal qilishi, har bir yo'naliш yuzasidan qaror qabul qilishi, har bir masalaga bosh-qosh bo'lishi kerak deb biladi. Bunday yondashuv natijasida bir odam yelkasiga juda katta mas'uliyat tushib, boshqalar o'zlaridan javobgarlikni soqit qiladilar. Buyruqbozlikka o'rgangan davlatning ba'zi vakillari rahbar aystsagina bir ishni qilishga o'rganishgan. Kamchiliklar ham prezident ko'rsatma bermaguncha bartaraf qilinmaydi.

Xalq prezidentni hamma narsani hammaning o'rniga hal qilishi uchun saylamaydi. Bitta odam hamma narsaga javobgar bo'lishi, hamma narsani nazorat qilishi imkonsiz. Prezidentni xalq o'z ishini o'zi bilib, o'rnida bajarishi kerak bo'lgan turli xil davlat idoralari ustidan nazorat yuritishi uchun tayinlaydi. Prezidentning ishi – davlat tuzilmasining ishini boshqarish, xalq istaklariga muvofiqlashtirish, noto'g'ri yoki samarasiz ishlayotgan idoralar ishini isloh qilish yoki yangisiga alishtirish.

Har bir masalani davlat rahbari hal qilib berishini kutish tobelik munosabati hosil bo'lishiga olib keladi. Bu jamiyatda tashabbuskorlik so'nishiga, odamlar ular uchun boshqalar qaror qabul qilib, javobgarlikni ham boshqalar ko'tarishiga ko'nikib qolishiga olib keladi. Jadal o'zgarib borayotgan zamonning turli sinovlariga bunday jamiyat vaqtida moslasha olmaydi.

Rus xalqining "maydonda yolg'iz askar qo'shin bo'la olmaydi" degan dono gapi bor. Birgina rahbar butun mas'uliyatni o'ziga olib, davlatni boshqara olmaydi. Xalq farovonligini ta'minlashni birgina odamga yuklab

qo'yish, shu bilan keyingi saylovgacha bu haqida unutish – shaxsiyati ojiz odamlarga xos. Prezidentning kuchi – uning ortida qo'llab turgan ovoz beruvchilarda, o'z vazifalarini sidqidildan bajaradigan davlat xodimlarida, jamiyatning muammolariga befarq bo'limgan kuchli shaxsiyat egalarida.

Prezident xalq xohish-istiklarini bilish uchun yangi tashabbuslar bilan chiqib, odamlardan fikr so'rasha – uni olqishlar bilan kutib olib, hech bir asosli tanqid yoki foydali fikr bildirmaslik ham jamiyatimiz ravnaqini orqaga surayotgan yana bir illat. Ko'pchilikning fikri bilan yangi tashabbus mukammallashadi, uncha-muncha kamchiliklari bartaraf etiladi, uning samaradorligi oshadi. Davlat rahbarining takliflari yuzasidan fikr bildirish, uni tanqid qilish, ko'pchilik muhokamasiga qo'yishning hech bir yomon joyi yo'q. O'z taklifini yangicha qarashlar va kengroq omma fikri elagidan o'tkazish uchun ham prezident xalq oldiga taklif bilan chiqadi. "Taklifingiz zo'r! Shu paytgacha biz shu narsa haqida o'ylamagan ekanmiz. Mana endi nima qilishni bilamiz" kabi quruq takallufdan hech kimga naf yo'q.

Davlat rahbarining har bir aytgan gapiga turib qarsak chalib, do'ppini osmonga otib, ko'zlariga yosh olaveradigan tomoshabozlar olqishi qanday xunuk manzara ekanini har birimiz yaxshi bilamiz. Kimlardir bunday odatni o'zbekchilikka yo'yadi. Ammo xalqimiz o'zini madaniyatli tutishi bir qadriyat bo'lsa, rahbar qarshisida laganbardorlik qilishning u madaniyatga hech bir daxli yo'q. O'zbekistonliklar samimiylilikni, achchiq bo'lsa ham – ochiq gapni qadriga yetadigan xalq. Mening kitoblarimda yozilgan ko'p gaplar ochiq va achchiq bo'lgani uchun ham kitobxonga ma'qul keladi.

Yuqorida fikrlarda yurtboshi deb faqat amaldagi yoki undan oldingi prezidentlar aytilmagan. Bu bobda ilgari surilgan fikrlar har qanday davlat rahbari bilan munosabatlarda hisobga olinishi kerak.

Altruizm va egoizm

Biz ko'pincha davlat va jamiyat bilan munosabatlarimizda ikki keskinlik o'rtasida qolib, qay birini tanlashni bilmaymiz. Kimdir odamlar bilan oldi-berdida altruist bo'lishni tanlasa, kimdir bunda to'liq egoizmga suyanadi.

Suhbatni davom ettirishdan oldin bu ikki tushunchaga qisqacha ta'rif berib o'tsak. *Altruizm* – jamiyat a'zosi baxtli yashashi uchun boshqalarga yordam berishini nazarda tutadigan yondashuv. *Egoizm* – jamiyat a'zosi o'z shaxsiy manfaatlarini ta'minlasagina baxtga erishishi mumkinligini ilgari suradigan yondashuv. Bir-biriga zid bu ikki yondashuv asosida butun bir falsafa yo'nalishlari yaratilgan: altruizm kommunizm, sotsializm, kollektivizm kabi falsafa maktablariga asos solgan bo'lsa, egoizm – kapitalizm, individualizm, utilitarizm kabi yo'nalishlar asosida turadi.

Xo'sh, ularning qay biri odamlar bilan munosabat uchun ko'proq mos. Qay biri alohida shaxsga ham, butun jamiyatga ham o'z hayotidan mamnunlik hisini olib keladi? Kuchli shaxsiyat egasi altruistmi yoki egoist?

Ko'pincha, yaxshi-yomon o'yiniga berilgan odamlar altruizmni ezgulik, egoizmni yomonlik deb baholaydilar. Boshqalarga yordam berish, saxovatli bo'lish kabi xislatlarni kuchli odam fazilatlari, faqat o'z xohishlari haqida o'ylashni esa xudbinlik alomati deb bilamiz.

Lekin bu ikki keskinlikning ham foydali va zararli jihatlari bor. Masalan, altruizm sergaklikka asoslanmagan bo'lsa, odamlarga zarar yetkazishi mumkin. Agar siz kimgadir har qanday vaziyatda ham yordam beraversangiz – u sizning yordamingizga tobe bo'lib qoladi va usiz mustaqil yashash ko'nikmasini yo'qotadi. Bunda yordamdan sizga ham, uni olayotgan odamga ham hech bir foyda yo'q.

Egoizmga keskin berilish ham doim salbiy natijalarga olib keladi. O'z manfaatlariga qarash bilangina cheklanib qolgan odam jamiyatdan uzilib qolish, ijtimoiy munosabatlarda qiyinchilikka duch kelishga mahkum. Odamlardan ajralgan shaxs esa o'z shaxsiy muhimligiga o'ralashib qoladi va buning jabrini uzoq tortadi.

Bu ikki keskinlik asrlar davomida insonlarni o'ylantirib kelgan. Faylasuflar javob topish qiyin bo'lgan savollarga tabiatdan yechim izlashga

uringanlar. Lekin tabiat altruizm-egoizm muammosini hal qilishda ikkilamchi javob beradi. Yovvoyi tabiatda jonzotlar tirik qolish uchun egoistik yo'l tutishga odatlangan. Masalan, yirtqich o'z o'ljasini ovlashda unga xayrixoh bo'la olmaydi. Yirtqichdan qochgan kiyiklar bir-birini kutmaydi – o'z jonini asrash ilinjida qochadi. Bu kabi holatni kuzatgan odam egoizm tabiiy holat ekani, hayotni egoizm asosida qurish kerak ekani haqidagi xato xulosaga keladi.

Mana shunday xato xulosalar sabab, odamlarda hayot tinimsiz kurash ekani haqida ishonch paydo bo'ladi. Ular boshqa odamlarni ham egoizmda guman qiladilar va shunga monand har kim bilan bellashib yashaydilar. Bunday odamlar altruistlarni ko'ngli bo'sh, suyaksiz va kuchsiz deb biladilar.

Ammo tabiatga yana-da kuchli e'tibor bilan qaralsa, altruizm alomatlarini ham ko'p topsa bo'ladi. Masalan, yirtqichlar o'ljani ovlashda bir-birlariga yordam beradilar. Yirtqichdan qochayotgan ona kiyik bolasini himoya qilishga urinadi. Demak, altruizm ham yovvoyi tabiat dasturlariga kiritilgan.

Altruizmni mahkam ushlagan faylasuflar ham uni ulug'lashda juda keskinlikka boradilar. Hayotni qurbanlik yoki badal deb bilish ham ko'pchilikka xos. Ular doim kimlar yoki nimalar uchundir o'zlarini va o'z istaklarini qurban qilib yashaydilar. Bunday odamlar egoistlarni muttaham xudbin deb biladilar.

Bu chalkashliklarga sabab – odamlarda sergaklik yetishmasligidir. Masalaga tor nigoh bilan qarash va uzoqni ko'ra bilmaslik natijasida odam u yoki bu yondashuvni tanlaydi. **Aslida esa altruizm egoizmdan, egoizm esa – altruizmdan kuch oladi.**

Buni tushunish uchun, keling, yana tabiatga murojaat qilamiz. Yirtqich nega to'dadoshiga ovda yordam beradi? Chunki ov baroridan kelsa, u ham o'liali bo'ladi. Ya'ni, u o'zini o'ylagani uchun boshqalarga yordam beradi. Ona kiyik nega o'z bolasini himoya qiladi? Chunki bolasi nobud bo'lsa, u nasl qoldirish uchun shu paytgacha qilgan hamma urinishlarini yana qaytarishga majbur bo'ladi.

Va aksincha – nega yirtqich o'z o'ljasiga rahm qilmaydi? Chunki u shu o'lia bilan bola boqadi. Nega kiyik ovdan qochganda boshqa kiyiklarga

yordam bermaydi? Chunki u bu bilan o'zini asrab qoladi va keyinchalik nasl qoldirish va uni parvarish qilish imkoniga ega bo'ladi.

Biz nega kimgadir yaxshilik qilamiz? O'zimizni yaxshi inson deb bilish, o'zimizdan ko'nglimiz to'lishi uchun. Biz egoist bo'lganimiz uchun altruistlik qilamiz. Biz nega o'z manfaatimizni boshqalardan ustun qo'yamiz? Chunki bu bilan yaqinlarimiz farovonligini ta'minlaymiz. Biz altruist bo'lganimiz uchun egoistmiz.

Juda chalkash gaplar, shunday emasmi? Soddalashtiramiz hammasini. Boshqalarni o'ylash kerakmi yoki o'zimiznimi degan savolga javob topa olmayotgan bo'lsangiz, mana sizga buni aniqlash uchun ikki tamoyil.

Birinchisi – agar o'zingizdan kechib, boshqalarga yordam berish natijasidan sizga kelgan zarar boshqalarga kelgan foydadan kam bo'lsa – boshqalarga yordam bering.

Ikkinchisi – agar o'z manfaatingizni ko'zlab qilgan ishingizdan siz topgan foyda boshqalarga kelgan zarardan kattaroq bo'lsa – o'z manfaatingizni ko'zlang.

Bu tamoyillar aslida bizning ikkilamchi ongimizga tabiiy dastur qilib yozilgan. Biz turli vaziyatda kimgadir yordam berishga shu ikki tamoyil asosida qaror qilamiz. Masalan, kimnidir mashina urib yuborishi xavfi bo'lsa va biz buni ko'rib tursak, ikkilamchi ongimiz shu odamga yordam berishdan bizga ehtimoldagi zararni bir zumda hisoblaydi va biz o'zimiz anglamagan holda u odamni halokatdan saqlab qolamiz. Bunda ikkilamchi ong hamma narsani hisobga oladi: biz turgan joy, mashina tezligi, xavf ostidagi odamning jussasi, holati, bizning jismoniy kuchimiz va hokazo. Agar bu hisoblashda bizga zarar katta bo'lib chiqsa, ikkilamchi ong tanani karaxt qilib qo'yadi va biz joyimizdan siljiy olmay qolamiz. Shu bois ham bunday qaltis vaziyatlarda bir to'da odam shok holatda qoladi va faqat bir-ikki kishi yordam berishga ulguradi.

Bunday dastur ham tabiat tomonidan bizni asrash uchun yaratilgan. Agar xatarli holatda o'sha yerda turgan odamlarning hammasi yordam berishga urinsa – ular bir-biriga xalal beradi va hammasi xavf ostida qoladi. Tabiat bizga shu darajada mukammal dasturlar berganki, eng qulay joyda, eng ma'qul holatda turgan odamgina harakat qiladi, qolganlarni esa o'z ongi xatardan saqlab qoladi.

Ikkilamchi ong yuqoridagi tamoyillarga amal qilishga xatoga yo'l qo'ymaydi. Lekin kundalik vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayoniga aql boshchilik qiladi. U birovga yordam berish qarorini ham muhimlik o'yiniga aylantiradi. Masalan, achinish yoki g'ururga berilib, kimgadir yordam beramiz. U odam esa bu yordamdan hech bir naf topmaydi. Natijada bizning yordam samarasiz ketadi. Yoki shaxsiy muhimlikka berilib, o'z manfaatimizni ustun qo'yamiz. Natijada, biz topgan foyda ko'pchilikning katta zarari hisobidan bo'ladi. Bunday holatlar ro'y bermasligi uchun odam sergaklikni saqlashi, o'z qarorlarining natijasini yaxshi ko'ra bilishi, bu natijalar uchun mas'uliyatni his qilishi lozim.

Siz bu hayotga o'z manfaatlaringiz uchun kurashish yoki kimlargadir xizmat qilish uchun kelmagansiz. Hayot kurash yoki tovon to'lash emas. Siz bu hayotga kuchli shaxs bo'lib, bunyodkor egoist va bunyodkor altruist bo'lismish uchun – qilgan qarorlaringiz bilan boshqalar va o'zingizga zarardan ko'p foyda keltirish uchun, mana shundan o'zingizni baxtli his qilib yashash uchun kelgansiz. Shuni esda tutsangiz, keriklik ham, egiklik ham sizga yaqin yo'lamaydi.

SHANBA

Bunyodkor kuch

Faxr

Vatanga munosabat haqida gap ketganda faxr tuyg'usi alohida mavzuga munosib. Biz o'zimizdan va o'zligimizdan faxrlanishni yoqtirgan kabi, vatanimizdan faxrlanishni ham juda yaxshi ko'ramiz.

Ammo har qanday faxr tuyg'usi ham bunyodkor bo'lavermaydi. Har kim o'z shaxsiy kuchiga qarab turli xil faxr tuyg'usiga beriladi. Buni anglash uchun, keling, faxrning qanday turlari borligini batafsil ko'rib chiqsak.

Faxrning eng tuban ko'rinishi – bu kibrdir. Kibr haqida avvalgi kitoblarda ham aytib o'tilgan. Kibr – odam o'ziga, millati va xalqiga, vataniga asossiz ortiqcha baho berishidan kelib chiqadi. Kimdandir nimadadir ustunligini aniq bilmay turib, o'zini boshqalardan yuqori hisoblashdan kelib chiqadi bu holat.

Kibr – juda ham kulgili tuyg'u. Avvalgi kitoblarda unga shunday o'xshatish berilgan: kibr hisi xuddi katta opasining ko'ylagini kiyib olib, o'zidan xursand bo'lган qizcha zavqiga o'xshaydi. O'ziga yarashmagan – aslida uniki bo'lмаган buyuklikni ustiga ilib olib, hammaga ko'z-ko'z qilgan odam atrofdagilar ko'ziga juda kulgili ko'rindi.

Bugun xalqimizning buyuk o'tmishini o'ziga libos qilib kiyib olib, hammaga jar solayotgan "vatanparvarlar" kibrga berilgan ojiz shaxslardir. O'zi hozirgi paytda xalq uchun, yaqinlari uchun hech bir foydali ish qilmay turib, tarixda o'tgan buyuk bobo-momolari ishlari bilan maqtanish – tan olaylik, juda kulgili.

Shu o'rinda bugun jamiyatimizda avj olayotgan o'ziga xos "kibrbozlik" holatini muhokama qilib o'tishimiz kerak. Bugun xalqimizning buyuk o'tmishini, buyuk ajdodlarimizning qilgan buyuk ishlarini gapirib (faqatgina gapirib) faxrlanadiganlar ko'paygan. Ko'pchilik, nimagadir, buyuk o'tmish haqida og'iz ko'pirtirib so'zlaydi-yu – kamdan-kam odam bugunimiz ana shu buyuk o'tmishimizga qanchalik monand ekani haqida o'ylaydi. Ajdodlarimiz buyuk ishlar qilgan – buni hech kim inkor eta olmaydi – ammo biz ularga munosib bo'lish uchun nima qilyapmiz? Bir

paytlar Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek va Bobur kabi ulug'ver chinorlar o'sgan bu bog'da bugun nega ana shu ulkan daraxtlar haqida maqtanib yurgan maysalargina o'syapti?

Men buyuk tarix bilan quruq maqtanish holatiga duch kelsam, bir gapni ko'p ta'kidlayman: **bugungi qoloqligini buyuk o'tmishi pardasi ortiga berkitishga uringan xalq halokatga yaqin borgandir.**

Kibrbozlikka berilgan odamlar yana bir mantiqsiz ishonch bilan yashaydi: tariximiz buyuk bo'lgani uchun, kelajagimiz ham buyuk bo'ladi. Bunday ta'kid kibr hisida mantiqiy asos umuman yo'qligiga yana bir dalil. Bir paytlar buyuk daraxtlar o'sgan bog'ni bugun maysa bosgan bo'lsa ham – ertaga u yerda yana ulkan daraxtlar bo'lishini ta'kidlash uchun haqiqatdan yuz o'girgan odam bo'lish kerak. Ertaga meva beradigan daraxtlar unishi uchun, bugun yerga kerakli urug'larni qadash kerak ekanini har qanday fikri butun odam yaxshi anglaydi.

Kibrning yana bir alomati shuki, unga berilgan odam o'zi faxrlanayotgan qadriyat haqida juda kam narsa biladi. Odamlarni e'tibor bilan kuzatsangiz, buyuk o'tmishidan kibrlnayotganlar xalqimiz tarixini yaxshi bilmaydilar. Buyuk ajdodlari bilan maqtanib, kibrlnayotganlar o'sha ajdodlari asarlari, qilgan ishlari, qoldirgan o'gitlaridan bexabarlar. O'sha buyuk siymolar aynan kibr kabi tuban odatdan nari yurganliklari sabab ham ulug'ver ishlarga qo'l urganliklarini bilishga ularning shaxsiy kuchi yetmaydi.

Faxrning yana bir ko'rinishi – bu manmanlikdir. Manmanlikka odatda bilimli odamlar beriladi. Ular faxrlanish uchun asoslarni biladilar va ana shu asos sabab o'zlarini kimlardandir ustun hisoblaydilar. Tariximizni yaxshi bilib, o'tmishdagi buyuk ajdodlarimiz ishlarini astoydil o'rganib ham odam manmanlikka berilishi mumkin. Boshqa xalqlar tarixi va madaniyatini hurmat qilmaslik, ular bosib o'tgan yo'l ahamiyatini past bilish – o'z boy tarixi sabab, boshqalarga yuqorida turib qarash milliy manmanlik belgilari. Xalq manmanlikka berilgan bo'lsa, demak uning ojiz vakillari ko'p. Bunday xalq tannoz qizday oxir oqibat yolg'iz yashashga, yakkalanishga mahkum.

Men juda qiziq bir holat guvohi bo'lganman: manmanlikni vatanga yoki xalqiga mehri deb adashganlar boshqa yurtlarda bu manmanlikni yana ham kuchaytiradilar. Uyida qilmagan "o'zbek"ligini musofir yurda qilgisi

kelib qoladi. Uyida qilmagan oqibatni begona yurda istab qoladi. Bu holat manman shaxslardagi faxr tuyg'usi qanchalik mo'rt ekanini yaqqol ko'rsatadi: notanish muhitga tushsa, bu faxr tuyg'usi doimiy boquvga va qarovga muhtoj bo'lib qoladi. Ya'ni, o'z yurtida osongina o'zidan faxrlangan, begona yurda shu o'zidan faxrlanish uchun sabablarni tinimsiz o'ziga eslatib turishga ehtiyoj sezadi.

Milliy manmanlikka berilgan shaxslarning yana bir mantiqsiz odati bor: ular millatning ojiz vakillarini qabul qila olmaydilar. Ular o'zbeklar orasida ham turli xatolarga yo'l qo'yadigan kuchsiz odamlar borligini tan olishni istamaydilar. O'z hayotini boshqara olmagan yoki yo'ldan adashgan millatdoshlarini ko'rsalar – ulardan nafratlanishga tushadilar. Va bu bilan o'zlaridagi faxr tuyg'usi qanchalik nisbiy va ishonchhsiz ekanini oshkor qilib qo'yadilar.

Va nihoyat, faxrning eng yuqori ko'rinishi – bu g'ururdir. Ko'pchilik kibr va manmanlikni g'urur bilan adashtiradi. Odamlar o'zlarida haddan ziyod avj olib ketgan shaxsiy muhimlik tuyg'usini ham "g'urur" niqobi ortiga berkitmoqchi bo'ladilar.

Mag'rur shaxs – shartsiz va sababsiz g'ururlanadi. U o'z xalqi bilan faxrlanish uchun asos ham, sabab ham izlamaydi. Uning xalqiga bo'lgan mehri millatning buyuk o'tmishiga ham, bugun erishgan yutuqlari yoki yo'l qo'ygan xatolariga ham bog'liq emas. U xalqidan shunchaki faxrlanadi. Mana shu milliy g'urur. Mana shu vatanni shartsiz sevish.

G'ururli odam o'z tarixidagi qora kunlardan uyalmaydi. U har qanday millat tarixida ham xatolar, noto'g'ri qarorlar bo'lismashini biladi. Bunday odam alohida shaxs singari butun xalq ham o'z xatolaridan tajriba orttirishini – yuksalib borishini biladi. Mag'rur odam xalqi o'tmishda qilgan xatolari va ulardan o'ziga olgan qimmatli xulosalari bilan ham faxrlanadi.

G'ururli odam o'z tarixidagi ulug' ishlardan kibrlanmaydi. U inson qilishi mumkin bo'lgan har qanday buyuk ish kamtarona mehnat evaziga amalga oshishini biladi. Bunday odam o'z millatini boshqalardan buyukroq yoki ustunroq bilgani uchun emas – xalqi hech kimnikiga o'xshamagan, hech kimniki bilan taqqoslab bo'lmaydigan o'ziga xos yo'l bosib o'tgani uchun yaxshi ko'radi.

Faxrning bu uch ko'rinishini bir-biridan ajratish juda oson. Buni sportga muxlislik qilishda yaqqol ko'rish mumkin. Kibrli odam o'zbeklarning ham o'z sporti, terma jamoasi va championlari borligidan faxrlanadi. Vaholanki, u o'zbek sporti, terma jamoa a'zolari, ular erishgan yutuqlar haqida juda kam narsa biladi. U, shunchaki, faxrlanish yoqimli bo'lgani uchun milliy sportchilaridan faxrlanadi.

Manman odam terma jamoa kimnidir yutsa, kimdandir ustun kelsagina ulardan faxrlanadi. Unga jamoaning mehnati emas – nom va faxr beradigan yutuq muhim. Bordi-yu sportchilar kimgadir yutqazib qo'ysa, ular o'zlarini kansitilgan his qiladilar. Ularning milliy sport bilan faxrlanishlari bellashuv natijasiga bog'liq.

G'ururli odam milliy sporti, sportchilari bilan har qanday holatda faxrlanadi. Uning hurmati g'alabaga emas – terma jamoaning mehnatiga qaratilgan. U sportchini millionlab yoshlarga sog'lom turmush tarzi bilan o'rnak bo'lgani uchun qadrlaydi. Sportchining musobaqadagi g'alabasidan ham, mag'lubiyatidan ham birdek faxrlanadi.

Vatanga bo'lgan mehringizni kibr va manmanlikdan holi qilsangiz – qolgani sof g'urur tuyg'usi bo'ladi. Kuchli shaxsga o'z xalqini sevish uchun buyuk tarix yoki nomdor ajdodlar kabi asos kerak emas. Kuchli shaxs o'z xalqidan yuksalishi yoki tushishi, buyukligi yoki qoloqligi, g'olib yoki mag'lubligidan qat'iy nazar faxrlanaveradi. Kuchli shaxsning milliy g'urur tuyg'usi ham kuchli va haqiqiy bo'ladi.

Shaxsiy o'sish va ta'llim

Men avvalgi turkumdagи kitoblarda ham bilim va ma'lumot haqida ko'p gapirganman. Bu ikki tushuncha ko'pincha bir narsa deb bilinishi xato ekanini sizga yetkazishga harakat qilganman. Mana endi shu xulosalarni jamiyat miqyosida qo'llashga urinib ko'ramiz.

Nima deb o'ylaysiz: yurtimizda har bir odam oliy ma'lumotli bo'lsa, jamiyatimiz kuchliroq bo'larmidi? Tasavvur qiling, mакtabda hamma besh bahoga o'qisa, har bir o'quvchi har bir fanni a'lo darajada bilsa – bundan kuchli shaxslar soni ko'payadimi? Bundan baxtlilar soni ko'payadimi?

Bugun oramizda ko'p narsadan xabardor yoshlar ko'p. Ular juda ko'p narsa haqida ko'p ma'lumotga ega. Huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirish uchun oliygohga tayyorlangan yigit sizga tarixda qaysi voqeа qaysi yil va qaysi kunda bo'lganini o'ylanmasdan aytib beradi. Shifokorlikni maqsad qilgan qiz hujayra qismlarini to'xtamay sanab bera oladi. Lekin bunday "ma'lumot omborlari" eng asosiy narsaga ega emaslar: **ularda yaratuvchanlik yo'q.**

Tarixni yoddan bilgan yigit miyasining ulkan sarhadlarini egallab yotgan bu ma'lumotlardan foydalanib, foydali va amalda qo'llasa bo'ladigan g'oyalar ayta olmaydi. Hujayra tuzilishini surat kabi chizib berishni bilgan qiz ham ana shu hujayra salomatligini ta'minlash uchun yangi usul taklif qila olmaydi.

Internet kabi texnologiyalar borgan sari ommalashib borayotgan zamonda bunday "tirik ensiklopediyalar"dan hech qanday naf yo'q. Istagan odam deyarli istagan ma'lumotni internetdan izlab topishi mumkin. Xo'sh, bizning jamiyat nega ertaga hech kimga kerak bo'lmay qoladigan kadrlarni yetishtiryapti?

O'z hayoti uchun boshqalarni yoki davlatni mas'ul deb biladigan odam bunday savolga osongina javob topadi: "Zamon shunaqa. Kerakli fanlardan kerakli ma'lumotlarni yoddan bilmasang, o'qishga kira olmaysan. O'qishga kirmasang, diplomsiz qolasan. Diplomsiz esa hech kimga kerak emassan". Bir qarashda bu juda mantiqli gaplar. Lekin, keling, biz bu savolga jiddiyroq qarab ko'ramiz.

Nega biz mакtabga boramiz? Asosiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun. Mакtab bizga xat-savod va hisob-kitob kabi elementar ko'nikmalarni berishdan tashqari, bizda jamoa a'zosi bo'lish va odamlar bilan muloqot qilish odatlarini ham shakllantiradi. Ko'pchilik ota-onasini nomdorroq mакtabga bersa, u bilimliroq bo'ladi deb o'laydi. Ammo sizga bir sirni ochaman: **mакtab hech kimga bilim bermaydi.** Mакtab faqat ma'lumot beradi.

O'qituvchilik kasbini faxr bilan egallab yurganlar mening bu ta'kidimdan g'azabi kelmay turib, bu bilan nima demoqchi ekanimni tushuntirib beray.

Deylik, birinchi sinfga 25 o'quvchi yig'ildi. Ularga ustozlari harflarni qanday tanish va sonlarni qanday sanash haqida *ma'lumot* beradilar.

O'quvchilarning har biri bu ma'lumotni bir xil oladi: hammasi o'qituvchi ularga doskada yozib yoki og'zaki aytib uzatayotgan ma'lumotni qabul qilib oladi. Lekin har bir o'quvchi bu ma'lumotni turlicha ishlataladi: biri bu ma'lumotni ustoz harakatlarini takrorlash uchun ishlataladi va unga ergashib, yozishni o'rganadi. Boshqasi ikkita olma yoniga yana bitta olma qo'yib, ularni sanab ko'rib, ikkiga bir qo'shishni amalda sinab ko'radi. Ba'zilar esa ustoz bergen ma'lumotni birinchi eshitganda xotiraga ulgurgancha joylaydi va qaytib ularga murojaat qilmaydi.

Birinchi tur o'quvchilardan ajoyib xattotlar chiqadi: ular yetaricha uzoq mashq qilsa, chiroyli husnixat egasi bo'ladilar. Bunday o'quvchilar bir ko'nikmani egallab, uni mukammal darajaga olib chiqsa oladilar. Ulardan hamma narsani joy-joyida qiladigan mutaxassislar yetishib chiqadi.

Ikkinci tur o'quvchilardan tengi yo'q hisobchilar chiqadi: ularda vaqt o'tib, hisob-kitobni tez va sifatli bajaradigan qobiliyat shakllanadi. Bundaylardan katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlay oladigan kuchli mutaxassislar chiqadi.

Uchinchi guruh esa maktabda olgan ma'lumotidan hech bir naf topmaydi: ular keyinchalik bu bo'shliqni hayotda bir nima o'rganib to'ldirishga majbur bo'ladilar. Bundaylar har bir narsani majbur bo'lganda va kezi kelganda o'rganadilar. Bunday tur odamlardan tijoratchi va tadbirkorlar chiqadi.

Yuqoridagi uch toifa atigi bir misol. Lekin ularning umumiy jihat shuki, ularning hech biri maktabda *bilim* olmaydi. ularning har biri maktabda olgan ma'lumotini har xil usulda ishlataladi. **Bilimni ularning o'zi topadi.**

Maktab bizga uy qurish uchun hamma xom ashyoni beradi: qum, yog'och, g'isht va hokazo. Lekin maktab bizga uyni qanday qurishni o'rgatmaydi. O'rgata olmaydi ham – chunki bir odam boshqasiga faqat ma'lumot berishi mumkin, bilim emas. Maktab bergen xom ashyolarni nima qilishni biz o'zimiz tanlaymiz.

Bugun ko'pchilik yaxshi mutaxassis bo'lish va maqsadlariga erishish uchun maktabda faqat uchta fanni yaxshi o'qish yetarli deb o'ylaydi. Chunki shu uch fandan olingan ma'lumotlar unga oliyoh eshigini ochib beradi. Lekin uyni faqat uchta xom ashyodan foydalanib qurib bo'lmaydi: bordi-yu bir nima qilib qurilsa ham, bunday uy uzoqqa yaramaydi. Quruq

ma'lumot bilan esa oliygoh imtihonidan o'tishdan boshqa hech narsaga erishib bo'lmaydi. Ingliz tilida yuzlab so'zlarni yoddan bilsa ham, ularni ishlatib, bir ma'nili gap ayta olmaydiganlar qancha. Bunday odamlar ma'lumotni bilim deb xato tushunadilar va bilim o'rniغا ma'lumotni ovlash bilan ovora bo'ladilar.

Ma'lumot bilimga aylanmasa, undan hech bir naf yo'qligi haqida avvalgi kitoblarda ko'p aytganman. Bunga ortiqcha to'xtalmaymiz. Lekin bilimga erishish bilan marraga yetilmaydi. Bilimni egallagandan so'ng, ana shu bilimni ishlata bilish kerak.

Men juda oddiy misol keltiraman. Menga ko'pchilik turli narsalar ta'rifini so'rab murojaat qiladi. Men ularga buni mustaqil izlab topishni aytaman. Ba'zilari bundan xafa ham bo'ladi: so'rab o'rganishni nimasi yomon deb g'ashlanadi. Birovdan ma'lumot so'rab olishning hech bir yomon joyi yo'q. Lekin, o'ylab ko'ring – shu odamlar, masalan, internetda ko'p narsa haqida ma'lumot izlab topish va o'qish mumkinligini bir paytlar o'rgangan. Lekin ular ana shu bilimlarini ishlata olmaydilar. Eski bilimlarini ishlata bilmagan odamlarga yangi ma'lumotni berish uchun esa men vaqtimni sarflamaslikni tanlayman.

Men bilgan ko'p yoshlarda bugun topilmaydigan fazilat – yaratuvchanlik asosida aynan bilimni ishlata olish qobiliyati turadi. Yaratuvchanlik yetishmasligiga esa boshqa bir ajoyib fazilat taqchilligi sabab – qiziquvchanlik. Biz bilimni egallagandan so'ng, savollar berishdan to'xtaymiz. Bilganimiz bizga yetarli tuyiladi. Hisob-kitobni o'rgandikmi – shu bilan kunim o'taveradi deymiz. Albatta, murakkab hisob-kitoblarni bajarib ham yashayverasiz. Lekin bir kun kelib bu ishni sizdan yuz marta tezroq qiladigan kompyuter yaratilsa – tamom, siz hech kimga kerak bo'lmay qolasiz.

Maktab yoki oliygoh sizni bilimli qila olmaydi. Davlat ham, buni qancha istamasin, sizni bilimli qila olmaydi. Sizdan boshqa hech kim sizga bilim bera olmaydi. Bilimni berib bo'lmaydi – uni faqat olish mumkin. Bilim o'zingiz uni borib egallamaguncha, sizniki bo'lmaydi. Uni egallagandan so'ng ham izlanishdan – savollar berishdan to'xtamang. Chunki izlanishdan to'xtagan odam o'sishdan to'xtaydi. O'sishdan to'xtagan daraxt esa hech bir bog'da aziz emas, hech kimga kerak emas.

Beshinchi qatlam

Shaxsning davlatga bo'lgan munosabatida vatanparvarlik tuyg'usi alohida o'r'in tutadi. Har xil odam vatanparvarlik deganda har xil narsani tushungani bilan, ko'pchilik bu tuyg'uni vatanga mehr deb ta'riflaydi.

Mehr nima o'zi? Uni qanday ta'riflash, qaysi so'z bilan baholash mumkin? Uning manbayi qayerda? Uni fikr bilan qamrab bo'ladimi? Avvalgi kitoblarda mehrga ta'rif berishga uringanmiz. Lekin bu mavzuga yana va yana qaytishga majburniz. Bu safar bizni qiziqtirgan savol: mehrning qanday darajalari bor? Keling, bu bobda shu haqida fikr yuritib ko'ramiz.

Qadimgi sultanatlar qurban piramidalar haqida hamma biladi. Uni toshlardan qavat-qavat qo'yib qurishgan. Asosdagagi qatlam eng katta, uning ustidagi kichikroq, keyingisi yana ham kichik. Shu zaylda so'ngi tosh eng yuqoriga qo'yilguncha ehrom qad ko'tarib borgan.

Odamning dunyo va uning tarkibiy qismlariga bo'lgan munosabatini ham xuddi shunday piramidaga o'xshatsa bo'ladi. Har qalay, qarashlari to'g'ri va ko'ngli keng bo'lgan odam shunday ish tutadi.

Bizning mehr pyramidizning eng katta – poydevor qatlami – bu borliqni yaratgan buyuk qudratga mehr. Butun koinot, undagi galaktika va yulduzlar, borki modda va quvvatni bor qilgan qudratga mehr – bu birlamchi mehr. Ko'p falsafa va ta'llimotlar xudo bu borliqni mehr kuchi bilan yaratganini aytadi.

Ikkinci qatlam – bu ana shu qudrat yaratgan borliqni sevish. Bu ilmni sevish degani. Biz yashab turgan dunyo, uning sirlarini bilishga intilish. Ulkan yulduzlardan tortib, eng mayda zarrachalargacha bizga ko'plab sirlarni ochishga tayyor – biz faqat izlansak bo'lgani. Ana shu sirlarni qancha ko'p bilsak, yaratuvchi qudratning mahorati, u bor qilgan olamning mukammalligini yaxshiroq anglaysiz. Bu ilmlar bizga yaratuvchiga bo'lgan mehrni kuchaytirishga yordam beradi.

Uchinchi qatlam – shu borliqda ahd kuchi bilan taqdirlangan mavjudotlarga mehr bilan munosabatda bo'lish. Borki tirik jon bu olamda o'z o'niga va vazifasiga ega – tabiatda hech narsa sababsiz va natijasiz bo'lmaydi. Ana shu go'zallikni ko'ra bilish, o'simlik va hayvonlarga,

qanotli va suzgichli jonzotlarga mehr va xolislik bilan munosabatda bo'lish – oddiy insoniylik belgisi. Yaratganga mehr u bor qilgan barcha jonzotlarga mehr orqali ifoda etiladi.

Keyingi qatlam – odam nasliga mehr. Kimligidan qat'iy nazar, har kimni inson sifatida qadrlay bilish, asosli yoki asossiz biror kimsaga nafrat va g'ayirlik bildirmaslikni nazarda tutadi bu mehr. Irqi, millati yoki diniga qarab odamlarni qoralash – butun borliqni mushtarak qilib turgan mehr qudratiga xiyonatdir. Inson nasliga mehri yo'q odam yaratganga ham mehrsizdir.

Mehr piramidasidagi beshinchi qatlam – o'z xalqiga mehr. Bu biz bilan bir mamlakatda yashayotgan, o'z mehnati bilan jamiyatimizga foyda keltirayotgan har bir hamyurtimizga mehr. Bunda ham odamning na dini va na millati ahamiyatga ega – toki u shu yurt fuqarosi ekan, bizning hurmatimiz va mehrimizga loyiq. Xalqparvarlik, mening nazarimda, haqiqiy vatanparvarlik. Vatan – bu xaritadagi chiziqlar bilan ajratilgan yer bo'lagi emas. Vatan – bu shahar qishloqlar, dalalar-u tog'lar yoki tabiiy boyliklar emas. Vatan – bu ana shu mamlakatga boshchilik qilayotgan davlat emas. Davlat keladi va ketadi, uning yuzi doim o'zgaradi. Vatan – bu shu hududda yashayotgan xalq. Xaritalar qanday chizilmasin, rahbar kim bo'lmasin – xalq o'zligicha qoladi. Yurtdan uzoqda yurgan odam yeri u suvni emas – odamlarni qumsaydi. Ko'ngliga yaqin, unga mehr berib mehr olgan odamlarni sog'inadi. Albatta, yer-suv, bog'-dalalarning moddiy qiymati bor. Lekin haqiqiy ma'naviy (nomoddiy) boylik – xalqdir. Vatanni sevmoq – o'z xalqini sevmoq imondandir.

Shu yerda bir narsani yaxshi tushunish zarur: xalqni ya'ni vatanni sevish uni boshqa xalqlar va yurtlardan ustun qo'yish hisobiga bo'lmasligi darkor. Bunday sevgi – nisbiy sevgi, bunday mehr – shartli mehr. Bunday mehrni o'z xalqini sevish uchun asos izlaydiganlar ko'nglida olib yuradi: asos topsa, sevadi, bo'lmasa – yo'q. Vatanga mehr – mutlaq bo'lishi, hech kimga qiyoslanmasligi, hech shartga bog'lanmasligi kerak. Xuddi yaratganni shartsiz sevgandek – vatanni ham shartsiz sevish lozim.

Mehr piramidasidagi oltinchi qatlam – bu yaqinlarga bo'lgan mehr. Oila a'zolarimiz, do'st-dugonalarimizga shartsiz mehr bera olishni nazarda tutadi bu pog'ona. Bugun ota-onalar va farzandlar, aka-uka va opa-

singillar, birodarlar o'rtasidagi munosabatlar borgan sari tobelikka aylanib qolmoqda. Farzandning ota-onaga mehri ularning bolani qanchalik yaxshi ta'minlashlariga qarab belgilanyapti. Ota-onaning farzandlarga mehri bolalar qanchalik ularning izmida bo'lismiga qarab o'lcchanyapti. Jigarlar o'rtasidagi mehr ham moddiy manfaatlarga asoslanyapti. Turmush o'rtoqlar bir-birini shartsiz sevishni bilmayapti va oilalar buzilyapti. Buni faqat mehrni shartlar va manfaatlardan tozalabgina o'nglash mumkin.

Va nihoyat, yettinchi – eng kichik va eng so'ngi qatlam – bu odamning o'z-o'ziga bo'lgan shartsiz mehridir. Bu mehr haqida avvalgi kitoblarda ko'p narsa aytilgan. Qo'rquv va shubhalardan holi bo'lish, komplekslar va shaxsiy muhimlikni jilovlash, ilm ovlash va sog'lom hayot tarziga amal qilish – o'zimizga bo'lgan shartsiz mehr belgilari.

Ba'zi odamlarda bir mehr boshqasiga zid chiqib qoladi. Masalan, yaratuvchiga bo'lgan "mehri" (bu so'z qo'shtirnoq ichida yozilishga to'liq haqli) kimnidir odam hayoti va tinchligiga tajovuz qilishga undaydi. O'z zaif e'tiqodi sabab, u yaqinlariga zulm qiladi, xalqiga isnod, insoniyatga kulfat keltiradi. Bunday odam bu borliqni mehrdan va mehr bilan yaratgan qudrat hech qachon qahr va buzg'unchilikka undamasligini – har qanday yaratuvchi kuch buzg'unchi kuchni qoralashini esdan chiqaradi.

Bunday shartli mehr ziddiyatlari hammamizda bo'ladi. Oilamizga mehrni xalqqa mehrdan ustun bilamiz va odamlardan yilib bo'lsa ham, oilamiz manfaatini ta'minlaymiz. Yoki o'zimizni shartli sevib, xudbinlikka berilamiz va o'z foydamiz uchun boshqalar manfaatini oyoqosti qilamiz. Bunday holatlarda odamda mehrdan asar ham bo'lmaydi – bunday odamning xatti-harakatlarini shaxsiy va tashqi muhimlik boshqaradi. Bunday shaxsning irodasini manfaatparast aql to'lig'icha egallagan va uning yuragida mehrga joy qolmagan.

Bu gaplarning hammasi balandparvoz tuyilishi mumkin. Lekin amalda ish berishiga qarab, o'zingiz bu fikrlarni elakdan o'tkazib olaversiz. Xudoni yaxshi ko'rgan u yaratgan olam va u yaratgan boshqa jonzotlarni ham yaxshi ko'radi. Mana shu bilan u yaratuvchi qudratga bo'lgan mehrini ifoda etadi. Yaratganga muhabbat toat-ibodat yoki diniy amal bilan yuzaga chiqmaydi. Yaratganga mehr ilmga ishq, borliqqa ishq, borki tirik

jonga ishq, insonga ishq va o‘z qalbiga ishq bilan yuzaga chiqadi. Shu bois ham bizga ko‘ngil berilgan.

Xalqparvar bo‘ling – o‘z yurtdoshlaringizni navlarga ajratmay yaxshi ko‘rishni o‘rganing. Odamlari xalqparvar bo‘lgan jamiyat ocharchilik ham, nochorlik ham ko‘rmaydi. Odamlari ilmparvar bo‘lgan jamiyat buyuk kashfiyotlar qiladi. Odamlari yaratganni shartsiz sevgan jamiyat hammaga ma’naviy ibrat bo‘ladi. Bunday xalq, bunday jamiyat – bunday davlat yaratganning ham, yaratilganlarning ham rahmatiga sazovor bo‘ladi. Oddiygina mehrning qudrati – koinotdagi yagona cheklanmagan qudrat.

YAKSHANBA

Baxt

Mana, qadri do'stim, bu galgi suhbatimiz ham nihoyasiga yetdi.

Bu suhbatimiz juda jiddiy bo'ldi. U juda qizg'in mavzularga tegib o'tdi. Bahsli fikrlar ko'p aytildi. Ammo bu qiyinchiliklardan biz omon o'tdik. Fikrlarimiz kengaydi, sergakligimiz oshdi.

Davlat bilan muomalamizni ravonlashtirishni o'rgandik. Fuqaro sifatida o'z o'rnimizni to'g'ri anglashga, bunda muhimlikka yoki komplekslarga berilmaslikka odatlandik. Davlatdan qo'rqish emas – uni hurmat qilish kerakligini tushundik.

Xalqimizni sevishni, unga nisbatan xolis bo'lishni – xalq sifatida kuchli bo'lish, yakdil bo'lishning afzalliklaridan boxabar bo'ldik. Vatanparvarligimiz – haqiqiy vatanparvarligimiz kuchaydi. Milliy g'ururimiz muhimlik dog'laridan tozalandi.

Ushbu yutuqlarga siz kabi men ham suhbat davomida erishdim. Menga ushbu mashaqqatli yo'lda hamroh bo'lganingiz uchun sizdan cheksiz minnatdorman.

Rahmat sizga.

Muallif haqida

Ismi-sharifim – Javlon Juraev

Mutaxassisligim – iqtisodchi

Qiziqishlarim – falsafa, amaliy psixologiya, jamiyatshunoslik, axborot texnologiyalari, adabiyot, tillar, musiqa, tasviriyl san'at

Internet sahifam – www.juraev.uz

Email manzilim – dilpora@gmail.com

Agar kitob sizning shaxsiy o'sishingizga oz bo'lsa-da hissa qo'shgan bo'lsa – uni ma'qul topgan do'stlaringizga tavsiya eting. Bu kabi bilimlar har kimga daxldor va ulardan foyda topishga har kim haqli. Ishoning – atrofimizda kuchli shaxslar qancha ko'p bo'lsa, hayotimiz shuncha yorqin bo'ladi.